

UDK: 336.22

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

K.Q.Tajibayev, N.N.Tursunov

"SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH"

fanidan

AMALIY MASHG`ULOTLAR UCHUN
QO`LLANMA



NAMANGAN - 2020

Mamlakat iqtisodiyotini tartiblash va umumahamiyatga ega bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirish uchun davlat ma'lum miqdordagi moliyaviy manbalarga ehtiyoj sezadi. O'zbekiston Respublikasi moliya tizimida soliqlar va boshqa majburiy ajratmalar orqali davlat byudjetini hamda ijtimoiy jag'armalarning daromadlari shakllantiriladi. Mazkur munosabatlar bakalavriat bosqichining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida batafsil o'rganib chiqiladi, lekin noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarda ham soliq'larga oid tushinchalarni shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur o'quv qo'llanma 2020 yil 1 yanvardan amalga kiritilgan (yangi taxrirdagi) O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoniga hamda soliq sohasidagi boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat bosqichining noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida "Soliqlar va soliqqa tortish" kursining o'qitish jarayonida soliqlarning nazariy masalalari, ularning ob'ektiv zarurligi, soliq to'lovchilarning majburiyatlari va huquqlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning soliqqa tortish masalalari atroflicha o'rganiladi.

"Soliqlar va soliqqa tortish" kursining o'qitishdan maqsad talabalar ongida soliqlar to'g'risida tasavvurni hosil qilish va soliq to'lovchi sub'ektlardan undiriladigan soliqlar va majburiy to'lovlarning huquqiy asoslarini, ular orqali to'plangan daromad manbalaridan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni shakllantirish hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlarini tadrijiy rivojlanishi va yutboshimiz tomonidan chiqarilgan farmon va qarorlarning ma'no-mohiyatini talabalar ongiga singdirishdan iboratdir.

Talabalarning "Soliqlar va soliqqa tortish" kursini o'zlashtirishda amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati katta. Talabalarga amaliy mashg'ulotlar olib borishda ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Kursni o'zlashtirishda elektron materiallar, virtual stendlar hamda soliq xizmati organlari web-saytlari ma'lumotlaridan axborot texnologiyalardan foydalaniladi.

Mualliflar:

K.Tajibayev, N.Tursunov

Taqrizchilar:

i.f.n.dotsent

K.Sirojidiinov

i.f.n.dotsent

Q.M. Yuldashev

Namangan davlat universiteti ilmiy kengashining 2020 yil _____dagi majlisi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan (Bayonnoma №____)

1-AMALIY MASHG'ULOT:
“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” MAXSUS KURSINING
O'QITISHNING ZARURLIGI, MAQSADI VA VAZIFALARI,
SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI.

Reja:

1. “Soliqlar va soliqqa tortish” maxsus kursini noiqtisodiy ta'lim yo'nalishi talabalariga o'qitishning zarurligi, kursning maqsadi va vazifalari.
2. Soliq tushinchasi va mohiyati.
3. Soliqlarning tavsifi va umumiy belgilari hamda zarurligi.
4. Soliqlarni byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati.
5. Soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanish davrlarida soliqlarning tamoyillari, ularning xususiyatlari.
6. Soliqlarning asosiy funktsiyalari va ularga tavsif.

I. Darsning maqsadi. Talabalarga “Soliqlar va soliqqa tortish” kursini noiqtisodiy ta'lim yo'nalishi talabalariga o'qitishning zarurligi, kursning maqsadi va vazifalari to'g'risidagi tushinchalarini hosil qilish. Soliq tushinchasi, soliqlarning mohiyati, soliqlarning tavsifi va umumiy belgilari, soliqlarning zarurligi haqida tushinchalarini mustahkamlash. Soliqlarni byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati, soliqqa tortish tamoyillari, soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanish davrlarida soliqlarning tamoyillari va ularning xususiyatlari to'g'risida talabalar bilimini mustahkamlash. Soliqlarning asosiy funktsiyalari va ularga tavsif berishni o'rganish.

II. Amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun ma'lumotlar:

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydo bo'lishi va uni faoliyatining davomiyligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu o'rinda *soliq kategoriyasi* davlatni iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqeylik sifatida yuzaga chiqishini ta'kidlash lozim. Soliq tushunchasi tor ma'noda davlat ixtiyoriga soliq to'lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi.

Ma'lumki, soliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni davlat o'zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlarning amal qilishi bu ob'ektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha sub'ektlar ham real sektorda, ya'ni ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki faoliyati iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni ob'ektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlarni ob'ektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni

moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliqlarning amal qilishini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: *birinchidan*, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, *ikkinchidan*, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidolari.

Davlatning bajaradigan funktsiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo'qola borsa, yangi vazifalar paydo bo'la boshlaydi. Bularga bizning respublikamizda kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini tashkil qilish kabilar kiradi. Davlat kuchli ijtimoiy-siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, talabalar, ko'p bolali onalar va boshqalarni mablag' bilan ta'minlash zarurligini anglab, ayrim cheklangan tovarlar bahosidagi farqni byudjet hisobidan qoplaydi va undan tashqari mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta'minlanganlarga moddiy yordamlar ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlat jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga ham mablag'lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib-intizom o'rnatish, uni boshqarish funktsiyalarini bajarish uchun ham ko'plab mablag' yo'naltirishga majburdir. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni ob'ektiv zarur qilib qo'yadi.

Soliqlar qadimgi davrlardan e'tiborga olingan, ammo u vaqtlarda soliqlar ozod va erkin bo'lmagan kishining belgisi bo'lib xizmat qilgan. *Adam Smit* (shotland faylasufi va iqtisodchisi, 1723-1790) o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini ko'rsatib berdi, soliqlarni ahamiyatini yoritib, ularni davlatga to'lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini asoslab berdi.

N.I.Turgenev o'zining «Soliq nazariyasi tajribasi» nomli kitobida (1818 yil) shuni ta'kidlaydiki, «Bilimli bo'lishning muvaffaqiyatlari ularning xalqlar urf-odatlariga foydali ta'siri darajasiga qarab soliqlar tizimining takomillashuviga ham ta'sir etgan», «...soliqlar bilimga ega bo'lish bilan birga paydo bo'lib, uning belgisi bo'lib qoldi.soliqlarning tayinlanishi, taqsimlanishi va yig'ilish usuliga qarab xalq orasida tarqalgan ma'lumotlar to'g'risida; yig'iladigan soliqlar miqdoriga qarab uning boyligi haqida fikr yuritish mumkin, bu bilimlilik va ma'rifatni anglatadigan ikkita eng asosiy xususiyatdir» bu so'zlardan yana bir bor amin bo'lish mumkinki, soliqlar qadimiy moliyaviy institutlar hisoblanib, davlatning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Soliqlar davlat organlarini ta'minlash va ular oldida turgan vazifalarni bajarilishini moddiy ta'minlashning manbasi sifatida xizmat qilgan. Davlatning rivojlanishi bilan uning vazifa va funktsiyalari yangicha xususiyatlarga ega bo'ldi. Lekin soliqlarning davlatni va uning organlarini moliyalashtirishda manba sifatidagi roli o'zgarmay qoldi.

«Soliqlar, - deb yozadi *D.Rikardo*, - hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir-oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to'lanadi».¹ Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, D. Rikardo soliqlar mohiyatini yoritib, o'z navbatida A. Smit tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini ma'lum darajada rivojlantirgan.

S.G.Pepelyaev «Soliq - ommaviy hokimiyat sub'ektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda xolisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontributsiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir»² - deb, ta'kidlagan.

D.G.Chernikning fikricha «Soliqlar - davlat tomonidan xo'jalik sub'ektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'imlarni o'zida aks ettiradi».³

Sh.Gataulin «. . soliqlar o'zi nima va ular nimaga kerak», degan savolga qo'yidagicha javob beradi: «Soliqlar - bu davlat sarf-xarajatlarning asosiy manbai bo'lib, iqtisodiyotni tartibga soluvchi va daromadlarni barqarorlashtiruvchi vositadir»⁴. Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim qurol hisoblanadi. Biroq bu ta'rif soliqlarning mohiyatini to'raligicha yorita olmaydi hamda soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini o'zida aks ettira olmaydi. Bundan tashqari iqtisodiy munosabat sifatida, bu munosabatlar ob'ekti bo'lib nima hisoblanadi? - degan savollarga javob bera olmaydi.

Ayrim iqtisodchilar soliqlarni milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash vositasi sifatida izohlashga harakat qilganlar, - «Soliqlar – milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir»⁵.

O.Olimjonovning fikriga ko'ra: **«Soliqlar - davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir»**⁶. Soliqlarga berilgan mana shu ta'rif eng maqbul ta'rif bo'lib, soliqlarning mohiyati, ularning iqtisodiyotdagi o'rni va rolini, soliqlarning harakat jarayonini nazariy jihatdan chuqurroq yoritib, soliqlar haqida aniqroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Bugungi kunda soliq kategoriyasini har tomonlama, kengroq va batafsilroq, shuningdek uning mohiyati va ahamiyatini, iqtisodiyotni

¹ Рикардо Д. Сочинения т. и. Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с англ. - М.: «Госполитиздат», с.360.

² Пепеляев С.Г. Основы налогового право. М.: 1995 г., с.24.

³ Черник Д.Г. Налоги в рыночной экономике. «Финансы», 1992 г., №3 с. 19.

⁴ Gataulin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. T.: 1996 y. 18 - bet.

⁵ O'lmasov A., Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Mehnat», 1995 y. 377-bet.

⁶ Olimjonov O. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. «Hayot va iqtisod», 1992 y.

rivojlantirishdagi roli va o'rnini, soliqlarni nazariy jihatlarini aniqroq va to'liqroq yoritib oladigan ta'rifni keltirish muammosi fanda mavjuddir.

Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo'lgan majburiy to'lovlar sifatida, davlat paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar, davlat faoliyat ko'rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiati xuddi shu yerdan kelib chiqadi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarning iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning ham bilvosita quroli hisoblanadi.

Soliqlarning belgilari borasida iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil fikrlar mavjud. Masalan, prof. Q.Yahyoyev soliqlarni umumiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi.

1. Soliqlar va yig'imlar majburiy bo'lib, bunda davlat soliq to'lovchining bir qism daromadlarini majburiy badal sifatida byudjetga olib qo'yadi. Bu majburiylik Oliy Majlis tasdiqlab bergan Soliq kodeksining qoidalari asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy jihatdan davlat tomonidan kafolatlanadi.

2. Soliqlar xazinaga davlat byudjetiga tushadi. Ammo boshqa turdagi to'lovlar «Umid», «Ekosan» kabi jamg'armalarga tushishi soliq munosabatlarini aks ettirmaydi.

3. Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda bo'ladi. Tarixan asrlab o'zgarmay harakatda bo'lgan soliqlar mavjud. Uning ilmiy asosi qancha chuqur bo'lsa, shuncha qat'iy va uzoq yillar o'zgarmasdan harakat qiladi.

4. Davlatga to'langan soliq summasi to'lovchining o'ziga to'liq qaytmaydi, ya'ni u ekvivalentsiz pul to'lovidir⁷.

Rus iqtisodchisi A. Medvedev o'zining «Soliqlarni qanday rejalashtirmoq kerak» nomli kitobida soliqlarga xos bo'lgan ikki belgini, ya'ni *majburiylik* va *ekvivalentsizlik* kabi belgilarni qayd etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliqlarning umumiy belgilarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. *Soliq to'lovchi daromadining u yoki bu summasini davlatga to'lar ekan, buning evaziga bevosita biron-bir tovar yohud xizmat olmaydi.* Alohida olingan soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq miqdori bilan u iste'mol qiladigan ijtimoiy ne'matlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lmaydi. Xuddi ana shu xususiyatiga ko'ra soliq narxdan, ruxsatnoma (litsenziya)lar va vositachilik yig'imlaridan farq qiladi, chunki bular majburiy yoki ixtiyoriy to'lovlar hisoblansada, biroq hamma vaqt davlat tomonidan ko'rsatilgan xizmatdan muayyan foyda (naf) ko'rilishi bilan bog'liqdir.

2. *Soliqlar majburiy to'lovlar hisoblanadi.* Soliqlarning to'liq miqdorda va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik soliq to'lovchilar zimmasiga yuklangan

⁷ Yahyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T.: «G'afur G'ulom» 2000 y. 10-bet.

bo'lsada, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to'laydilar, davlat soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarni qonunchilikda belgilangan tartibda jazolaydi.

3. *Davlat foydasiga soliq to'lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo'yilgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko'zda tutilgan qismi undirib olinadi.* Ko'pgina davlatlarda, shu jumladan, O'zbekistonning ham qonunlarida "...soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlashga faqat qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki uning tomonidan vakolat berilgan davlat organlari haqlidirlar",- deb mustahkamlab qo'yilgan.

4. *Soliqlarning yana bir belgisi ularning davlat yoki mahalliy byudjetga kelib tushishidir, ya'ni soliqlar byudjetdan tashqari fondlar yoki turli xil boshqa fondlarga kelib tushmaydi.*

5. *Soliqlarga xos bo'lgan umumiy belgilardan biri sifatida davlat hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida mulkchilikni qayta taqsimlash jarayonini yuzaga kelishidir.* Sodaroq qilib aytganda, korxonalar va aholidan olinadigan soliqlar, aslida ular mulkning ma'lum bir qismini davlat hisobiga o'tkazilishini bildiradi. Bu bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga tegishli bo'lgan mulk daromad shaklida majburiy to'lov bo'lib, davlat mulkiga aylanadi.

Yuqorida qayd etilgan soliqlarga xos bo'lgan umumiy belgilar ularni iqtisodiy mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Shu o'rinda soliqlarning umumiy belgilarini to'liqroq va aniqroq, batafsil yoritishi mumkin bo'lgan, har qanday iqtisodiy vaziyatlarda o'zgarmaydigan optimal umumiy belgilarini yaratish muammosi hal etilishi lozimdir.

Soliq kategoriyasi boshqa iqtisodiy kategoriyalar: moliya, kredit, sug'urta, investitsiya kabilar bilan umumiy o'xshashlikka ega, ya'ni ularning barchasi pulli munosabatlarni ifodalaydi. Lekin soliqlarning o'ziga xos yuqorida qayd etilgan belgilari mavjudki, ushbu belgilar soliqlarni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqlash uchun xizmat qiladi.

G'arb iqtisodchilari ko'pchiligining nazariyalari angliyalik iqtisodchi J.M.Keynsning kontseptsiyasiga asoslanadi. Bu kontseptsiyaga ko'ra soliqlar fiskal funktsiyasidan tashqari iqtisodiyotni tartibga solish, rag'batlantirish va daromadlarni boshqarish vositasi funktsiyalariga ega, soliqning bu funktsiyalari uni iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlash vositasi sifatida foydalanish zarurligidan kelib chiqadi.

Neokeynschilik yo'nalishi vakillari bo'lgan L.Xarrot, N.Kaldor, A.Xansen va P.Samuelsonlarning fikriga ko'ra soliqlar iqtisodiyotni tartibga solish funktsiyasiga ega. Ular soliq stavkalarini o'zgartirish va turli xil imtiyozlar berish yo'li bilan bu funktsiyani bajarish mumkin, deb hisoblaydilar.

Soliqlarning daromadlarni boshqarish funktsiyasini yuzaga kelishiga frantsuz iqtisodchisi E.De.Jirardenning nazariyasi asos bo'lgan. Bu nazariyaga ko'ra soliqlar yordamida soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo'llash yo'li bilan jamiyat a'zolari o'rtasidagi mulkiy tengsizlikka barham berish mumkin. Hozirgi

kunda bu nazariyaning davomchilari bo'lib, amerikalik iqtisodchilar A.Ilersik, G.Koul, frantsuz iqtisodchilari M.Klyudo, J.Furaste hisoblanishadi. Ularning fikriga ko'ra davlat soliqlardan va transfer to'lovlaridan foydalanish yo'li bilan jamiyat milliy daromadini kambag'allar foydasiga qayta taqsimlaydi. Bu nazariyalar soliqlarning daromadlarni tartibga solish funktsiyasi mavjud degan xulosa kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

I.Mal'miginning fikriga ko'ra soliqlar uch funktsiyani bajaradi, ya'ni fiskal, taqsimlash va rag'batlantirish funktsiyalaridir. Uning fikriga ko'ra birinchi funktsiya davlat daromadlari manbalarining tashkil topishi bilan bog'liq, ikkinchisi huquqiy va jismoniy shaxslarning daromadlarini taqsimlashni nazarda tutadi. Rag'batlantirish funktsiyasi turli imtiyozlar va yengilliklar berish yo'li bilan amalga oshiriladi⁸. O'z-o'zidan ko'rinib turibdi-ki, G'arb iqtisodiy adabiyotlaridagi daromadlarni boshqarish funktsiyasi I. Mal'miginda taqsimlash funktsiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Soliqlarning funktsiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, funktsiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur. Demak, funktsiya kategoriyasi doimiy, qat'iy takrorlanib turadigan voqelikni ifodalaydi. Shunday uslubiy yondashishdan kelib chiqib soliqlar funktsiyasini aniqlash kerak.

Soliqlarning funktsiyalari masalasida hozirga qadar olimlar o'rtasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko'pchilik iqtisodchilar soliqlarga fiskal, boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi, nazorat funktsiyalari xos deb ta'rif berishadi.

Soliqlarning quyidagi asosiy funktsiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir: *soliqning fiska funktsiyasi, tartibga solish funktsiyasi, rag'batlantirish funktsiyasi, nazorat funktsiyasi, soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funktsiyasi*.

Soliq elementlari bir nechta tushunchalardan iborat bo'lib, ular tarkiban: *soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, soliq predmeti, soliq manbai, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq normasi, soliqni to'lash muddatlari, soliq yuki, soliq bazasini hisoblash usullari, soliqqa tortish usullari* kabi tushunchalarni qamrab oladi.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni tartiblash va boshqarish jarayonida bir qator vositalardan foydalaniladiki, bunda soliq tizimining soliq stavkalari va imtiyozlaridan foydalanish eng samarali va oson usullardan biri bo'lib yuzaga chiqadi.

Soliq imtiyozlaridan ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda, investitsiyalarni rag'batlantirishda va boshqalarda keng foydalaniladi.

⁸ Мальмигин И. Налоги как элементы финанса. М.: перевод с англ. 1997 г. стр. 69

Soliq imtiyozlari rag'batlantirish va samarali qo'llanilishiga qarab quyidagi ko'rinishlarda ifodalanishi mumkin:

- soliqlardan butunlay ozod qilish;
- yangi tashkil etilgan korxonalarga imtiyozlar berish;
- soliq to'lashdan vaqtincha ozod etish;
- soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish;
- soliqdan qisman ozod qilish;
- xorijiy investitsiyalarga imtiyozlar berish;
- eksportga imtiyozlar berish va boshqalar.

Soliq imtiyozlari vositasida iqtisodiyotni boshqarish, davlatni shunday faoliyati bilan bog'liq-ki, u takror ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelgan nomutanosiblikni yo'qotish uchun sharoit yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, agar soliqlarning ba'zi tizimi ishlab chiqarishni tartibga solishning davlat strategiyasini aniqlasa, taktikasi soliq imtiyozlari orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozlarini soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, soliqlarni undirish vositalari, muddatlari nuqtai nazaridan bir necha guruhlariga (turlarga) bo'lish mumkin.

Soliq imtiyozlarini turli xil asoslar bo'yicha guruhlash mumkin. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini huquqiy bazasi takomillashib bormoqda. Hozirga qadar qabul qilingan barcha soliqqa oid qonun hujjatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning barchasiga soliq imtiyozlarini belgilash bo'yicha umumiy o'xshashliklar mavjudligiga guvoh bo'lish mumkin. Ya'ni, barcha qonun hujjatlarida soliq turlari bo'yicha imtiyozlar asosan quyidagi shakllarda namoyon bo'ldi:

- soliqdan batamom ozod etish;
- soliqdan vaqtincha yoki qisman ozod etish;
- soliq bazasini kamaytirish tarzida berilgan.

Soliq amaliyotida soliqlarni undirishning uchta usuli mavjud:


- 1) *Kadastrli;*
- 2) *Daromad manbaidan;*
- 3) *Daromad egasi daromadni olganidan so'ng (deklaratsiya bo'yicha).*

III. Darsda qo'llaniladigan grafik organayzerlar.


“Muammoli vaziyat” jadvalini to'ldiring

Vaziyatdagi muammolar turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
Muammoli vaziyat. “O'zbekistonda soliq to'lovchilarda soliq madaniyatini shakllantirish” 1. Soliqlar to'g'risidagi turlicha yondashuvlarni izohlab bering va mamlakatimizda soliqlarning ahamiyati haqida o'ylab ko'ring. 2. Mamlakatimiz aholisini soliq madaniyatini shakllantirish uchun qanday ilarni amalga oshirish lozimligini aytib bering?		


Quyidagi jadvalni to'ldiring




Quyidagi jadvalni to'ldiring



Quyidagi jadvalni to'ldiring



Quyidagi jadvalni to'ldiring



IV. Foydalanishqa tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi” (2020 yil 1-yanvar amalga kiritilgan) T – 2019 y.
2. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo‘rayev. – T.: “Sharq” nashryoti – 2009 y. – 400 b.
3. Yuldashev A. “Soliq va soliqqa tortish”. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan va

- texnologiya”. 2007 y. 128 b.
4. Александров И. Налоги и налогообложения. Учебник. М. “Дашков и К” 2006 г. С.312.
 5. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O`quv qo`llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 282 b.
 6. Jo`raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo`llari. T. “Fan” 2004 y. 387 b.
 7. Jo`raev A. “Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O`quv qo`llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 120 b.
 8. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. . T. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2005 y. 544 b.
 9. Malikov T. “Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari”. T. Akademiya. 2002 y. 253 b.
 10. O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi. “2019 yilda soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o`zgarishlar yuzasidan o`quv qo`llanma”. T. 2019 y.

V. Mavzu bo`yicha nazorat savollari.

1. Soliqlar va soliqqa tortish fanini o`qitish nima uchun kerak?
2. Soliqlar va soliqqa tortish fani nimani o`rgatadi uning qanday funktsiyalari bor?
3. Soliqlar va soliqqa tortish fanining mazmunida nimalarni o`rgatish maqsadi yotadi?
4. Soliqqa tortish tamoyillarini kim ilk bora asoslab bergan?
5. Soliqqa tortishning yetarlilik tamoyilining mohiyatini ochib bering?
6. Soliqqa tortishning tadbirkorlik va investitsiyalarni rag`batlantirish tamoyilini tushuntiring?
7. Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili nima va siz uni qanday tushunasiz?
8. Soliqqa tortishning oddiylik va xolislik tamoyili nima va unga sizning munosabatingiz?
9. Soliqqa tortishning boshqarishga qulaylik tamoyilining mohiyati nimada?
10. Soliqqa tortishning soliqlarni yig`ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish tamoyili deganda nimani tushunasiz?
11. Soliqqa tortishning soliq stavkalarini qiyoslash tamoyilini tushuntiring?
12. Soliq kodeksining qaysi moddasida soliqqa tortish tamoyillari keltirilgan?
13. Soliq kodeksida belgilab berilgan soliq tamoyillarining mohiyatini tushuntiring?
14. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati deganda nimani tushunasiz?
15. Iqtisodchi olimlar tomonidan soliqlarga berilgan tariflarni o`ziga xos jihatlarini tushuntirib bering.
16. Soliqlarning ob`ektiv zarurligi nimalarda ko`rinadi?

17. Soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqi nimalardan iborat?
18. Adam Smit o'zining qaysi asarida ilk bor soliqlarning tamoyillarini asoslab bergan?
19. O.Olimjonov soliqlarga qanday ta'rif bergan?
20. Soliqlarning xususiyatlarini tushuntirib bering.
21. Soliqlarga oid bilimlarni olimlar tomonidan turlicha talqin etilishi sabablari nimada?
22. Soliqlar belgilarining mohiyatini tushuntirib bering.
23. Soliqlarning ekvivalentsizlik belgisini mohiyatini tushuntiring.
24. Soliqlarning qanday funktsiyalari mavjud?
25. Soliqlarning funktsiyalari va vazifalarini farqlab bering.
26. Soliqlarning fiskal funktsiyasini tushuntirib bering.
27. Soliqlarning tartibga soluvchilik funktsiyasini tushuntirib bering.
28. Soliqlarning rag'batlantiruvchi funktsiyasini tushuntirib bering.
29. Soliqlarning nazorat funktsiyasini tushuntirib bering.
30. Soliqlarning axborot bilan ta'minlash funktsiyasini tushuntirib bering.
31. Soliqlarning o'rnini belgilovchi asosiy omillarni ko'rsatib o'ting.
32. Agrar sektordagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda soliqlarning o'ri qanday?
33. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirishda soliqlarning o'ri qanday ahamiyatga ega?
34. Soliqlar elementlari tarkibiga nimalar kiradi?
35. Soliqlar ob'ekti nima?
36. Soliqlar agentlari deganda kimlarni tushunasiz?
37. Soliqlar stavkalari nima va u qanday turlarga bo'linadi?
38. Proportsional soliq stavkalariga misollar keltiring.
39. Progressiv soliq stavkalariga qaysi soliq turlarini kiritish mumkin?
40. Soliqlar imtiyozlari qanday turlarga bo'linadi?
41. Soliqlar imtiyozlari qanday mezonlar asosida belgilanadi?
42. Soliqlar qanday undirish usullari mavjud?
43. Soliqlarni kadastrli undirishning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?

VI. Mavzu yuzasidan test savollari.

1. Soliqlar stavkalari quyida keltirilganlardan qaysilari?

- A) Progressiv, regressiv;
- B) Proportsional;
- C) Regressiv;
- D) Progressiv, regressiv proportsional

2. Paydo bo'lish manbaiga ko'ra soliqlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- A) To'g'ri va egri;

- B) Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar;
- C) Mahalliy soliqlar;
- D) Davlat soliqlari.

3. To'g'ri soliqlarga qaysi bir soliq turi kiradi?

- A) Foyda solig'i;
- B) Davlat boji;
- C) Qo'shilgan qiymat solig'i;
- D) Aksiz.

4. Egri soliqlarga qaysi bir soliq turlari kiradi?

- A) Daromad solig'i;
- B) Yer soligi;
- C) Foyda solig'i;
- D) Aksiz solig'i.

5. Soliqsiz to'lovlarga quyida keltirilganlardan qaysilari javob bo'ladi?

- A) Bojxona bojlari, bojlar, litsenziya yig'imi;
- B) Aksiz solig'i, QQS, yer solig'i, suv resurslardan foydalangan uchun soliq;
- C) Mol-mulk solig'i, reklama solig'i, infrastruktura solig'i;
- D) Daromad solig'i, davlat boji, bojxona yig'implari.

6. Soliq imtiyozlari o'zining xususiyatiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi?

- A) Qisman, to'liq;
- B) Vaqtinchalik, doimiy;
- C) Davriy uzluksiz;
- D) to'g'ri javob yo'q.

7. Yig'im nima?

- A) To'lanish lozim bo'lgan, yig'im to'lovchilar, mahsulotlarni ko'zlovchi davlat, xususiy va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlardir;
- B) Yuridik ahamiyatga molik xatti xarakatlarni amalga oshirishning shartlaridan biri bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan majburiy badallardir;
- C) Faqat jismoniy shaxslardan undiriladigan mahalliy soliqlar tushumlari;
- D) A va B javoblar to'g'ri.

VII. Mavzu bo'yicha glossariy.

Soliqlar - Soliqlar deganda Soliq Kodeksda belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Majburiy to'lovlar - Boshqa majburiy to'lovlar deganda Soliq Kodeksda belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish

uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi. Soliq tizimi deganda – mohiyati jihatidan bir xil bo'lgan va markazlashgan pul fondiga tushadigan soliq turlarining yigindisi tushuniladi.

Proportsional soliq stavkasi - Proportsional soliq stavkasi usulida foyda yoki oborotga ega bo'lgan huquqiy va jismoniy shaxslar bir xil proportsiyada soliq to'laydilar. Bu yerda soliq stavkasi qat'iy belgilangan bo'lib proportsional ravishda olinadi. Masalan: mol-mulk solig'i: korxona asosiy fondlarini qiymati 200000 so'm undiriladigan Soliq stavkasi 4 % Soliq summasi hisobot yili uchun 8 ming so'mni tashkil etadi. Agarda bu qiymat 500000 so'm bo'lsa u holda 20000 so'm bo'ladi va xk.

Progressiv soliq stavkasi - Daromad yoki foyda ortib borishi bilan soliq stavkasi xam ortib borishi bilan soliq stavkasi xam ortib borishi ko'zda tutilgan bo'lsa bunday stavka progressiv soliq stavkasi deyiladi. Buni biz O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmaganlardan olinadigan daromad solig'i stavkasida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Regressiv soliq stavkasi- Regressiv soliq stavkasi usulida daromad usishi bilan mahsulot ishlab chiqarish xajmi ko'payishi bilan soliq stavkasi kamayib boradi. Regressiv stavkalar biror faoliyat yoki soxa mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish yoki o'z foydasidan biror turdagi xarajatni ko'paytirishni rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladi.

Soliqlarning o'ziga xos belgilari - Soliqlarning o'ziga xos belgilari mavjud bo'ladi, ularga: majburiylik, xazinaga tushishlik, qat'iylik va doimiylik, aniq soliq to'lovchi uchun ekvivalentsizlik belgilari mavjuddir.

Soliq og'irligi - Soliq va yig'imlar bir-biri bilan bog'liq bo'ladi, oqibat natijasida ular yuridik va jismoniy shaxslarning pul daromadlaridan olinadi. Demak, soliq va yig'imlarning jami yig'indisi summasi soliq og'irligi tushunchasini keltirib chiqaradi.

Soliq sub'ekti - soliq to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar yoki boshqacha qilib aytganda soliq sub'ekti - bu soliqqa oid munosabatlarni tashkil etuvchi tomonlarning o'zaro majmuasi bo'lib, unda bir tomondan soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) boshqa tomondan soliqni undirish vakolati yuklangan soliq xizmati organlari - Davlat soliq qo'mitasi, soliq boshqarmalari, tuman va shahar davlat soliq inspeksiylari qatnashadi. O'z faoliyatida barcha yuridik va jismoniy shaxslar soliq sub'ekti sifatida namoyon bo'lmaydi. Chunki, bu yerda soliqlardan batamom ozod etiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar mavjudki, ular soliq sub'ekti sifatida soliq munosabatlarida ishtirok etmaydilar.

Soliq agenti - yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolish va davlat byudjetiga o'tkazib beruvchi yuridik shaxslar. Bunday yuridik shaxslar o'z faoliyatida bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarning mazkur korxonada o'z mehnati, investitsiyasi bilan ishtirok etishi natijasida olgan daromadi (foydasidan) soliqlarni ushlab qoladi va davlat byudjetiga o'tkazib beradi. Soliq agentlari davlat

byudjetiga soliqlarni bevosita yoki bilvosita ishga yollaganligi natijasida to'lanadigan ish haqidan, dividendlardan, doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatmaydigan norezident yuridik va jismoniy shaxslardan ushlanishi lozim bo'lgan soliq summalarini ushlab qoladi va byudjetga o'tkazib beradi, ushlab qolinmagan, kam ushlab qolingan va o'z vaqtida o'tkazib berilmagan soliq summasi uchun qonunchilikda belgilangan moliyaviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Har bir yuridik shaxs soliq munosabatlarida soliq sub'ekti bo'lishi bilan birgalikda soliq agenti sifatida ham ishtirok etadi. Soliq agenti iqtisodiy adabiyotlarda asosan fiskal agent sifatida qayd etiladi.

Soliq ob'ekti - soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliq ob'ekti sifatida foyda yoki daromad, muayyan tovarlarni qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi. Soliq ob'ekti aslida jamiyatdagi mavjud moddiy va ma'naviy boyliklarning ayrimlariga qonun yo'li bilan ulardan foydalanuvchi, egalik qiluvchi va tasarruf qiluvchi soliq sub'ektlarining huquqlarini soliqqa tortishni ifodalaydi. Binobarin, moddiy yoki ma'naviy boyliklar soliq ob'ekti qilib albatta unga mulkiy huquqqa ega bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Masalan, egasiz imoratga soliq solinmaydi, chunki egasiz imoratga nisbatan soliq sub'ekti mavjud emas, vaholanki, bo'lgan taqdirda ham soliq ob'ekti sifatida imorat emas, balki ushbu imoratga bo'lgan mulkiy huquqqa soliq solinadi. Shu jihatdan aytish mumkinki, soliq ob'ekti aslida yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqi va daromadiga qaratiladi.

Soliqqa tortish predmeti - soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulk va boshqalarga bo'lgan huquq emas, balki ularning o'zidir, ya'ni soliq solish ob'ekti bo'lib biror-bir soliq predmetiga bo'lgan huquq tushunilsa, predmet bo'lib ana shu egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalarning o'zi tushuniladi. Soliq ob'ekti yoki soliqqa tortish predmeti, unga kim egalik qilish huquqiga ega bo'lsa, unda soliqni to'lash majburiyati, ya'ni soliq sub'ektini namoyon qiladi. Demak, aytishimiz mumkinki, soliqqa tortish predmetiga egalik qilish huquqi soliq ob'ektini vujudga keltirsa, o'z navbatida ushbu predmetga kimning egalik qilishi soliq sub'ektini yoki soliq to'lovchisini namoyon etadi.

Soliq manbai - bu soliq to'lovchining to'laydigan soliqlari manbai, ya'ni daromadi. Soliq ob'ekti va soliq manbaini bir-biridan farqlash lozim. Ayrim soliq turlari bo'yicha, masalan, foydaga, yalpi daromadga, jismoniy shaxslarning daromadiga soliqlar bo'yicha soliq ob'ekti ham soliq manbai ham bir xil bo'ladi, ya'ni nima ob'ekt bo'lsa, uning o'zi manba hisoblanadi.

Soliq bazasi - soliq ob'ektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining miqdoriga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo'llaniladigan ob'ektning miqdoriga ham bog'liq. Soliq bazasining miqdori qonunchilikda soliqqa tortilishi lozim bo'lgan soliq ob'ektidan

ruxsat etiladigan chegirmalarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Soliq bazasini soliq to'lovchilarning mazkur toifasiga taqdim etiladigan soliq imtiyozlariga muvofiq ravishda kamaytirishga ruxsat etiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, soliq bazasi soliq ob'ektidan katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Masalan, soliq to'lovchiga soliqlardan imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lsa, bunday sharoitda soliq bazasi soliq ob'ektidan kichik, soliq ob'ekti qonunchilik bilan kengaytiriladigan bo'lsa undan katta bo'lishi mumkin.

Soliqqa tortish birligi - bu ob'ektning o'lchov birligi. Masalan, daromad yoki mol-mulk solig'ida ob'ektning o'lchov birligi bo'lib uning so'mdagi bahosi ifodalansa, yer solig'ida o'lchov birligi bo'lib kv.m. yoki gektar hisoblanadi.

Soliq stavkasi - ob'ektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir. Soliq stavkasi soliq elementlari ichida eng ko'p amaliy ahamiyatga ega bo'lgan unsurdir. Chunki, soliq stavkalarini o'zgartirish orqali davlat xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga sezilarli ta'sir etadi, ayrim faoliyat, sohaga ustuvorlik berilishi, kapital zarur sohalarga yo'naltirilishi, rag'batlantirilishi mumkin.

Soliq imtiyozlari - soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin. Soliq imtiyozlarining turlari, amal qilish mexanizmlari, belgilash mezonlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Soliq bazasini hisoblash usullari. Soliq bazasini hisoblashning ikki xil usuli mavjud bo'lib, ular *kassa usuli* va *hisobga olish usullari*dir. Kassa usulida soliq to'lovchida soliqlarni to'lash majburiyatlari daromad olganidan keyin vujudga kelsa, hisobga olish usulida esa daromad olingan yoki sotishdan tushum qachon kelib tushishidan qat'iy nazar tovarlarni jo'natilishi o'z navbatida soliqlarni to'lash majburiyatlarini vujudga keltiradi.

Soliqqa tortish usullari uch xil ko'rinishda amalga oshirilib. Ular quyidagilarga: soliqqa tortishning *kadastrli*, *deklaratsiya* va *manba oldidan soliqqa tortish* usullariga ajratiladi.

Soliqlarni to'lash muddatlari va tartiblari. Soliq qonunchiligida har bir soliq turining byudjetga to'lash muddatlari belgilangan. Soliqni to'lash muddatlari deganda soliq to'lovchilarning davlat byudjeti oldida soliq majburiyatlarining bajarish muddati ifodalanadi. Soliqni to'lash muddatlari o'z mohiyatiga ko'ra ikki xil ko'rinishga ega: *avans (bo'nak) to'lovlari* va *haqiqiy daromad olinganidan keyingi to'lovlar*.

Soliqni to'lash tartibida esa: soliqni yo'naltirilganligi (byudjetga yoki byudjetdan tashqari fondlarga), soliqni to'lash vositasi (milliy valyuta, so'mda yoki boshqa mamlakatlar milliy valyutasida. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq soliqlar faqat milliy valyuta, so'mda to'lanishi mumkin) hamda soliqni to'lash shakllari (naqd pul yoki naqd pulsiz) ifodalanadi.

Soliq yuki - soliq to'lovchining muayyan vaqt oralig'idagi faoliyati natijasida to'lagan soliqlarining yig'indisini ifodalaydi. Bunda soliq to'lovchilarning to'laydigan barcha soliqlar va soliqsiz majburiy to'lovlarining yig'indisi ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq to'lovchilar zimmasiga qancha to'g'ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq to'g'ri soliqlarda soliq og'irligi aynan soliqni byudjetga hisoblab o'tkazuvchi soliq to'lovchilar zimmasiga tushsa, egri soliqlarda esa soliq yuki soliqni to'lovchilar emas, balki tovar (ish, xizmat)larni iste'mol qiluvchilar zimmasiga tushadi. Muayyan turdagi yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha soliq yukining bir yilda byudjetga to'langan barcha majburiy to'lovlar yig'indisi bilan aniqlash mumkin. Soliq yukining darajasi o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy qudratiga, inflyatsiya darajasiga, davlatning vakolatli funktsiyalarni qo'llashiga, qolaversa bozor munosabatlarining rivojlanishini va ijtimoiy harakat doirasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

2-AMALIY MASHG'ULOT:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI VA SOLIQ MUNOSABATLARI SUBEKTLARINING HUQUQ HAMDA MAJBURIYATLARI

Reja:

1. Soliq tizimining mohiyati va soliq tizimining guruhlanish tartibi.
2. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning guruhlanishi.
3. Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra (to'g'ri va egri soliqlar); byudjet tushumiga ko'ra (umumdavlat soliqlari hamda mahalliy soliqlar va yig'imlar);
4. Soliq to'lovchilari nuqtai nazaridan (Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar)
5. O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini isloh qilinishning asosiy yo'nalishlari.
6. O'zbekiston soliq tizimining rivojlangan davlatlar soliq tizimi bilan o'xshashlik va farqli jihatlari.
7. Soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari, vakolatli organlarning huquq va majburiyatlarini o'rganish.

I. Darsning maqsadi. Soliq tizimining mohiyati. Soliq tizimining guruhlanish tartibi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning guruhlanishi. Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra (to'g'ri va egri soliqlar); byudjet tushumiga ko'ra (umumdavlat soliqlari hamda mahalliy soliqlar va yig'imlar); soliq to'lovchilari nuqtai nazaridan (Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar) O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini isloh qilinishning asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston soliq tizimining rivojlangan davlatlar soliq tizimi bilan o'xshashlik va farqli jihatlari. Soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari, vakolatli organlarning huquq va majburiyatlarini o'rganish.

II. Amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun ma'lumotlar.

Mamlakatimizda 2020 yilning 1 yanvaridan soliq tizimida qator o'zgarishlar amalga oshirildi.

Turli ekspertlar tomonidan bildirilgan ko'plab fikrlar va bir necha oy davom etgan muhokamalardan so'ng O'zbekiston yangi soliq tizimini ishlab chiqish haqida prezident farmoni imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar belgilanadi:

- 1) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 2) aksiz solig'i;
- 3) foyda solig'i;
- 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 5) yer qo'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) ijtimoiy soliq.

Soliq to'lovchilar, soliq agentlari va vakolatli organlar soliq munosabatlarining sub'ektlaridir.

Soliq organlari hujjatlarni elektron hujjat tarzida soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yuboradi. Yuborilgan hujjatlar soliq to'lovchi tomonidan o'qib chiqilganidan keyin, lekin ushbu hujjat jo'natilgan sanadan e'tiboran uch kundan kechiktirmay olingan deb hisoblanadi.

Agar soliq to'lovchida soliq to'lovchining shaxsiy kabineti mavjud bo'lmasa, hujjatlar buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi va ular jo'natilganidan so'ng besh kundan keyin olingan deb hisoblanadi.

Soliq organlari quyidagilarga haqli:

soliq to'lovchilardan va uchinchi shaxslardan soliqlarni va yig'implarni hisoblab chiqarish hamda to'lash uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni (axborotni), shu jumladan elektron tarzda taqdim etishini talab qilish;

ushbu Kodeksda belgilangan tartibda soliq tekshiruvlari va boshqa soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

hududni, ishlab chiqarish, omborxona, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan soliq to'lovchi daromad olish uchun foydalanadigan yoki soliq solish ob'ektlarini saqlash bilan bog'liq joylarni ko'zdan kechirish;

mol-mulkni inventarizatsiya qilish va bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarning nazorat o'lchovlarini o'tkazish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda kassani va tovar-moddiy boyliklar hamda hujjatlar saqlanadigan joylarni ikki kundan ortiq bo'lmagan muddatga, ikki kundan ortiq muddatga esa, sud qarori bo'yicha muhrlash;

soliqlarni va yig'implarni hisoblab chiqarish bilan bog'liq hujjatlarni va elektron axborot jismlarini olib qo'yish;

foto- va videotasvirga tushirish, tushuntirishlar hamda boshqa ma'lumotlarni olish;

tarjimonni, ekspertni jalb etish va ekspertiza tayinlash;

soliq to'lovchi hisob hujjatlarini yo'qotgan yoki yo'q qilgan hollarda soliq to'lovchi to'g'risidagi o'zida mavjud axborot, shuningdek boshqa shu kabi soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida soliqlar summasini hisob-kitob orqali mustaqil ravishda aniqlash;

o'zaro kelishuv asosida soliq monitoringida ishtirok etayotgan soliq to'lovchi tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarni hisoblab chiqarishning to'g'riligi, to'liqligi va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan soliq monitoringini o'tkazish;

soliq qarzini majburiy undirish choralarini ko'rish;

soliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va moliyaviy sanksiyalar qo'llash;

soliq huquqbuzarliklarining aniqlangan holatlari bo'yicha tovar-moddiy boyliklarni belgilangan tartibda davlat daromadiga o'tkazish. Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tovar-moddiy boyliklarini davlat daromadiga o'tkazish sud tartibida amalga oshiriladi;

soliq to'lovchilarga nisbatan ular tomonidan noqonuniy olingan mablag'larni davlat daromadiga undirish to'g'risida sudlarga da'volar kiritish;

hujjatlarning davlat tiliga tarjima qilinishini talab qilish;

soliq to'lovchilarni va soliq agentlarini yozma bildirish asosida soliq organlariga ular tomonidan soliqlarni to'lash (ushlab qolish va o'tkazish) yuzasidan yoki soliq tekshiruvi bilan bog'liq ravishda, shuningdek ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishi bilan bog'liq boshqa hollarda tushuntirishlar berishga chaqirish;

ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda soliq to'lovchining yoki soliq agentining bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish va ularning mol-mulkini xatlab qo'yish;

soliq to'lovchilar va ularning vakillaridan, soliq agentlaridan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etishni talab qilish hamda ushbu talablarning bajarilishini nazorat qilish;

ushbu Kodeksda belgilangan majburiyatlarning banklar tomonidan bajarilishini nazorat qilish.

Soliq organlari qonunga muvofiq boshqa huquqlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Soliq organlari:

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etishi;

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va yig'implarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

soliq to'lovchilar, soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlar, hisoblangan va to'langan soliqlar to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlashi;

soliq tekshiruvlarini o'tkazishda soliq to'lovchilarga ularning huquqlari va majburiyatlari to'g'risida ma'lumot berishi, shuningdek o'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risida xabardor qilishi;

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytida o'z vaqtida e'lon qilishi;

soliq to'lovchilarga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini ijro etishida yordam berishi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari normalarini va soliq imtiyozlarini qo'llash tartibini tushuntirishi;

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi faktlarini tahlil qilishi va baholashi, soliqqa oid huquqbuzarliklarga olib keladigan sabablar va sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi takliflarni tegishli davlat organlariga kiritishi;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda soliqqa oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga doir uzoq muddatli va joriy dasturlarni ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi;

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risidagi arizalarni, xabarlarini va boshqa axborotni o'rganishi;

davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan pul mablag'larining to'liq va o'z vaqtida tushishini nazorat qilishi;

masalani hal etish soliq organlari vakolatlari doirasiga kirmaydigan hollarda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi faktlari bo'yicha materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirishi;

o'z vakolatlari doirasida valyuta va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat qilishi;

soliq siriga rioya etishi va uning saqlanishini ta'minlashi;

soliq to'lovchining talabiga binoan soliqlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyatining bajarilishi yuzasidan solishtirma dalolatnoma tuzishi;

ushbu Kodeksga muvofiq soliq qarzi summasini so'zsiz undirishi;

yuridik va jismoniy shaxslarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarini hisobga olishi, ularga soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamini berishi hamda bu haqda statistika va ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarga rasmiy ravishda ma'lum qilishi;

soliq to'lovchining talabiga binoan uning soliq organlarida hisobga qo'yilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomani berishi;

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yozma tushuntirishlariga amal qilishi shart.

Soliq organlarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliqning barcha elementlari aniqlab qo'yilgan taqdirdagina ushbu soliq belgilangan deb hisoblanadi.

Bunday soliq elementlariga quyidagilar kiradi:

- 1) soliq solish ob'ekti;
- 2) soliq bazasi;
- 3) soliq stavkasi;
- 4) soliq davri;
- 5) soliqni hisoblab chiqarish tartibi;
- 6) soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
- 7) soliqni to'lash tartibi.

Soliqni belgilashda soliq imtiyozlari va ularning qo'llanilishi uchun asoslar nazarda tutilishi mumkin.

Tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organning tekshiruvni o'tkazishga bo'lgan roziligi jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilishi faktlari to'g'risidagi murojaatlari asosida o'tkaziladigan tekshirish yoki tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati tavakkalchiligini tahlil etish natijalarining yakunlari bo'yicha davlat soliq xizmati organlari tashabbusiga ko'ra tekshirishni o'tkazish uchun asos bo'ladi, ushbu rozilikda tekshiriladigan ob'ektning nomi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, tekshiruvning maqsadlari, o'tkazilish muddatlari va tekshiruvni asoslovchi sabablar ko'rsatiladi.

Aksiz solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari, mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun ijara to'lovining eng kam stavkalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy belgilangan miqdori, mahalliy yig'imlarning chegaraviy stakalari, avtotransport vositalarini sotib olinganda va (yoki) vaqtinchalik olib kirilganda ichki ishlar organlarida ularni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun avtotransport vositalari egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to'lanadigan yig'imlar va xorijiy davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi 2 hududiga kirishi va hududdan tranzit o'tishi uchun yig'imlar stavkalari 2019 yil 9 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2020 yildagi Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-589-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan.

Yer solig'i bo'yicha 2020 yil uchun soliq hisoboti qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar qismi bo'yicha 2019 yilda amaldagi shakllar bo'yicha yer uchastkasi joylashgan joyidagi soliq organlariga taqdim etiladi.

Mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning 2020 yil uchun hisoblanadigan summasi to'g'risidagi hisobot 2019 yilda amalda bo'lgan shaklda taqdim etiladi.

2019 yil uchun soliq hisob-kitoblari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining yangi tahririda nazarda tutilgan muddatlarda 2019 yilda amal qilgan shakl va tartibda taqdim etiladi.

Tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organni xabardor etish tartibida tekshiruvni o'tkazish uchun davlat soliq xizmati organining tekshiruvni o'tkazish maqsadlari, muddatlari va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi ko'rsatilgan buyrug'i asos bo'ladi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsni va faoliyati tugatilayotganda yagona soliq to'lovini to'lovchi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorni soliq tekshiruvidan o'tkazish uchun:

- tugatuvchining yoki yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yuridik shaxs tugatilayotganligi va yagona soliq to'lovini to'lovchi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati tugatilayotganligi to'g'risidagi yozma bildirishi;

- davlat soliq xizmati organining tekshiruvni o'tkazish maqsadlari, muddatlari va tekshiruvchi mansabdor shaxslarning tarkibi ko'rsatilgan buyrug'i asos bo'ladi».

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 67-moddaning birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etildi:

“Soliq nazorati” quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- ◆ soliq to'lovchilarni hisobga olish;
- ◆ soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni hisobga olish;
- ◆ byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlarni hisobga olish;
- ◆ kameral nazorat;
- ◆ xronometraj ko'zdan kechirish;
- ◆ xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xodimlarining hisobotdagi sonining va haqiqiy sonining muvofiqligi yuzasidan monitoring;
- ◆ soliq tekshiruvlari;
- ◆ mavzuli ekspress-o'rganish;
- ◆ fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash;
- ◆ aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish;
- ◆ davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish;
- ◆ boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish;
- ◆ “soliq monitoringi”.

Soliq tekshiruvlarining turlari yangilandi

Hujjat bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 86-moddaning matni quyidagi tahrirda bayon etildi:

«Soliq tekshiruvlari quyidagi turlarga bo'linadi:

- tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organ bilan kelishuvga ko'ra o'tkaziladigan tekshiruvlar;
- tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organni xabardor qilish tartibida o'tkaziladigan tekshiruvlar.

Tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organ bilan kelishuvga ko'ra o'tkaziladigan tekshiruvlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish);
- jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilishi faktlari to'g'risidagi murojaatlari asosida o'tkaziladigan tekshirish yoki tavakkalchilikni tahlil etish natijalarining yakunlari bo'yicha davlat soliq xizmati organlari tashabbusiga ko'ra tekshirish.

Tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organni xabardor qilish tartibida o'tkaziladigan tekshiruvlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- yuridik shaxs tugatilishi munosabati bilan o'tkaziladigan tekshirish hamda faoliyati tugatilayotganda yagona soliq to'lovini to'lovchi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorni tekshirish;
- tegishli ruxsatnomalarsiz alkogol va tamaki mahsulotlarining ishlab chiqarilishi yoki realizatsiya qilinishini tekshirish;
- qalbaki aksiz markali yoki aksiz markasi mavjud bo'lmagan alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishini yoki realizatsiya qilinishini tekshirish;
- taqiqlangan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarilishi va realizatsiya qilinishi faktlariga barham berish bo'yicha tekshirish;
- o'z faoliyatini rasman to'xtatib turgan davr mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni davom ettirayotgan jismoniy shaxsning faoliyatini tekshirish.

Notijorat tashkilotlarini, O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarini, shuningdek chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari hamda filiallarini ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshilarida ko'rsatilgan tekshirishlar O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi».

Tadbirkorlar faoliyatining soliq tekshiruvini o'tkazish muddati o'ttiz kalendar kundan oshmaydi

O'zbekiston Respublikasi prezidenti "Soliq va byudjet siyosatining 2019 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunni imzoladi.

Hujjat bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 89-moddaning (Soliq tekshiruvlarini o'tkazish muddatlari) matni quyidagi tahrirda bayon etildi:

"Tadbirkorlik sub'ektlari" faoliyatining soliq tekshiruvini o'tkazish muddati o'ttiz kalendar kundan oshmasligi kerak.

Soliq tekshiruvi muddatlarini uzaytirish davlat soliq xizmati organining qo'shimcha buyrug'i bilan rasmiylashtirilib, unda oldingi buyruqning ro'yxatdan o'tkazish raqami hamda sanasi, tekshiruv o'tkazishga ilgari jalb etilgan mansabdor shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatiladi.

Qisqa muddatli soliq tekshiruvini o'tkazish muddati o'n ish kunidan oshmasligi kerak. Bunda tegishli ruxsatnomalarsiz alkogol va tamaki mahsulotlarining ishlab chiqarilishi yoki realizatsiya qilinishini, qalbaki aksiz markali yoki aksiz markasi mavjud bo'lmagan alkogol va tamaki mahsulotlarining ishlab chiqarilishini yoki realizatsiya qilinishini qisqa muddatli tekshirishlarni, shuningdek taqiqlangan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarilishi va realizatsiya qilinishi faktlariga barham berish bo'yicha qisqa muddatli tekshirishlarni o'tkazish muddati bir ish kunidan oshmasligi lozim.

Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining tegishli soliq tekshiruvini o'tkazish muddati nazorat qiluvchi organlarning asoslantirilgan talabnomalariga ko'ra, tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organning ruxsatnomasiga binoan faqat bir marta uzaytirilishi mumkin. Bunda tegishli tekshiruvning uzaytirilgan muddati uni uzaytirishning asosiy muddatidan oshmasligi kerak.

Soliq tekshiruvini tayinlash to'g'risidagi buyruqning ijrosi sud tomonidan to'xtatilgan taqdirda, soliq tekshiruvini o'tkazish muddatini hisoblash ham to'xtatiladi».

2019 yilning 1 yanvaridan boshlab O'zbekiston soliq siyosatida tarixiy o'zgarishlar kuzatiladi. Mamlakatda soliq tizimining tubdan isloh qilinishi ortidan nafaqat ishlab chiqaruvchilar, mehnatkashlar, balki yakka tartibdagi tadbirkorlarga ham qator imtiyozlar yaratilmoqda.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar 2019 yil 1 yanvardan boshlab bir kalendar yilda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi miqdoriga qarab, jumladan:

- 100 mln so'mgacha, qat'iy belgilangan soliqni;
- 100 mln so'mdan 1,0 mlrd so'mgacha tashkil etganda, 4 foizlik stavkada yagona soliq to'lovini;

1,0 mlrd so'mdan oshganda yuridik shaxslar tomonidan to'lanishi nazarda tutilgan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydilar.

Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini amalga oshirish doirasida quyidagi soliq va to'lovlarni ham to'laydilar:

- 1) bojxona to'lovlari;
- 2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq - suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;
- 4) aksiz solig'i - aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;
- 5) ijtimoiy soliq;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im.

Qat'iy belgilangan soliq – amalga oshirilayotgan faoliyat turi va hududiga qarab, belgilangan qat'iy soliq summasi miqdorida faoliyat yuritayotgan oyning 10-sanasiga qadar mahalliy byudjetga to'lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar (summa) bo'yicha alohida-alohida to'laydilar.

Bir kalendar yil davomida tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdordan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qonun hujjatlarida belgilangan miqdor oshgan oyning keyingi oyidan boshlab yagona soliq to'lashga o'tadi.

Yagona soliq to'lovining bazasi hisoblab chiqarilgan yalpi tushumdan belgilangan (4 foiz) soliq stavkasi bo'yicha hisoblab chiqariladi va har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar to'lovni amalga oshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkor amaldagi qonunchilikka asosan chakana savdo, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi jami 84 ta faoliyat bilan shug'ullanishlari hamda:

- chakana savdo faoliyatida bir nafargacha;
- maishiy xizmat ko'rsatish faoliyatlarida uch nafargacha;
- faoliyatning boshqa turlarida ikki nafargacha xodimni yollab ishlatish huquqiga ega.

- Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 oktyabrdagi 850-son qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan "Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati"da ko'rsatilgan 14 ta faoliyat turiga o'zgartirishlar kiritildi va bitta faoliyat turi chiqarib tashlandi.

Xususan:

- qurilish materiallari, tsement, shifer, yog'och va yog'och mahsulotlarini sotish;
- alyuminiy (plastik) profildan eshik, deraza va boshqa buyumlar tayyorlash;
- o'simlik, hayvonlar va minerallardan tayyorlangan dorivor xomashyoni qadoqlash va ulgurji sotish;
- transport vositalarini yuvish, salonni tozalash va shunga o'xshash boshqa xizmatlar ko'rsatish faoliyatini amalga oshiruvchilar;
- chetdan tijorat maqsadida bir oyda 5000 AQSh dollaridan ko'p tovar olib keluvchilar (importyorlar) 2019 yilning 1 yanvaridan yuridik shaxs sifatida qayta ro'yxatdan o'tishlari talab etiladi.

O'zbekiston va Jahon banki hamkorligida amalga oshirilgan "Paying Taxes 2019" tadqiqotlarida (2019-yil soliqqa tortish reytingi) 64-o'rinni egalladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda umumiy soliq stavkasi 32,1% tashkil qiladi, bu esa kompaniya davromadida soliq, kirim va to'lovlarining solishtirma hajmi sanaladi. Agar ushbu ko'rsatkichni boshqa yurisdiksiyalar bilan solishtirsa, ular Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bo'yicha o'rtadan past sanaladi (32,8%), shuningdek Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik tashkiloti mamlakatlari ko'rsatkichidan ham past sanaladi (40,2%).

Soliq qonunchiligiga muvofiqlik uchun yillik vaqt hajmi nisbatida O'zbekiston ko'rsatkichi (181 soatni) tashkil qilib, u Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik tashkiloti mamlakatlariga yon bosadi (162 soat), ammo shu bilan birga aksariyat Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa mamlakatlarini ortda qoldiradi (hudud bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich - 220 soat).

Yana bir taqqoslama ko'rsatkich bu yillik soliq to'lovi bo'lib, ushbu ko'rsatkich O'zbekiston uchun 10 ta to'lovni tashkil qiladi. Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa mamlakatlari uchun ushbu ko'rsatkich 16 ta to'lovni, Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik tashkiloti mamlakatlari uchun - 11 ta to'lov. O'rtacha jahon ko'rsatkichi yillik 24 ta to'lovni tashkil qiladi.

Tadqiqotga ko'ra, dunyoning 163 mamlakati QQS tizimini qo'llaydi. QQSni qaytarish bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkich Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, bu esa ularni Markaziy Amerika, O'rta Sharq va Osiyo-Tinch-okeani hududlaridan ajratib turadi.

Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa davlatlari TOP uchligiga Serbiya - 91,1, Moldova - 90,8 va Ukraina - 86 kirgan bir vaqtda O'zbekiston ko'rsatkichi 100 dan 48,2 tashkil qiladi.


O'zbekistonga qo'shni davlatlar orasida Qozog'iston 56 - o'rin, Tojikiston - 136, Rossiya - 53, Qirg'iziston - 150, Armaniston - 82, Ozarbayjon - 28. Eng past daromad solig'ini Bruney (8%), Vanuatu (8,5%), Gruziya (9,9%), Qatar (11,3%), Quvayt va Makedoniya (13%) tadbirkorlari to'laydi. Eng katta soliq yuki-Komor orollari (219,6%), Argentinada (106%), Boliviya va Eritreya (83,7%), Ekvatorial Gvineya (79,4%), Palau (75,8%), Kolumbiya (71,9%) va Afg'oniston (71,4%)da.

III. Darsda qo'llaniladigan grafik organayzerlar.


“T - sxema” jadvali

2019 yil 1-yanvargacha soliq tizimi kamchiliklari nimadan iborat edi?	2019 yil 1-yanvardan qo'llanilayotgan soliq tizimi afzalliklari nimadan iborat?


“Soliq tizimi” klasterini tuzing




Quyidagi jadvalni to'ldiring



Quyidagi jadvalni to'ldiring



Quyidagi jadvalni to'ldiring



IV. Foydalanishga tavsiya etiladigan ada

1. "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi" (2020 yil 1-yanvar amalga kiritilgan) T – 2019 y.
2. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo'rayev. – T.: "Sharq" nashryoti – 2009 y. 400 b.
3. Yuldashev A. "Soliq va soliqqa tortish". O'quv qo'llanma. T.: "Fan va texnologiya". 2007 y. 128 b.
4. Александров И. Налоги и налогообложения. Учебник. М. "Дашков и К" 2006 г. С.312.
5. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O'quv qo'llanma. T. "Iqtisodiyot va moliya" 2005 y. 282 b.
6. Jo'raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. T. "Fan" 2004 y. 387 b.
7. Jo'raev A. "Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O'quv qo'llanma. T. "Iqtisodiyot va moliya" 2005 y. 120 b.
8. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. . T. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi. 2005 y. 544 b.
9. Malikov T. "Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari". T. Akademiya. 2002 y. 253 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. "2019 yilda soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o'zgarishlar yuzasidan o'quv qo'llanma". T. 2019 y.

V. Mavzu bo'yicha nazorat savollari.

1. Soliq tizimi tushunchasi nimani ifoda etadi?
2. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini tavsiflang.
3. Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga qarab qanday guruhlanadi?
4. Soliqlar ning umumdavlat va mahalliy soliqlar ga ajratishning sababi nimada va ular qanday farqlanadi?
5. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning farqi nimadan iborat?
6. Byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar va ularning soliqlar ga qanday aloqasi bor?

VI. Mavzu yuzasidan test savollari.

1.Soliq tizimi qoidalari to'g'ri ko'rsatilgan javobini toping.

- A) Norezidentlik, rezidentlik, nazorat, tartibga solish, huquqni himoyalash, qonunchilikka rioya qilish;
- B) Yetarlilik, qonuniylik, rezidentlik, sudiylik, imtiyozlilik;
- C) Qiyosiylik, arzonlilik, odillik, inkor qilish, tenglik;
- D) Nazorat qilish, tartibga solish, axborot bilan ta'minlash, taqsimlanish.

2.Soliq solishning unsurlari quyidagilardan qaysilari to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Soliq ob'ekti, soliq ba'zasi, soliq davri, balansi;
- B) Funktsiyasi, kodeksi, dastaklari, belgilari, turkumlari;
- C) Soliqqa yig'imlar, soliqsiz to'lovlar, soliq ba'zasi, soliq davri;
- D) Soliq yuki, soliq funktsiyasi, aksiz kodeksi, soliq davrlari.

3.Soliq funktsiyalarini ko'rsating?

- A) Fiskal, oddiy va neytral, tartibga solish;
- B) Fiskal, qiyosiy, arzonlik, nazorat, rezidentlik;
- C) Fiskal, tartibga solish, kuzatish, axborot berish;
- D) Fiskal, tartibga solish, nazorat, rag'batlantirish, axborot bilan ta'minlash.

4.Soliq ob'ekti:

- A) Soliq undiruvchilar;
- B) Soliq to'lovchilar;
- C) Soliq solinadigan daromad, mol-mulk yoki iqtisodiy faoliyat tushiniladi;
- D) Aholi, jismoniy shaxslar.

5.Soliq sub'ekti:

- A) Soliq undiruvchilar va soliq to'lovchilar tushuniladi;
- B) Soliq solinadigan daromad;
- C) Soliq solinadigan ish xaqi tushuniladi;
- D) Soliq solinadigan mol-mulk tushuniladi.

6.Daromad yoki foyda ortishi bilan soliq stavkasi ham ortib borishi ko`zda tutilgan bo`lsa bu qaysi xol:

- A) Proportsional soliq stavkasi;
- B) Progressiv soliq stavkasi;
- C) Regressiv soliq stavkasi;
- D) Nol darajali stavka.

7. Soliq bu:

- A) Byudjetga tushadigan majburiy to`lovlar;
- B) Milliy daromadning davlat ixtiyoriga olinadigan bir qismi;
- C) Davlat va mahalliy byudjetlarning tashkil etilishining asosiy vositasi;
- D) Hamma javob to`g`ri.

8.O`zbekistonda soliq munosabatlari qaysi organ tomonidan boshqariladi?

- A) Oliy majlis;
- B) Vazirlar mahkamasi;
- C) Davlat soliq qo`mitasi;
- D) Moliya vazirligi.

VII. Mavzu bo`yicha glossariy.

Soliqqa tortish tizimi deganda esa soliqqa tortish tizimining amaliy uslublari yigindisi tushuniladi yoki bo`lmasa soliqqa tortish tizimi deb O`zbekiston Respublikasi Oliy kengashi tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarni tuzish, belgilash usullari va tamoyillari yigindisiga aytiladi. Hozirgi sharoitda O`zbekiston Respublikasi soliqqa tortish tizimining eng muxim vazifasi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjetini mablag` bilan ta`minlash hisoblanadi.

Soliqa tortish birligi -Soliqqa tortish birligi deganda soliq ob`ektining bir bo`lagi tushuniladi. U butun ob`ektdan soliq hisoblash uchun zarur bo`lgan me`yor vazifasini bajaradi. Masalan: aholi ixtiyoridagi yerdan soliq undirilayotganda xar bir kvadrat metr korxonalar yerlaridan xar bir gektar soliq birligi hisoblanadi. Soliq birligini asos qilib olib soliq stavkasiga ko`paytirilsa yillik jami soliq summasi aniqlanadi.

Soliq stavkalari - Soliq ob`ektining xar bir soliq birligi uchun davlat tomonidan belgilab quyilgan me`yor soliq stavkasi deb yuritiladi. Bu stavka qat`iy summalarda yoki foizlarda ob`ektga nisbatan qo`llaniladi. Soliq stavkalari proportsional, progressiv va regressiv ko`rinishida bo`lishi mumkin.

Soliq imtiyozi - Soliq to`lovchilarni soliqdan ozod etish ular to`laydigan soliq miqdorini (Soliq bazasini) kamaytirish yoki soliq to`lash shartini yengilashtirish kabilarni soliq qonunchiligida soliq imtiyozi deb yuritiladi. Soliq imtiyozlari aksaryat biror ishlab chiqarish sohasini foliyat turini raxbarlantirishga qaratilgan bo`ladi. Lekin bunday imtiyozlar manbai nimaning yoki kimning hisobiga amalga oshirilishini chuqur tahlil qilib chiqishga to`g`ri keladi. Ayrim soliqlarda xilma-xil

imtiyoz turlari mavjud. Korxona, birlashma va tashkilotlarga soliqlardan bo`linadigan imtiyozlarni 3 guruhga bo`lish mumkin.

- Soliqdan batamom ozod etiluvchilar.
- Soliqdan qisman va vaqtincha ozod etiluvchilar.
- Soliqqa tortiladigan foyda bazasini kamaytirish.

3-AMALIY MASHG`ULOT:

YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG`I

Reja:

- 1.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining iqtisodiy mohiyati.
- 2.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining byudjet daromadlarida tutgan o`rni.
- 3.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i to`lovchilari tarkibi.
- 4.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining soliq solish ob`ekti va bazasi.
- 5.Yuridik shaxslarning yillik ja`mi daromadlari tarkibi.

I. Darsning maqsadi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining iqtisodiy mohiyati. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining byudjet daromadlarida tutgan o`rni. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i to`lovchilari tarkibi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ining soliq solish ob`ekti va bazasi. Yuridik shaxslarning yillik ja`mi daromadlari tarkibi. Ja`mi daromaddan chegirmalar. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i bo`yicha imtiyozlar. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ini hisoblash va to`lash muddatlari. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i bo`yicha davlat soliq xilmati organlarining nalaratini o`rganish.

II. Amaliy mashg`ulotlarda foydalanish uchun ma'lumotlar.

Foyda solig`i bo`yicha:

Quyidagilar foyda solig`i to`lovchilari hisoblanadi:

O`zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo`lgan yuridik shaxslar;

O`zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiradigan hamda manbalardan daromadlar oluvchi O`zbekiston Respublikasi norezidentlari bo`lgan yuridik shaxslar;

soliq to`lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas`ul ishtirokchilari bo`lgan yuridik shaxslar;

soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari 1 milliard so`mdan ortiq bo`lgan yoki o`z ixtiyori bilan foyda solig`ini to`lashga o`tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo`yicha oddiy shirkatning ishonchli shaxslari.

Aylanmadan soliq to'lovchi shaxslar foyda solig'i to'lovchilari hisoblanmaydi.

Quyidagi imtiyozlar 2020 yil 1 apreldan bekor qilinadi:

- a) O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qo'riqlash bo'linmalari uchun;
- b) quyidagi faoliyat turlari amalga oshirilganda olingan foyda qismi bo'yicha:

protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan;

shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan;

moddiy madaniy meros ob'ektlarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan.

Quyidagi daromadlarga soliq imtiyozlari saqlanib qolinmoqda:

davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligatsiyalari bo'yicha daromadlar;

Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi.

Zararlarni taqsimlab ko'chirish muddati 5 yildan 10 yilga, zararlarni taqsimlab ko'chirish chegaraviy miqdori soliq solinadigan bazaning 50 foizdan 60 foizgacha o'sgan. Shu bilan birga, 2020 yil 1 yanvarga qadar soliq to'lovchi ko'rilgan zararlarni ushbu zarar ko'rilgan soliq davridan keyingi besh yil ichida kelgusiga taqsimlab o'tkazishni amalga oshirishga haqlidir. Taqsimlab o'tkazilayotgan zararining har bir navbatdagi soliq davrida hisobga olinadigan jami summasi joriy soliq davrining hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydaning 50 foizidan oshmasligi kerak.

Banklar, tsement va polietilen granulalarni ishlab chiqaruvchir hamda uyali aloqa operatorlari uchun soliq stavkasi 20 foiz miqdorida saqlangan. Bozor va savdo komplekslarida 20 foiz miqdorida soliq stavkasi qo'llaniladi.

Foyda solig'i bo'yicha quyidagilarga 0 foiz miqdorida stavka o'rnatilgan:

o'zi ishlab chiqargan o'z qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan foydasi bo'yicha qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchi korxonalari uchun. Bunda, realizatsiya qilingan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 90 foizdan ortiq tashkil etilishi lozim;

ijtimoiy sohalar uchun;

Byudjet tashkilotlari uchun. 2023 yil 1 yanvargacha xodimlarni moddiy rag'batlantirishga hamda moddiy-texnik va ijtimoiy bazasini mustahkamlashga

maqsadli ishlatish sharti bilan qo'shimcha manbalardan olingan daromadlarga nol stavka miqdorida qo'llanilishi ko'zda tutilgan.

Tovarlarni (ishlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan foydasi uchun. Eksportdan olingan daromad 15 foizdan kam bo'lasligi lozim. Buning uchun eksport kunidan 180 kungacha kechiktirmay eksport va daromadlar tushishini hujjatli tasdiqlanishi talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 noyabrda PF-5587-son farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatdagi xom-ashyo tovarlar hamda xalqaro yo'nalishda tashish (avtotransportdan tashqari), quvur va gaz quvuri bo'yicha tashish uchun nol miqdorda stavka qo'llanilmaydi.

Elektron savdo faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar uchun 7,5 foiz miqdorida kamaytiruvchi stavkalar o'rnatilayapti. Bunda, elektron savdo hajmi 90 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

Boshqa soliq to'lovchilar uchun 15 foiz miqdorida stavka o'rnatilgan.

Oldin soliqqa tortilgan daromadlarni hisobga olish mexanizmini joriy etgan holda dividendlarni kaskadli soliqqa tortilishi bekor qilinmoqda.

Xarid qilish uchun yo'naltirilgan mablag'larni soliq solinadigan bazadan kamaytirish imtiyozini bekor qilgan holda texnologik uskunalar va ko'chmas mulk ob'ektlarni xarid qilish davrida amortizatsiya ajratmalarini bir yo'la hisobga olish tartibi joriy qilinmoqda.

Choraklik soliq hisobotlarini – hisobot davridan keyingi oyning 20 kunidan kechiktirmay hamda yillik soliq hisoblarini – soliq davri o'tgandan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Jami daromadi joriy soliq davridan oldingi soliq davri uchun 5 milliard so'mgacha bo'lgan soliq to'lovchilar tomonidan soliqni to'lash soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi, 5 milliard so'mdan oshadigan soliq to'lovchilar har oylik bo'nak to'lovlarini hisobot davri har bir oyining 23 kunidan kechiktirmay to'laydi.

Soliq organi tomonidan bo'nak to'lovi summasini oldingi soliq davri uchun hisoblangan jami daromaddan kelib chiqqan holda hisoblanadi, birinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovining summasi o'tgan soliq davrining oxirgi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovi summasiga teng etib qabul qilinadi. Joriy to'lovlar uchun ma'lumotnoma taqdim etilmaydi.

2020 yil 1 chorak uchun foyda solig'i bo'yicha bo'nak to'lovlar quyidagi tartibda aniqlanadi va to'lanadi.

2019 yil 9 oylik jami daromad summasi 9 ga bo'linib va 12 ga ko'paytirilganda 5 milliarddan oshgan soliq to'lovchilar 2020 yil 23 yanvar, 2020 yil 23 fevral va 2020 yil 23 martdan kechiktirmay to'lanishi lozim bo'lgan bo'nak to'lov summasini mos ravishda 2019 yil 10 oktyabr, 2019 yil 10 noyabr va 2019 yil 10 dekabrda hisoblangan bo'nak to'lovi miqdorida

hisoblaydilar. Bunda jami daromad moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot satrlari yig'indisidan aniqlanadi:

- mahsulot realizatsiyasidan sof tushum (tovar, xizmat va ishlar) (010- satr);
- asosiy faoliyatidan boshqa daromadlar (090-satr);
- moliyaviy faoliyatdan daromadlar (110-satr).

Soliq agentlari tomonidan to'langan foizlar 2020 yil 1 yanvardan boshlab daromad oluvchilarning jami daromadi tarkibiga kiradi va Soliq kodesida belgilangan tartibda soliqqa tortiladi, bundan notijorat va byudjet tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari - jismoniy va yuridik shaxslar mustasno.

Soliq kodeksiga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkor soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlashga haqli.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash uchun soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shakldagi bildirishnomani quyidagi muddatlarda taqdim etadi:

- 1) yangidan ro'yxatdan o'tkazilganlar – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish boshlanguniga qadar;
- 2) foyda solig'ini to'lashga o'tganlar, shu jumladan ixtiyoriy ravishda o'tganlar – bir vaqtning o'zida foyda solig'ini to'lashga o'tish to'g'risidagi bildirishnomani soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga yuborganda;
- 3) qolganlari – joriy yilning 25 yanvaridan kechiktirmay.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan 2020 yil 1 yanvardan boshlab soliq bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash uchun 2020 yil 1 fevraldan kechiktirmay soliq hisobida turgan joydagi soliq organiga bildirishnoma taqdim etilishi lozim.

Foyda solig'ini quyidagi yuridik shaxslar to'laydi:

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;
- O'zbekiston Respublikasi norezidentlari;

Respublikamilda doimiy muassasa orqali faoliyat yuritayotgan yoki uning hududida joylashgan manbalardan daromad olayotgan.

2019 yil 1 yannardan boshlab o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik aylanmasi (tushum) 1 mlrd so'mdan oshgan yoki joriy yil danomida ushbu belgilangan chegaraniy miqdorga yetgan korxonalar umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tadilar. Yil danomidagi yal'i tushimingil 1 mlrd so'mdan oshdimi? Keyingi oydan boshlab korxona foyda solig'ini to'lashga o'tishi lozim.

Soliq solish ob'ekti bo'lib:

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy muasasasi orqali faoliyat yuritayotgan norezidentlarning foydasi;

- O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining na O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlari hisoblanadi.

Soliq solinadigan bazani to'g'ri aniqlash uchun "Moliyaniy natijalar to'g'risida hisobot"ni (2-shakl) to'ldirishda Moliyaniy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalarga (ro'yxat raqami 1209, 24.01.2003 yil) amal qilish lozim.

Soliq solinadigan baza jami daromaddan Soliq kodeksining 142-145-moddalarida nazarda tutilgan xarajatlarni chegirish orqali, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar hamda Soliq kodeksining 159-moddasiga muvofiq kamaytiriladigan summalar inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan iborat bo'ladi.

Jami daromad tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan sof tushum hamda Soliq kodeksining 132-moddasida ko'rsatilgan boshqa daromadlarni o'z ichiga oladi.

Tovar jo'natilganligi (to'shirilganligi), ish bajarilganligi, xizmat ko'rsatilganligini tasdiqlovchi xisobvaraq-faktura, dalolatnoma, kvitantsiya, chek va boshqa xujjatlar realizatsiya qilinganlikni tasdiqlovchi xujjat hisoblanadi.

Sof tushum asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi (9000) schyotlar ma'lumotlari asosida olinadi.

Boshqa daromadlar asosiy faoliyatdan boshqa daromadlarni hisobga oluvchi (9300) hamda moliyaniy faoliyat bo'yicha daromadlarni hisobga oluvchi (9500) schyotlar ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

Soliq solinadigan foydani hisoblashda jami daromaddan quyidagi xarajatlarni chegirib tashlash mumkin:

- Moddiy xarajatlar (SK 142-moddasi);
- Mehnatga haq to'lash xarajatlari (SK 143-moddasi);
- Amortilatsiya xarajatlari (SK 144-moddasi);
- Boshqa harajatlar (SK 145-moddasi);

Xarajatlar asoslangan va xujjat bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Ular operatsiya sanasi, summasi, xususiyatini aniqlash, ishtirokchilarni identifikatsiya qilish imkonini berishi lozim.

Xarajatlar:

- sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar tannarxini hisobga oluvchi (9100) schyotlar;

- davr xarajatlarini hisobga oluvchi (9400) schyotlar, jumladan 9410 “Realizatsiya xarajatlari”, 9420 “Ma’muriy xarajatlar”, 9430 “Boshqa operatsion xarajatlar” schyotlari;
- moliyaniy faoliyat bo’yicha xarajatlarni hisobga oluvchi (9600) schyotlar ma’lumotlari asosida aniqlanadi.

Soliq solish maqsadida soliq solinadigan bazaga jumladan quyidagilar qo’shiladi:

- Tovar (ish, xizmat)larni tannarxidan past baholarda realizatsiya qilishdan na tekin berishdan zararlar;
- Davlatning ko’chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqining eng kam stavkalaridan kelib hisoblangan ijara haqi miqdorining shartnomada belgilangan ijara haqi miqdoridan oshgan summasi;
- Soliq Kodeksining 147-moddasida ko’rsatilgan xarajatlar;
- Boshqa shaxslardan bepul olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, ishlar na xizmatlar. to’lov manbaida soliq solinadigan dividendlar na foizlar soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadi.

Soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlar belgilandi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti “Soliq na byudjet siyosatining 2019 yilga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’lgartish na qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonunni imzoladi.

Hujjat bilan O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 147-moddasi (Chegirilmaydigan xarajatlar) quyidagi tahrirda bayon etiladi:

“147-modda”. Chegirilmaydigan xarajatlar.

Soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridagi ortiqcha yo’qotishlar va buzilishlar;

2) umumiy ovqatlanish korxonalariga yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar na tashkilotlar uchun kommunal xizmatlar ko’rsatish qiymatini to’lash;

3) soliq to’lovchining ushbu Kodeksning 177-moddasida (Moddiy naf tarzidagi daromadlar) nazarda tutilgan, jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadigan xarajatlari;

4) dala ta’minoti, xizmat maqsadida xodimning shaxsiy antotransportdan foydalanganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to’langan to’lovlar;

5) pensiyalarga qo’shimcha va ustamalar;

6) xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam, bundan ushbu Kodeksning 143 (Mehnatga haq to'lash xarajatlari) va 145-moddalarida (Boshqa xarajatlar) nazarda tutilgan moddiy yordam mustasno;

7) badallar, homiylik va xayriya yordami tarzidagi mablag'lar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiq holda atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun kom'ensatsiya to'lovlari;

9) kredit shartnomasida muddatli qarzlar uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha bo'lgan, to'lov muddati o'tgan hamda ulaytirilgan kreditlar bo'yicha foizlar;

10) loyihalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek ob'ekt yonidagi omborgacha tashib keltirilishi chog'ida yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar, korroliyaga qarshi muhofaladagi nuqsonlar tufayli taftish o'tkalish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) xarajatlari, mazkur xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun janobgar bo'lgan mahsulot yetkalib berunchi yoki boshqa xo'jalik yuritunchi sub'ektlar hisobidan o'rnini qo'lash mumkin bo'lmagan miqdordagi boshqa shunga o'xshash xarajatlar;

11) aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklar va kamomadlardan yoki larur summalarning o'rnini aybdor taraf hisobidan qo'lash mumkin bo'lmaganda ko'rilgan zararlar;

12) soliq to'lovchining asosiy vositalari chiqib ketishidan (balansdan chiqarilishidan) ko'rilgan (buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan) zararlar, bundan ushbu Kodeks 145-moddasi 40-bandining «e» va «j» kichik bandlarida ko'rsatilgan zararlar mustasno;

13) xo'jalik shartnomalari shartlarini va qonun hujjatlarini bulganlik uchun to'langan yoki tan olingan jarimalar, 'enya hamda boshqa turdagi sanksiyalar;

14) O'zbekiston Respublikasi norezidenti va boshqa shaxslar uchun to'langan soliqlar;

15) tekshirunlar natijalariga ko'ra qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;

16) soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lmagan tadbirlar (sog'liqni saqlash, s'ort va madaniyat tadbirlari, dam olishni tashkil etish va hokalo) uchun xarajatlar;

17) kasaba uyushmasi qo'mitalariga yordam ko'rsatish;

18) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni (xizmatlarni) bajarish uchun xarajatlar (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdagi ishlar)».

Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar Soliq kodeksining 158-159-moddalari hamda boshqa normatin-huquqiy xujjatlar bilan belgilangan.

Stavkalar (%da)

	2019 yilda amalda	01.01.2020 yildan
Bazaviy stavka	12%	15%
1 mlrd.so'mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliqqa tortiladigan baza		Yalpi daromaddan 25%

Soliqni hisoblash soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan baza quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$SSB=STF+TPZ+TMM+IHF+CHX-DF-I;$$

Bu yerda:

STF – soliq to'langunga qadar foyda (zarar) (“Moliyaniy natijalar to'g'risida hisobot” - 2-sonli shaklning 240-satri);

TPZ – tovar (ish, xizmat)larni tannarxidan past baholarda realizatsiya qilishdan va tekin berishdan zararlar;

TMM – soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslardan tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar;

IHF – davlatning ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqining eng kam stavkalaridan kelib chiqib hisoblangan ijara haqi miqdorining shartnomada belgilangan ijara haqi miqdoridan oshgan summasi;

CHX – chegirilmaydigan xarajatlar (soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar);

DF – olingan (olinishi lozim bo'lgan) dividendlar na foizlar;

I – imtiyozlar va kamaytiriladigan summalar.

Bunda, soliq to'langunga qadar foydaning tarkibida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 129-moddasi uchinchi qismiga muvofiq soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmaydigan daromadlar hisobga olingan bo'lsa, ushbu summalar soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadi.

Soliq kodeksining 146-moddasiga muvofiq hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirilmaydigan, biroq kelgusi hisobot davrlarida soliq solinadigan bazadan chegiriladigan xarajatlar manjud bo'lsa, ilgari qilingan bunday xarajatlar o'rtasidagi farq soliq solinadigan bazaga kiritiladi.

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan foyda solig'i summasi quyidagi tartibda aniqlanadi.

$$FS = SSB \times SS$$

Bu yerda:

FS - byudjetga to'lanadigan soliq summasi;

SSB – soliq solinadigan baza;

SS – soliq stavkasi;

Foyda solig'ining hisob-kitobi ortib borunchi yakun bilan hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaniy hisobot taqdim etish muddatida taqdim etiladi.

Foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarning summasini aniqlash uchun hisobot choragi birinchi oyining 10-kunigacha taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda va soliq stavkasidan kelib chiqib hisoblangan foyda solig'ining summasi haqida ma'lumotnoma taqdim etiladi.

Yuridik shaxslardan to'lov manbaida olinadigan foyda solig'i hisob-kitobi to'lov amalga oshirilgan hisobot davri tugagandan keyin 25 kundan kechiktirmay taqdim etiladi.

To'lov manbaida soliq solinadigan daromadlar olgan shaxslar to'g'risida STIR, nomi, daromadi va ushlab qolingani foyda solig'ining umumiy summasi ko'rsatilgan ma'lumotnomani soliq davri tugaganidan keyin 30 kun ichida soliq organiga taqdim etishini unutmang.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- hisobot choragida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydasi eng kam ish haqining 200 baravaridan oshadigan soliq to'lovchilar ushbu foyda va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan joriy to'lovlar summasining 1/3 qismini har oyning 10-kunidan kechiktirmay to'laydi;
- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash hisob-kitoblarni to'shish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Dividendlar va foizlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga to'lanadigan daromadlar bo'yicha yuridik shaxslardan to'lov manbaida olinadigan foyda solig'i daromadlarni to'lash sanasidan kechiktirmay byudjetga to'lanadi.

Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlardan to'lov manbaida undiriladigan foyda solig'i stavkasi 10 foizdan 5 foizga pasaytirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan va to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga quyidagi stavkalar o'lgarishil saqlab qolinmoqda:

dividendlar va foizlarga - 10 foiz;

sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlariga - 10 foiz;

xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) - 6 foiz;

yuqorida ko'rsatilganlardan boshqa turdagi soliq solinadigan daromadlariga - 20 foiz.

Foyda solig'i bo'yicha soliq yuki darajasini kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida 956 mlrd.so'mlik mablag'lar soliq to'lovchilar ixtiyorida qolishi va ushbu mablag'larni innestitsiyaga yo'naltirish yoki oborot mablag'larini ko'paytirish uchun sharoit yaratiladi.

Shuningdek, Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazani aniqlash tartibini soddalashtirish maqsadida, **chegirilmaydigan xarajatlar ro'yxati yopiqligi** (tugallangan) ta'minlanib, ushbu xarajatlarni keng talqin qilinishini oldi olinmoqda.

Xususan, ilgari Soliq kodeksining 147-moddasi 27-bandiga muvofiq ushbu Kodeksning 142-145-moddalarida ko'rsatilganlardan boshqa xarajatlar soliq solinadigan foydadan chegirilmas edi. Endilikda, ushbu 27-band chiqarib tashlanmoqda, va mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar, agar chegirilmaydigan xarajatlarning yo'iq ro'yxatida ko'rsatilmagan bo'lsa, soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirib tashlanadi.

Shu kabi, Soliq kodeksining 147-moddasidan quyidagi chegirilmaydigan xarajatlar chiqarib tashlanmoqda, jumladan:

- Soliq kodeksi 145-moddasining 11, 14 va 32-bandlarida belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlar (xizmat safarlari, vakillik xarajatlari, ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari);
- mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligi yoxud mehnat nalifalarini bajarish bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha shikastlanishi sababli xodimlarga yetkalilgan zararining o'rnini qo'lash uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lanadigan to'lovlar;
- sud chiqimlari;

- soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulkining (aktinlarining) chiqib ketishidan (balansdan chiqarilishidan) ko'rilgan (buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan) zararlar;

Quyidagi chegirilmaydigan xarajatlar ro'yxatiga aniqlashtirunchi o'lgartirishlar kiritilmoqda:

- moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan ortiqcha yo'qotishlar va buzilishlar, agar vakolatli organ tomonidan normalar belgilangan bo'lsa, chegirilmasligi belgilab qo'yildi;
- pensiyalarga ustamalar bandiga *pensiyalarga qo'shimchalar ham chegirilmasligi belgilandi*;
- har qanday turdagi homiylik va hayriya yordamlari tarzidagi mablag'lar;
- kredit shartnomasida muddatli qarzlar uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha to'lov muddati o'tgan hamda ulaytirilgan kreditlar (layomlar) bo'yicha foizlar bandiga, agar muddati o'tgan kreditlar bo'yicha *stavka joriy qarzдорlik uchun belgilanganidan 20 %dan ko'proq farq qilsa chegirilmasligini nazarda tutunchi qo'shimcha kiritildi*;
- aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklar na kamomaddan yoki aybdor tomon hisobidan larur summalarining o'rnini qo'lash mumkin bo'lmaganda ko'rilgan zararlar *qonunchilikda belgilangan me'yorlardan oshiqcha hollarda chegirilmasligini aniqlashtirunchi norma kiritildi*;

Chegirilmaydigan xarajatlar tarkibi quyidagi yangi bandlar bilan to'ldirilmoqda:

- O'zbekiston Respublikasi norezidentlari uchun to'langan soliqlar;
- tekshirishlar natijasida qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan tadbirlarga (sog'liqni saqlash, s'ort va madaniyat tadbirlari, dam olishni tashkil qilish va b.) qilingan xarajatlari;
- kasaba uyushmalari qo'mitalariga homiylik yordamlari soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha 2019 yil 1 yannardan kiritilayotgan yana bir o'zgarish – bu soliq solish maqsadida Soliq kodeksining 144-moddasida belgilangan asosiy vositalarga eskirish hisoblashning eng yuqori normalari qayta ko'rib chiqilib, foydalanish muddatiga bog'liq holda ayrim asosiy vositalar guruhlarining **ammortilatsiya normalari kamaytirilmoqda**. Jumladan, yillik ammortilatsiya normalari:


- binolar, imoratlar uchun 5% dan 2% ga;
- inshootlar uchun 5% miqdorida o'lgarishsil;
- ulatish qurilmalari bo'yicha 8% dan 5% ga;

- kuch-quvvat beradigan mashinazar va uskunalar uchun 8% dan 5% ga;
- faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalari na uskunalar (harakatlanunchi transportdan tashqari) 15% dan 8% ga;
- harakatlanunchan transport (temir yo'l, dengil na hano) 8% dan 4% ga kamaytirildi.

Mazkur qoidalarining qayta ko'rib chiqilishi natijasida mahsulot (ish, xizmat) larning tannarxi arzonlashuniga na tadbirkorlik sub'ektlarining foydasi oshishiga erishiladi.

III. Darsda qo`laniladigan grafik organayzerlar.


Quyidagi jadvalni to'ldiring.

YURIDIK SHAXS		YURIDIK SHAXSLARGA SOLIQ TO'LOVCHI BO'LISHI UCHUN QO'YILADIGAN SHARTLAR	
			
			
			
			
			
			



Quyidagi shakldagi kataklarni moc javoblar bilan to'ldiring.


Quyidagi shakldagi kataklarni moc javoblar bilan to'ldiring.



Quyidagi shakldagi kataklarni moc javoblar bilan to'ldiring.

YURIDIK SHAXSLAR NING JAMI YILLIK DAROMADLARI	→	
	→	
	→	
	→	
	→	
	→	
	→	
	→	
	→	
	→	
	→	
	→	
	→	
	→	
	→	

Quyidagi shakldagi kataklarni moc javoblar bilan to'ldiring.



IV. Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi" (2020 yil 1-yanvar amalga kiritilgan) T – 2019 y.
2. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo`rayev. – T.: "Sharq" nashryoti – 2009 y. 400 b.
3. Yuldashev A. "Soliq va soliqqa tortish". O`quv qo`llanma. T.: "Fan va texnologiya". 2007 y. 128 b.
4. Александров И. Налоги и налогообложения. Учебник. М. "Дашков и К" 2006 г. С.312.
5. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O`quv qo`llanma. T. "Iqtisodiyot va moliya" 2005 y. 282 b.
6. Jo`raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo`llari. T. "Fan" 2004 y. 387 b.
7. Jo`raev A. "Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O`quv qo`llanma. T. "Iqtisodiyot va moliya" 2005 y. 120 b.
8. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. . T. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi. 2005 y. 544 b.
9. Malikov T. "Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari". T. Akademiya. 2002 y. 253 b.

10. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. "2019 yilda soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o'zgarishlar yuzasidan o'quv qo'llanma". T. 2019 y.

V. Mavlu bo'yicha nalarat savollari.

1. Yuridik shaxslar daromadiga soliq nima?
2. Daromadga (foydaga) soliqni to'lovchilar kimlar?
3. Rezident va nerezident nima?
4. Soliq ob'ekti va soliqqa tortiladigan daromatlarga nimalar kiradi?
5. Daromadga (foydaga) soliq stavkalari qanday bo'ladi?
6. Qanday yuridik shaxslar daromadga soliqdan to'liq ozod etiladi?
7. Qanday yuridik shaxslar daromadga soliqdan vaqtinchalik olod etiladi?
8. Yuridik shaxslarning qanday qarajatlari soliqqa tortiladigan daromaddan kamaytiriladi?
9. Soliq qisobini tulish va soliqni to'lash tartibi qanday?
10. Ikki yoqlama soliq to'lash qanday tugatiladi?

VI. Mavlu yulasidan test savollari.

1. Foyda solig'idan yiliga necha marta bo'nak to'lanadi?

- A) 1 marta;
- B) 12 marta;
- C) To'lanmaydi;
- D) 6 marta.

2. Yuridik shaxs uchun quyidagilarni qaysi biri to'g'ri?

- A) Shaxsiy imzosi, korxonasi, mulki va muxri;
- B) Shaxsiy mashinasi, mulki, korxonasi, balansi;
- C) Pochta manlili, mulki, muxri, balansi, alohida hisob-kitob raqami;
- D) Xomiylik ro'yxatidan o'tgan alohida savdo shaxobchasi mavjud bo'lgan va o'l mulki hisobidan ssuda ishlab berishda.

3. Korxonazar daromad (foydaga) solig'ini hisoblashda jami daromadda qaysi chegirmalar amalga oshiriladi?

- A) Qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i;
- B) Asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari;
- C) Qonun xujjatlariga muvofiq normalar bo'yicha xizmat safari xarajatlari summalar;
- D) Xamma javob to'g'ri.

4. Mobil aloqa xizmatini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar qancha foyda solig'i to'laydilar?

- A) 20%
- B) Rentabelligi 20% gacha 10 foiz, rentabelligi 20 % dan ortiq bo'lsa 30 foiz to'laydilar;

- C) 18 foiz
- D) Rentabelligi 20% gacha 15 foiz, rentabelligi 20 % dan ortiq bo'lsa 10 foiz to'laydilar.

5.Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar qanday korxonalarga beriladi?

- A) Ishchilarning umumiy soning kamida 75 %ni o'rta maktab va hunar – texnika bilim yurtlari o'quvchilari tashkil qilsa;
- B) Chet el investitsiyasi ishtirokida tashkil etilgan korxonalar;
- C) Sog'lom avlod jamgarmasiga qarashli korxonalar;
- D) Tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar.

6.Korxonalar joriy to'lovlar daromad solig'ini choragining summasini qaysi muddatlarda to'laydilar?

- A) Hisobot choragidan keyingi oyning 15- sanasidan kechikmagan holda;
- B) Har oyning 15- sanasidan kechikmagan holda;
- C) Har oyning 20 chi sanasidan kechikmagan holda;
- D) Har oyning 5 chi sanasidan kechikmagan holda.

7.Korxona va tashkilotlar tomonidan soliq va to'lovlarning kechiktirilgan har bir kun uchun hisoblanadigan ustama necha foizni tashkil kiladi?

- A) 0,01 %;
- B) 0,02 %;
- C) 0,15 %;
- D) 0,07 %.

8.Moliyaviy jalo choralari va Penya (ustama) summalari jami daromaddan chegiri tashlanadimi?

- A) Moliyaviy jalo choralari 10 % ga chegirilgan xolda;
- B) Chegirib tashlanadi;
- C) Chegirib tashlanmaydi;
- D) Moliyaviy jalo choralari 50% ga chegirilgan xolda.

9.Korxonalar joriy to'lovlar daromad solig'ini choragining summasini qaysi muddatlarda to'laydilar?

- A) Hisobot choragidan keyingi oyning 15- sanasidan kechikmagan holda;
- B) Har oyning 15 - sanasidan kechikmagan holda;
- C) Har oyning 20 - sanasidan kechikmagan holda;
- D) Har oyning 5 - sanasidan kechikmagan holda.

10.Tijorat banklaridan undiriladigan daromad (foyda) solig'i stavkasini ko'rsating?

- A) 10 %;
- B) 15 %;
- C) 20 %;
- D) 18 %.

11.Qimmatli qogʻollar bolorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar toʻlaydigan yagona soliq stavkasini koʻrsating.

- A) 8 %;
- B) 10 %;
- C) 13 %;
- D) 33 %.

12.Savdo tashkilotlari yalpi daromad soliqlari nimaga asosan belgilanadi?

- A) Tashkilotning daromadlarinig darajasiga asosan;
- B) Tashkilotning foydasining darajasiga asosan;
- C) Tashkilotning yalpi daromadiga asosan;
- D) Tashkilotning tovar aylanmasiga asosan.

VII. Mavzu boʻyicha masalalar.

2018 yilning 29 noyabrida qabul qilingan “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada ragʻbatlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 5587-sonli Prezident farmoniga muvofiq, 2019 yil 1 yanvardan boshlab tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksport ulushi umumiy tushumning 15 foizdan yuqori boʻlgan eksportchi korxonalar uchun tovar (ish, xizmat)lar eksportidan olingan foyda soliq solishdan ozod qilinadi.

- Masalan, “Sharq” MChJning mahsulot sotishdan umumiy tushumi 2 500,0 mln.soʻm, shundan eksportga sotilgan mahsulotlar hajmi 1 300,0 mln.soʻm, soliq solinadigan foydasi 500,0 mln.soʻmni tashkil qilgan.
- Bunda, eksport ulushi 52 % ($1\,300,0/2\,500,0 \times 100\%$) ni tashkil qilganligi sababli korxona yuqoridagi imtiyozdan foydalanish huquqiga ega boʻladi va soliq solinadigan foyda 500,0 mln.soʻmning eksportga toʻgʻri keladigan qismi, yaʼni 260,0 (52 %) mln.soʻm foydasi soliq solishdan ozod etiladi. Natijada, 240,0 mln.soʻmdan (500-260) 12 % stavkada 28,8 mln.soʻm foyda soligʻi toʻlaydi yoki imtiyoz natijasida korxona ixtiyorida 31,2 mln.soʻm mablagʻ qoladi.

Shartli 1-misol. Korxona I chorak uchun faoliyat yakunlari buyicha quyidagi koʻrsatkichlarga ega:

- Mahsulotlarni realizatsiya qilishdan sof tushum 250 000 ming soʻm;
- Chegirilmaydigan xarajatlar 16 000 ming soʻm;
- Moliyaviy faoliyatdan daromadlar (dividendlar) 18 000 ming soʻm;
- Tekinga olingan uskuna 820 ming soʻm;
- Foyda soligʻi toʻlagunga qadar foyda (Moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotning-240-satr) 124 000 ming soʻm;

- Yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarining ipoteka kreditlarini qoplash bo'yicha badal o'tkazilgan summa 4300 ming so'm.

Korxonaning soliq solinadigan foydasi 121 180 ming so'mni tashkil etadi, u quyidagicha hisoblab chiqiladi:

Foyda solig'i to'langunga qadar foyda (124000) + Tekinga olingan mol-mulk(820) + Chegirilmaydigan xarajatlar (16000) - Olingan dividendlar (18000) = 121 180 ming so'm.

Korxona hisobot choragida yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarining ipoteka kreditlarini qoplash bo'yicha badal o'tkazganligi uchun u soliq solinadigan foydani kamaytirishga xaqli, lekin soliq solinadigan foydaning 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda (Soliq kodeksi 159-moddasining 5-bandi).

Misolda korxonaning bu maqsadda qilingan xarajati (4 300 ming so'm) soliq solinadigan foydaning (121 180 ming so'm) 10 foizidan kam, shu sababli soliq solinadigan foydani to'liq 4 300 ming so'mga kamaytiradi. Bu summa foyda solig'i hisob-kitobining 090-satrda va hisob-kitobga 2-son ilovaning tegishli satrlarida ko'rsatiladi.

Shunday qilib, korxonaning hisobot yili uchun soliq solinadigan bazasi 116 880 ming so'mni (121 180 – 4 300) tashkil etadi.

Foyda solig'i summasi chorak uchun 14 025,6 ming so'mni (116 880 x 15%) tashkil etadi.

2-Misol. *Korxona I chorak uchun faoliyat yakunlari buyicha quyidagi ko'rsatkichlarga ega:*

- Mahsulotlarni, ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilishdan sof tushum 250 000 ming so'm;

- Davr xarajatlari- 25 800 ming so'm, shundan chegirilmaydigan xarajatlar – 16 000 ming so'm;

- Moliyaviy faoliyatdan daromadlar (dividendlar) – 18 000 ming so'm;

- Qiymati 820 ming so'mlik uskuna tekinga olingan;

- Foyda solig'i to'lagunga qadar foyda (Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning-240-satr) -124 000 ming so'm.

Bunda Korxona hisobot choragida ekologiya jamg'armasiga tekinga badal (500 ming so'm) va yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarining ipoteka kreditlarini qo'lash bo'yicha badal (3 800 ming so'm) o'tkaldi.

Korxonaning soliq solinadigan foydasi quyidagicha hisoblab chiqiladi:

Foyda solig'i to'langunga qadar foyda + tekinga olingan mol-mulk + chegirilmaydigan xarajatlar – olingan dividendlar va 121 180 ming so'mni (124 000 + 820 + 16 000 – 18 000) tashkil etadi.

Olingan dividendlar summasi soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanadi, chunki ularga to'lov manbaida soliq solinadi.

Korxona hisobot choragida ekologiya jamg'armasiga badal va yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarining ipoteka kreditlarini qo'lash bo'yicha badal o'tkalganligi uchun u soliq solinadigan foydani kamaytirishga xaqli, lekin quyidagilardan ko'p emas:

Soliq solinadigan foydaning 2 foizi – ekologiya jamg'armasiga badallar bo'yicha (Soliq kodeksi 159-moddasining 1-bandi);

Soliq solinadigan foydaning 10 foizi – ipoteka kreditlariga badallar bo'yicha (Soliq kodeksi 159-moddasining 5-bandi);

Ekologiya jamg'armasiga 500 ming so'm o'tkalilgan edi, bu soliq solinadigan foydadan 2 foizga ($121180 \cdot 2\% = 2423,6$ ming so'm) kam, tegishincha, soliq solinadigan foyda ushbu xarajatlarning haqiqatdagi summasiga, ya'ni 500 ming so'mga kamayadi.

Xodimlarning ipoteka krediti bo'yicha badallari o'tkalilgan 3800 ming so'm soliq solinadigan foydadan 10 foiz kamni (12 118 ming so'm) tashkil etadi, va tegishincha, soliq solinadigan foydani to'liq hajmda kamaytiradi.

Kamaytirilgan soliq solinadigan foyda summasi Foyda solig'i hisob-kitobining 090-satrida va hisob-kitobga 2-son ilonaning tegishli satrlarida ko'rsatiladi.

Shunday qilib, korxonaning hisobot yili uchun soliq solinadigan bazasi 116 880 ming so'mni ($121\,180 - 500 - 3\,800$) tashkil etadi.

Foyda solig'i summasi chorak uchun 14 025,6 ming so'mni ($116\,880 \cdot 15\%$) tashkil etadi.

1-masala. Quyidagi ma'lumotlarga asosan foyda solig'ini hisoblang. (ma'lumotlar ming so'm hisobida keltirilgan)

1. Mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum – 4380
2. Qo'shilgan qiymat solig'i – 688
3. Aksiz solig'i – 500
4. Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi – 2695
5. Sotish xarajatlari – 35
6. Ma'muriy xarajatlar – 83
7. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad – 35
8. Olingan dividendlar – 75
9. Valyuta kursi bo'yicha musbat farq - 29
10. Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar – 15
11. Favqulotda foyda – 5
12. "Xarajatlar tarkibi to'g'risida...." gi Nilomning 1-ilova xarajatlari - 312
13. Soliq imtiyozi - 100

2-masala. Ishlab chiqarish korxonasi ikkinchi yil faoliyat yuritmoqda, uning foyda solig'i to'lagungacha bo'lgan daromadi (2-son, 170-satr) 350 ming so'm bo'lgan.

1. Hisobot davri uchun qo'shimcha ravishda quyidagi ma'lumotlar mavjud:
2. Xokimiyatga homiylik yordami ko'rsatilgan – 18 ming so'm;
3. Qariyalar uyiga yordam ko'rsatish uchun – 249 ming so'm .
4. Hisobot davri uchun korxona to'lashi lozim bo'lgan daromad solig'i necha so'mga teng? (soliq stavkasi – 15%)

3-masala. Quyidagi ma'lumotlar asosida foyda solig'ini hisoblang (ming so'm):

5. Sotishdan olingan sof tushum – 3192

- shundan eksport faoliyatidan – 670
- 6. Soliq to'langunga qadar olingan foyda – 508
- 7. Olingan dividendlar – 75
- 8. Soliq bo'yicha imtiyozlar – 100

4-masala. Qo'shilgan qiymat solig'i va foyda soliqlar to'lovchisi hisoblangan ishlab chiqaruvchi korxona 2019 yil hisobot davri uchun quyidagi ko'rsatkichlarga ega:

Ichki bolorda mahsulotni sotishdan tushgan tushum – 128000 ming so'm;

Chet el valyutasiga sotilgan mahsulot 14 ming AQSh dollari miqdorida (yuk ortilgan vaqtda 1 AQSh dollari – 9500 so'm);

Omborxonalarni ijaraga berishdan olingan sof daromad – 27000 ming so'm;

Uskunalarini o'z vaqtida olib kelib o'rnatilmagani uchun sotuvchi korxonadan tushgan jarima va shartnomada ko'rsatilgan qo'shimcha to'lov – 9980 ming so'm;

Yordamchi korxonadan olingan dividendlar (dividenddan undirilgan soliq haqidagi ma'lumot mavjud) – 13390 ming so'm;

“Ishonch” firmasi tomonidan xodimlar bo'limiga tegishli 17510 ming so'mlik kompyuter dasturi yaratilgan va tekinga o'rnatib berilgan.

2018 yilda qonunchilikka asosan chegirmaga olib borilgan 30100 ming so'mlik sotilgan mahsulotning puli kelib tushgan.

Sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi – 113750 ming so'm, shu jumladan ishlab chiqarishda ishlatiladigan asosiy vositalarning eskirishi belgilangan me'yorga nisbatan 2 koeffitsient qo'llanilgan bo'lib, 21000 ming so'mni tashkil etgan.

O'tgan davr uchun quyidagi xarajatlar amalga oshirilgan:

Me'yor chegarasida o'lining mahsulotini reklama qilish uchun – 1250 ming so'm sarflangan;

Boshqaruvda ishlovchilar uchun ish haqi bo'yicha xarajat – 44950 ming so'm;

Xizmat sarfari xarajatlari, me'yordagisi – 3920 ming so'm, me'yordan yuqori – 850 ming so'm;

Xizmat avtomobili saqlash uchun xarajatlar – 1450 ming so'm;

Uyali telefon – 12000 ming so'm;

Ishlab chiqarishda qatnashmaydigan asosiy vositalarning eskirishi – 8950 ming so'm; Hisobot davrida hisobvaraqlar bo'yicha olingan qo'shilgan qiymat solig'i – 9250 ming so'm.

Aniqlang:

1. Hisobot davrida davlat byudjetiga to'lanishi lozim bo'lgan foyda solig'i summasini (soliq stavkasi 15% - 2020 yil uchun).

2. Davlat byudjetiga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ini.

3. Korxonaning moliyaviy natijalari bo'yicha hisobotni tuzing.

4. Hisobot davri uchun foyda solig'ining shaklini to'ldiring.

Masalani yechish davrida mol - mulk solig'i, yer solig'i hamda boshqa soliqlar va majburiy to'lovlarga ahamiyat bermaslikka ruxsat etiladi.

VIII. Mavzu bo'yicha glossariy

Yuridik shaxs – O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot;

Yuridik shaxslarning daromad (foyda)siga soliq - bu korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar daromadi (foydasini)ning bir qismini byudjetga majburiy to'lov munosabatini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti - O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan hamda bosh korxonasi O'zbekistonda joylashib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga identifikatsion raqam beriladi. Uning mazmuni tartib raqamiga mos keladi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekistonda va undan tashqaridagi faoliyatdan olgan daromadlaridan daromad (foyda) solig'iga tortiladilar. Rezidentlar doimiy faoliyat ko'rsatuvchilar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari - esa faqat O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatishdan olgan daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladilar. Norezidentlar faoliyati Respublikada o'tkinchi yoki vaqtinchalik xarakterga ega.

Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibi - Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga ular tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat xaqlari kabi pul va bepul (pulsiz) qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'lar kiradi. Demak, olingan kreditlar jami daromadga kirmaydi.

Jami daromadga quyidagilar kiradi:

1. Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum. Unga ortilgan mahsulot qiymatini to'lash uchun hisoblash hujjatlarida ko'rsatilgan summa; buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, bajarilgan ishlar dalolatnomalarida ko'rsatilgan summalar; ko'rsatilgan xizmatni bajarilganligini tasdiqlovchi summalar kiradi. Vositachilik faoliyatidan (komission taqdirlash) daromad oluvchi tashkilotlar uchun tushum hamma bitimlar bo'yicha komission taqdirlash ('rotsentlar) summolari hisoblanadi.

2. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk ob'ektlari, materiallar va boshqa aktivlar sotishdan daromadlar kiradi.

Soliqqa tortish maqsadida asosiy fondlar va boshqa mulklarni sotishdan daromadni aniqlashda shu fondlar mulklarni sotish bahosi va qoldiq summasi o'rtasidagi farq (oshishi) hisobga olinadi. Bu yerda qoldiq qiymat hamma asosiy fondlar, moddiy aktivlar, kam qiymatli va tel buliladigan 'redmetlarga ham

qo'llaniladi. Asosiy fondlar bepul berilganda berayotgan shaxsning aktivlar qiymati o'sha vaqtdagi tashkil to'gan harajatlar bilan, mulklarni oluvchining daromadi esa kirim qilingan qoldiq qiymat bilan, lekin bergan shaxsning tannarx qiymatidan kam bo'lmagan holda qabul qilinadi.

1. Foizlar va dividendlar turida olingan daromadlar;
2. Bepul olingan mulklar. Lekin bepul olish bir tizim ichiga kiruvchi korxonalar tomonidan bo'ladi daromad bo'lmaydi. Tizim deyilganda valirliklar, kontsernlar, trestlar va b. ichidagi harakatlar tushuniladi;
3. Mulklarni ijaraga berishdan daromadlar. Ammo amortilatsiya qilinadigan asosiy vositalar liling shartnomasi bo'yicha ijaraga berilsa, soliqqa tortish maqsadida mulkni sotib olgan hisoblanadi;
4. Royalti-intelektual mulklarning huquqidan daromadlar, mualliflik xaqlari, patentlari, chilmalar tovar belgilari, yangi modellardan daromadlar;
5. Bepul moliyaviy yordam (byudjet mablag'laridan tashqari);
6. Kreditorlik va deponentlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar, agar so'rov muddati tugagan bo'ladi. Umumiy so'rov muddati yuridik shaxslar uchun 3 yil qilib belgilangan;
7. Ilgari chegirma qilingan qarzlarni, zararlar va umidsiz qarzlarni tushishidan olingan summalar;
8. Valyuta scheti bo'yicha ijobiy kurs farqlari;
9. Favqulodda daromadlar;
10. Har xil daromadlar;
11. Tovar moddiy boyliklarni qayta baholashdan qo'shimcha summalar soliq tortiladigan daromadga shu tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotishi bilan ko'shib beriladi.

Yuqorida aytilgan daromadlar tarkibi -“Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida”gi Nizom bilan aniqlanadi va quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda.

$Y_{aF} = SST - IT$,

ya'ni Y_{aF} -yalpi foyda, SST-sotishdan olingan sof tushum, IT-sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

- asosiy faoliyatdan olingan foyda.

$AFF = DX + BD - BL$,

bunda AFF -asosiy faoliyatdan olingan foyda, DX -davr harajatlari, BD -asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, $B3$ -asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

- umum xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar).

$UF = MD - MX$,

bunda UF-umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda; MD-moliyaviy faoliyatdan daromadlar; MX-moliyaviy faoliyat harajatlari;

-solliq to`languncha olingan foyda.

$$STF=UF+Fp-F3,$$

bunda STF-solliq to`laguncha olingan foyda; Fp-favqulodda valiyatdan olingan foyda; F3-favqulodda valiyatdan ko`rilgan zarar.

-Yilning sof foydasi,

$SF=STF-BS$, bunda SF- yilning sof foydasi, BS-boshqa soliqlar va to`lovlar.

Demak, solliqqa tortiladigan daromad STF ga Nilom bo`yicha uning 1 va 2 ilovalardagi harajatlarni qayta qo`shish bilan aniqlanadi.

Jami daromaddan chegirmalarga quyidagilar kiradi va solliqqa tortiladigan daromaddan chegiriladi:

- qo`shilgan qiymat solig`i, aksiz solig`i, mol-mulk solig`i, yer solig`i, yer qa`ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to`lovlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun solliq, bojxona bojlari summolari;
- banklarning va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining qisqa muddatli kreditlari bo`yicha foiz to`lovlari summolari, to`lov muddati o`tgan va to`lov muddati o`laytirilgan ssudalar bo`yicha foizlar bundan mustasno;
- xodimlarga ish haqi to`lash bo`yicha harajatlar (banklar, sug`urta tashkilotlari, videosalonlar va boshqa omaviy tomosha tashkilotlari bundan mustasno).
- Belgilangan tartibda kiritilgan renta to`lovlari summasi;
- Ijara haqi (lizing to`lovi);
- Asosiy vositalarni ta`mirlash harajatlari;
- Chet el yuridik va jismoniy shaxslarning moddiy harajatlari va ko`rsatgan xizmatlari qiymati;
- Majburiy sug`urta to`lovlari bo`yicha o`tkaliladigan qonun hujjatlariga muvofiq ish haqiga hisoblangan summalar;
- Mahsulotlar (xizmatlar)ni sertifikatsiyalash ishlariga haq to`lash summolari;
- Normalar bo`yicha xizmat safari, vakillik maqsadlari, reklama, kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash harajatlari summolari;
- Mahalliy hokimiyat tasdiqlagan normada solliq to`lovchi balansidagi saqlash ob`ektlari, qariyalar va nogironlar uylari, maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari, bolalarning dam olish lagerlari, madaniyat va sport ob`ektlari, xalq ta`lim muassasalari, uy-joy fondini saqlashga harajatlar summolari, yuqoridagi maqsadlarga ulush qo`shib qilingan harajatlar kamaytiriladi;
- qonun bo`yicha boshqa majburiy to`lovlar chegirib tashlanadi.

Solliq stavkalari va solliqqa tortish bazasini shakllantirish. Yuridik shaxslarning daromad (foyda)ga solig`i stavkalari har yili Oliy Majlis tomonidan Valirlar Maxkamasining yangi yilga byudjet parametrlarini ko`rib chiqqanda tasdiqlanadi.

Norezident soliq to'lovchi - Norezident soliq to'lovchining daromadini chet elga o'tkazilayotganda 10 foiz miqdorida daromadga (foyda) soliq undiriladi. Doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borgan norezidentning daromadi hech qanday chegirmasiz daromad manbaida quyidagi stavkalarda soliqqa tortiladi:

Soliqdan beriladigan imtiyozlar va ularni bekor qilish tartibi. Daromadga (foyda) soliqdan beriladigan imtiyozlarni 3 guruhga bo'ladi ko'rsatish mumkin:

- To'liq ozod etiladigan yuridik shaxslar va ularning daromadlari;
- Vaqtincha ozod etiladigan yuridik shaxslar va ularning daromadlari;
- Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlarining kamaytirilishi. Soliq hisobida imtiyoz deb ko'rsatiladi.

Daromadga (foyda) soliqdan quyidagi yuridik shaxslarni to'liq olod etish mumkin:

- 1) Protez-ortopediya mahsulotlari, inventarlar hamda nogironlar uchun xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar-asosiy faoliyat turi bo'yicha;
- 2) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va O'zbekiston Chernobilchilar asosotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillar urush va mehnat faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar (savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslardan tashqari);
- 3) davolash muassasalari qoshidagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari;
- 4) jaloni ijro etuvchi muassasalar;
- 5) notijorat yuridik shaxslar, ularning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlaridan tashqari. Keyingi daromadlar umumiy asosda soliqqa tortiladi.

4-AMALIY MASHG'ULOT:

JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I

Reja:

1. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq va uning o'ziga xosligi.
2. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq ob'ekti.
3. Jismoniy shaxslarning ja'mi yillik daromadlari.
4. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning stavkalari va soliqdan beriladigan imtiyozlar.

I. Darsning maqsadi. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq va uning o'ziga xosligi. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq ob'ekti. Jismoniy shaxslarning ja'mi yillik daromadlari. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning stavkalari va soliqdan beriladigan imtiyozlar. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqni hisoblash uslubiyati. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqni to'lov manbaida ushlab qolish. Norezedent jismoniy shaxslarni daramadlaridan soliq undirish jarayonini o'rganish.

II. Amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun ma'lumotlar.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining iqtisodiy mohiyati

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i - moliya munosabatlarning kichik tizimi sifatida, aholi bilan davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni, xususan ularning daromadlaridan bir qismini davlatning markazlashtirilgan fondini tashkil etish munosabatlarini aks ettiradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 1991 yilning mart oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida"gi Qonuni asosida joriy etilgan.

Soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari hisoblanadi (*Soliq kodeksi 167-modda*).

Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslar rezidentlar va norezidentlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb quyidagilar e'tirof etiladi:

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi 12 oylik davr ichida jami 183 kun va undan ortiq muddat O'zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs (*Soliq kodeksi 19-modda*).

Ushbu mezonga javob bermaydigan shaxs O'zbekiston Respublikasining norezidenti deb e'tirof etiladi.

Soliq solish ob'ekti bo'lib:

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari hisoblanadi (*Soliq kodeksi 169-modda*).

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan, qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, Soliq kodeksining 179 va 180-moddalariga muvofiq soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi (*Soliq kodeksi 170-modda*).

Agar soliq to'lovchining daromadidan uning ixtiyoriga ko'ra, sud yoki boshqa organlarning qaroriga binoan biron bir ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Jismoniy shaxslarning jami daromadi quyidagilarni o'z ichiga oladi (*Soliq kodeksi 171-modda*):

- ☒ mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- ☒ mulkiy daromadlar;

- ☒ moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- ☒ boshqa daromadlar.

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi (*Soliq kodeksi 172-modda*).

Mulkiy daromadlarga quyidagi daromadlar kiradi: foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, sanoat mulki ob'ektlariga, selektsiya yutug'iga berilgan patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, oilaviy korxona ishtirokchisi hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi. (*Soliq kodeksi 176-modda*)

Moddiy naf tarzidagi daromadlarga qanday daromadlar kiradi?

- ❖ yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to'lash;
- ❖ soliq to'lovchining manfaatlarini ko'zlab tekinga, shu jumladan hadya shartnomasi asosida berilgan mol-mulk, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati;
- ❖ olish narxidan yoki tannarxidan past narxga tovarlarning (*ishlarning, xizmatlarning*) xodimlarga realizatsiya qilingandagi farq;
- ❖ qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temir yo'l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo'yicha beriladigan imtiyozlar summasi;
- ❖ jismoniy shaxsning yuridik shaxs oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summolari;
- ❖ ish beruvchi tomonidan to'lovlar hisobiga to'lanib, xodimdan ushlab qolinishi lozim bo'lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar. (*Soliq kodeksi 177-modda*)

Boshqa daromadlarga qanday daromadlar kiritiladi?

- ✚ pensiyalar va qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar;
- ✚ stipendiyalar;
- ✚ fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, hayriya va ekologiya jamg'armalari tomonidan jismoniy shaxslarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam;
- ✚ donorlik uchun pul mukofotlari;
- ✚ alimentlar;
- ✚ jismoniy shaxslardan tekin (*shu jumladan hadya shartnomalari bo'yicha*) olingan mol-mulk yoki mulkiy huquqlar qiymati;

- ✚ musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;
- ✚ olingan grantlar va boshqalar (*Soliq kodeksi 178-modda*).

Imtiyozlar

Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari tarkibi Soliq kodeksining 179-moddasida hamda soliq solishdan to'liq ozod qilingan jismoniy shaxslar 180-moddasida belgilangan.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi (Soliq kodeksi 179-modda).

- ✚ moddiy yordam summolari (*favqulodda holatlarda berilsa – to'laligicha, boshqa hollarda - yil davomida eng kam ish haqining 12 baravarigacha miqdorda*);
- ✚ xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan pul mukofoti;
- ✚ donorlik uchun pul mukofotlari;
- ✚ uy va dehqon xo'jaligida yetishtirilgan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar;
- ✚ xodimlarning yuridik shaxsdan yil davomida eng kam ish haqining 6 baravari miqdorigacha bo'lgan qiymatdagi natura shaklida olgan sovg'alari;
- ✚ jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar;
- ✚ davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, lotereya bo'yicha yutuqlar;
- ✚ jamg'arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek banklardagi omonatlar bo'yicha foizlar hamda yutuqlar;
- ✚ mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasida to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi;
- ✚ olingan alimentlar;
- ✚ fuqarolarning sug'urta to'lovi sifatida oladigan summolari;
- ✚ ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan to'lanadigan stipendiyalar;
- ✚ davlat pensiyalari;
- ✚ jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;
- ✚ yosh oila a'zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ularga hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgandagi daromadlari;
- ✚ qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda qurilgan uy-joyni sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgan daromadlar;

 O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun yo'naltiriladigan summalar va boshqalar.

Quyidagi jismoniy shaxslar soliq solishdan ozod qilingan (Soliq kodeksi 180-moddasi).

- ❖ xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari;

- ❖ xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari;

- ❖ xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar;

- ❖ xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari xodimlarining uyalarida ishlovchilar;

- ❖ xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdor shaxslari;

- ❖ yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan shaxslar - yakka tartibdagi tadbirkor bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga ko'ra bajargan ishlari uchun olgan daromadlari bo'yicha.

Quyidagi jismoniy shaxslar har oy uchun eng kam ish haqining 4 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha soliqdan ozod qilinadi:

- ❖ "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar;

- ❖ urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar;

- ❖ bolalikdan nogiron bo'lib qolganlar, shuningdek I va II guruh nogironlari. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

- ❖ sobiq Ittifoqni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yohud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yohud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari).

- ❖ ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar;

- ❖ ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor va boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar;

- ❖ bolaligidan nogiron bo'lgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

01.01.2019 yildan	stavka
Daromad solig'i stavkasi (Yagona)	12%

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga solinadigan soliq stavkalari (*Soliq kodeksi 182-modda*)

Daromad turi	stavka
dividendlar va foizlarga	10 %
xalqaro tashishlarda transport xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlarga	6 %
mehnat shartnomalari va fuqarolik-huquqiy tisdagi shartnomalar bo'yicha olingan va boshqa daromadlarga	20 %

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i qanday tartibda byudjetga to'lanadi?

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ikkita tartibda byudjetga to'lanadi:

- ☒ Soliq agenti tomonidan to'lov manbaida;
- ☒ Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxs tomonidan to'lov amalga oshiriladi (*Soliq kodeksi 184 va 189-moddalari*)

Yuridik shaxs zimmasiga jismoniy shaxslarning qanday daromadlari bo'yicha daromad solig'ini to'lov manbaida hisoblab chiqarish, ushlab qolish va to'lash majburiyati yuklatiladi? (*Soliq kodeksi 184-modda*)

-  mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
-  moddiy naf tarzidagi daromadlar (*agar jismoniy shaxs tomonidan soliq ushlab qolmaslikka yozma ariza berilmagan bo'lsa*);
-  mulkiy daromadlar (*agar daromadning to'lov manbai yuridik shaxs bo'lsa*);
-  boshqa daromadlar (*agar daromadning to'lov manbai yuridik shaxs bo'lsa*).

Jismoniy shaxslar qaysi daromadlari bo'yicha deklaratsiya asosida daromad solig'i to'lashlari kerak? (Soliq kodeksi 189-moddasi)

- mulkiy daromadlar (agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa);
- fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;
- O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;
- soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar.


III. Darsda qo'laniladigan grafik organayzerlar.

1. Quyidagi rasmni to'ldiring.



2. Bo'sh kataklarni to'g'ri javoblar bilan to'ldiring!

Jismoniy shaxslar daromadiga soliq to'lovchilar



3. *Quyidagi rasmni bo'sh kataklarini mos javoblar bilan to'ldiring!*

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar		

IV. Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi” (2020 yil 1-yanvar amalga kiritilgan) T – 2019 y.
2. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo‘rayev. – T.: “Sharq” nashryoti – 2009 y. – 400 b.
3. Yuldashev A. “Soliq va soliqqa tortish”. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan va texnologiya”. 2007 y. 128 b.
4. Александров И. Налоги и налогообложения. Учебник. М. “Дашков и К” 2006 г. С.312.
5. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O‘quv qo‘llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 282 b.
6. Jo‘raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. T. “Fan” 2004 y. 387 b.
7. Jo‘raev A. “Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O‘quv qo‘llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 120 b.
8. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. . T. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashiriyot uyi. 2005 y. 544 b.
9. Malikov T. “Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari”. T. Akademiya. 2002 y. 253 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. “2019 yilda soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o‘zgarishlar yuzasidan o‘quv qo‘llanma”. T. 2019 y.

V. Mavzu bo‘yicha nazorat savollari.

1. Kimlar jismoniy shaxslar daromadiga solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib?
2. Soliq ob‘ekti va jami daromadga nimalar kiradi?
2. Jismoniy shaxslar daromadlariga qanday soliq stavkalari mavjud?
3. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqdan qanday imitiyozlar bor?
4. Kimlar daromadga soliqdan to‘liq ozod etiladi va kimlarga 4 karrali minimal ish haqida imtiyoz beriladi?
5. Chet ellik jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning qanday xususiyatlari bor?
6. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq kimlar tomonidan va nimalar asosida hisoblanadi?
7. Jismoniy shaxslar kimlar?
8. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqni to‘lash muddatlari qanday?
9. Qat‘iy stavkada soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarga kimlar kiradi?
10. Qat‘iy stavkadagi soliq qanday hisoblanadi?
11. Turg‘un savdo shaxobchalarida savdo qiluvchilarni ro‘yxatga olish tartibi qanday?
12. Buyum bozorlarida savdo qiluvchi tadbirkorlarni ro‘yxatga olishda qanday hujjatlar talab etiladi?

VI. Mavzu yuzasidan test savollari.

1. Jismoniy shaxslar tomonidan dividendlar ko`rinishida olingan va yuridik shaxsning ustav sarmoyasiga yo`naltirilgan daromadlar soliqqa tortiladimi?

- A) Tortiladi;
- B) Tortilmaydi;
- C) 15% miqdorida;
- D) 18% miqdorida.

2. Aholi daromad soliqlarini kimlar belgilaydi?

- A) Oliy majlis;
- B) Vazirlar Mahkamasi;
- C) Davlat soliq qo`mitasi;
- D) Mahalliy hokimliklar;

3. Aholi daromad soliqlari qaysi byudjetga to`lanadi?

- A) Davlat byudjetiga;
- B) Mahalliy byudjetga;
- C) 65% davlat byudjetiga 35% mahalliy byudjetga;
- D) 65% mahalliy byudjetiga.

4. Jismoniy shaxslarning daromad solig`ini to`lovchilarga kimlar kiradi?

- A) Ish xaqidan daromad solig`ini to`lovchilar;
- B) Moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo`lgan soliq to`lovchilar;
- C) Tadbirkorlik faoliyatidan daromad oluvchilar;
- D) Mulkni ijaraga bergan shaxslar.

5. Dividentlar necha foizli stavkada soliqqa tortiladi?

- A) 5 foiz;
- B) 18 foiz;
- C) 20 foiz;
- D) 21 foiz;

6. Asosiy bo`lmagan ish joyidan daromad olgan rezident - jismoniy shaxs doimiy istiqomat joyidagi soliq organiga qaysi muddatgacha deklaratsiya topshirishi shart?

- A) Hisobot yilidan keyingi yilning 1 fevraligacha;
- B) Hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreligacha;
- C) Hisobot yilidan keyingi yilning 1 iyuligacha;
- D) Hisobot yilidan keyingi yilning 15 iyunigacha.

7. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug`llanuvchi jismoniy shaxslar qaysi tartibda soliqqa tortiladi?

- A) Minimal ish xaqiga nisbatan qat'iy summalarda;
- B) Progressiv soliqqa tortish usulida;

- C) Regressiv soliqqa tortish usulida;
- D) Daromadning darajasiga ko`ra.

8. Jismoniy shaxslarning jami daromad tarkibi qaysi bandda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) Mehnatga haq to`lash tarzidagi daromadlar va mulkiy daromadlar;
- B) Moddiy naf tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, ishsizlik nafaqalari va pensiyalar;
- C) Mehnatga haq to`lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar va boshqa daromadlar;
- D) To`g`ri javob yo`q.

9. Mehnatga haq to`lash tarzidagi daromadlarga qanday daromadlar kiradi?

- A) Rag`batlantirish xususiyatiga ega bo`lgan to`lovlar;
- B) Kompensatsiya to`lovlari;
- C) Ishlanmagan vaqt uchun haq to`lash;
- D) Javoblarning barchasi to`g`ri.

10. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq stavkasi qaysi bandda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) 0%; 7,5%, 16,5%; 22,5 %;
- B) 13 %, 18 %, 24 %;
- C) 13 %, 23 %, 33 %;
- D) 12 %.

12. Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi jismoniy shaxslar qanday tartibda soliqqa tortiladi?

- A) Moliya yilida olgan daromadlari bo`yicha belgilangan stavkalarda;
- B) Fizik hajmdan kelib chiqqan holda;
- C) Olingan daromadlardan deklaratsiya asosida;
- D) Javoblarning barchasi to`g`ri.

13. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari qaysi bandda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) Foizlar, dividendlar, qimmatli qog`ozlarni realizatsiya qilishdan tushgan daromadlar;
- B) Bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik va xizmat ko`rsatish doirasini kengaytirganlik uchun ustamalar;
- C) Asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta`tilda bo`lgan hodimlarga beriladigan to`lovlar va moddiy yordam to`lovlari;
- D) Yillik ish yakunlari bo`yicha pul mukofoti, ta`tilga har yilgi qo`shimcha haqlar.

14. Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari tarkibiga qanday daromadlar kiradi?

- A) Stipendiyalar, alimentlar, yutuqlar va boshqalar;

- B) Bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik va xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirganlik uchun ustamalar;
- C) Asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta'tilda bo'lgan hodimlarga beriladigan to'lovlar va moddiy yordam to'lovlari;
- D) Yillik ish yakunlari bo'yicha pul mukofoti, ta'tilga har yilgi qo'shimcha haqlar.

15. Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar tarkibiga qanday daromadlar kiritilmaydi?

- A) Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar
- B) Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash
- C) Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar
- D) Kompensatsiya to'lovlari

VII. Mavzu bo'yicha masalalar.

Jismoniy shaxslar daromadlariga Soliq kodeksining 179 va 180-moddalarida hamda soliq to'g'risidagi qonun xujjatlarida belgilangan imtiyozlarni inobatga olgan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan daromadga nisbat 12 foiz soliq stavkasi bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisoblanadi.

Yuridik shaxslar tomonidan to'lov manbaida hisoblangan daromad solig'i hisobot oyida hisoblangan jismoniy shaxslarning daromadlari bo'yicha keyin oyning 25 sanasigacha, yil yakuni bo'yicha 15 fevraldan kechiktirmasdan hisobot taqdim qilishlari va byudjetga o'tkazishi lozim (*Soliq kodeksi 187 va 188-modda*)

Byudjetga to'lanadigan daromad solig'i summasi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan, daromad solig'i solinadigan daromadlaridan hisoblab chiqariladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay taqdim etadilar va soliqni o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to'laydilar (*Soliq kodeksi 192 va 193-modda*).

Yangi soliq kontsepsiyasining nafaqat ish beruvchi, ya'ni tadbirkorlarga, balki yollanma ishchilar, xodimlarning daromadida ham o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Endi oyliklarimizdan ushlab qolinadigan soliqlar kamaydi va yangi yilda oyligimiz o'zgarmagan taqdirda ham, qo'limizga ko'proq summa tegadigan bo'ldi.

Dastlabki variantda ishchi xodimlarning ish haqidan 25 foiz ushlanma ko'zda tutilgan bo'lsa, o'zgargan tizimda bu 24 foizga tushirildi va uning ham 12 foizi ish beruvchi gardaniga yuklandi. Bu degani ish haqidan endi faqat 12 foiz ushlanma

olib qolinadi, xolos. Qolgan 12 foizni tashkilot, korxonalarning o'zi to'lab beradi.

Ish haqidan ajratmalar qanday ushlab qolinar edi?

2019 yilning 1 yanvarigacha ish haqidan daromad solig'i qo'yidagi to'rt shkala bo'yicha ushlab qolinmoqda.

Agar eng kam ish haqi yanvardan 202 730 so'm bo'lishini hisobga olsak, eski tizimda qolganida, quyidagicha ushlanmalar sodir bo'lar edi.

202 730 so'mgacha qismidan: (Daromad solig'i – 0 so'm (0 foiz)) + (Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar – 16 218 so'm (8 foiz)). Jami: 16 218 so'm.

202 730 so'mdan 1 013 650 so'mgacha qismidan. 810 920 so'mdan: 7.5 (daromad solig'i) + 8 (ijtimoiy sug'urtaga ajratma) = 15.5 foiz. Jami: 125 693 so'm.

1 013 650 so'mdan 2 027 300 so'mgacha qismidan. 1 013 650 so'mdan: 16.5 (Daromad solig'i) + 8 (ijtimoiy sug'urtaga ajratma) = 24.5 foiz. Jami: 248 344 so'm.

2 027 300 so'mdan ortiq qismidan: $22.5 + 8 = 30.5$ foiz ushlanib qolingan bo'lardi.

Mana shu formula yordamida hisoblangan ish haqi va undan ushlanmalarni qaraymiz:

Endi yangi tizim bo'yicha xuddi shu oyliklarni ko'rib chiqamiz.

Ko'rinib turibdiki, ayniqsa, kattaroq oyliklarda ish haqidan ushlanmalarning ulushi sezilardi darajada kamaygan. Masalan, o'rtacha oyiga 3 million so'm oylik hisoblanadigan xodim avvalgiga nisbatan 300 ming so'mdan ko'proq qo'shimcha sof daromadga ega bo'lmoqda.

Bu yerda ham e'tibor berish mumkin bo'lgan jihatlar bor. Masalan, avvalgi tizimda daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta ajratmalaridan tashqari, ish beruvchi ham har bir xodim uchun «Ijtimoiy soliq»ni amalga oshirishga majbur edi. Bu to'lov katta korxonalar uchun ish haqida 25 foiz, kichik biznes uchun 15 foiz etib belgilangan. Bundan tashqari, «Yagona soliq to'lovi»ning minimal stavkasi ham mavjud bo'lib, ish haqidan qat'i nazar, har bir xodim uchun 131 775 so'mdan (eng kam ish haqining 65 foizi) kam bo'lmagan miqdorda to'lov qilish lozim edi. Ya'ni, 500 ming so'm oylik hisoblanadigan xodim uchun stavka bo'yicha 15 foiz = 75 000 so'm emas, o'sha 131 775 so'mni to'lashga to'g'ri kelardi. Bu yerda oylikdan 26 foizdan ham ko'proq miqdorida «Ijtimoiy soliq» hisoblanmoqda.

Yangi tizimga ko'ra, ish beruvchining ish haqidan ajratmasi yuqorida aytilganidek, 12 foizni tashkil qiladi, xolos. Ya'ni, kichik korxonalar ham, yirik biznes vakillari uchun ham ish haqidan to'lanadigan to'lovlar foizi oldingiga nisbatan pasaymoqda.

Ish haqidan ushlanmalarning o'sib boruvchi yoki o'zgaruvchan stavkalarda emas, qat'iy stavkalarda ushlanishi bir qator qulayliklarni ham keltirib chiqarmoqda.

Birinchidan. Yil davomida ish joyini o'zgartiradigan xodim yangi ish joyiga avvalgi ish o'rnidan ish haqi va ushlanmalar bo'yicha ma'lumotlar taqdim etishi lozim bo'lardi. Chunki, daromad solig'i o'sib boruvchi yakun bilan hisoblanishi uchun, bu ma'lumotnomaga ehtiyoj sezilardi. Agar ma'lumotnoma taqdim

etilmagan taqdirda, daromad solig'ini maksimal stavkada ushlab belgilab qo'yilgandiki, bu ham yetarlicha noqulaylik keltirib chiqarardi. Endi bunday ma'lumotnoma shart emas, daromad solig'i qat'iy stavkada bo'lgani uchun, uni hisoblashda boshqa daromadlarni bilishga ehtiyoj yo'q.

Ikkinchidan, o'rindoshlik asosida ishlovchilar har yili deklaratsiya topshirishlari lozim edi. Sababi, ikki va undan ortiq joyda kamroq oylik olgan xodim har bir ish o'rnida minimal stavkada soliqqa tortilishi mumkin. Barcha daromadlar birlashtirganda esa, shkala o'zgarib ketishi va qo'shimcha soliqlar ham paydo bo'lishi mumkin. Endi, bir nechta joydan oylik olgan xodim har bir joyda bir xil – belgilangan 12 foizni to'layotgani bois, deklaratsiya to'ldirishi ham shart emas.

Uchinchidan. Avvalgi tizimda daromad soliqlarini hisoblash birmuncha murakkab bo'lib, arifmetikadan usta bo'lishingizdan tashqari, qo'shimcha ma'lumotlarga ham ega bo'lishingiz kerak edi. Eng kam ish haqi miqdori, belgilangan shkalalar, oldingi oylardagi hisoblangan oylik va ushlangan daromad solig'i, hisoblangan ta'til pullari-yu, mukofotlargacha barcha ma'lumotlarni yig'ib, ana undan keyin ma'lum bir oydagi daromad solig'ingizni hisoblashingiz mumkin bo'lardi. Buning iloji deyarli yo'qligidan, «nega bu safar kam chiqdi?», «nega uniki oshiqroq bo'lib qoldi?» qabilidagi savollar paydo bo'lar, ba'zida hisobchi yo'l qo'yadigan xatolar tufayli ham ortiqcha yoki kam to'lovlar paydo bo'lardi. Endi esa, birgina kalkulyator yordamida, hisoblangan ish haqingizdan kelib chiqib, qo'lga tegadigan summani bimalol chiqarib olishingiz osonlashdi.

Misol. Germaniya fuqarosi 2017 yilning 14 noyabrida 2 oy muddatga O'zbekistonga keldi. U 2018 yilning 14 yanvarida Germaniyaga qaytib uchib ketdi. 2018 yilning iyunida u 2018 yilning 20 iyunidan 30 oktyabrigacha O'zbekistonda ishlash uchun yangi keldi. Ishni bajarish vaqtida u shartnomani imzoladi. 20 iyunda Toshkentga ikki marta – 3 avgustdan 10 avgustgacha va 20 sentyabrdan 30 sentyabrgacha respublika hududida bo'lmagan.

Umuman olganda, xorijlik mamlakatda 2017 yilning noyabridan 2018 yilning noyabrigacha 180 kun bo'lgan, undan:

62 kun – 14 noyabrdan – 14 yanvargacha bo'lgan davr;

45 kun – 20 iyundan – 3 avgustgacha bo'lgan davr;

42 kun – 10 avgustdan – 20 sentyabrgacha bo'lgan davr;

31 kun – 30 sentyabrdan – 30 oktyabrgacha bo'lgan davr.


180 < 183 bo'lganligi bois, u soliq solish maqsadida O'zR norezidenti hisoblanadi.

Misol. O'zbekiston korxonasi xorijlik mutaxassisni ishga taklif qildi. U mehnat shartnomasi bo'yicha 3 oy ishlaydi: korxona xodimlarini o'rgatadi. Bunda xizmat haqi summasi har oyda 6 mln so'mdan 18 mln so'mni tashkil qiladi. Norezidentning daromadiga ish beruvchi korxonada 20 % lik stavka bo'yicha JShDS solinadi (Soliq kodeksining 182-moddasi). Soliq summasi har oyda 1 200 ming so'mni tashkil qiladi.

2019 yil misolida. Yanvar oyida xodim 1 400 000 so'm maosh bilan ishga qabul qilindi. Yanvarda ishlab berilgan 6 kun uchun unga 350 000 so'm (boshqa daromadlari bo'lmagan) hamda to'liq ishlangan fevral oyi uchun 1 400 000 so'm hisoblab yozilgan.

Yanvar va fevral oyi uchun xodimga hisoblangan daromadga nisbatan 210 000 ($1\,750\,000 \times 12\%$) so'm daromad solig'i hisoblanib, daromad solig'i tarkibidan 1 750 ($1\,750\,000 \times 0,1\%$) so'm ShJBPHga yo'naltiriladi.

1-masala.



2-masala.



3-masala. Jismoniy shaxsga 2019 yilning may va iyun oylarida 2700000 so'm ($1350000 + 1350000$) ish haqi hisoblangan. Jismoniy shaxsdan iyun oyida ushlanishi lozim bo'lgan *daromad solig'i summasini aniqlang?*

4-masala. O'zR Soliq Kodeksi bo'yicha har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxsga 2019 yil may oyida 1350000 so'm ish haqi hisoblangan. Jismoniy shaxsdan ushlanishi lozim bo'lgan *daromad solig'ini* aniqlang?

5-masala. Jismoniy shaxsga 2019 yil iyul va avgust oylarida 2740000 so'm (1370000+1370000) ish haqi hisoblangan. Shuningdek, iyul oyida 700000 so'm mukofot berilgan. Jismoniy shaxsdan iyul va avgust oylarida ushlanishi lozim bo'lgan soliq summasini hisoblang?

6-masala. 2 - guruh nogironiga 2019 yil avgust va sentyabr oylarida 3600000 so'm (1800000+1800000) ish haqi hisoblangan. Sentyabr oyida ushlanishi lozim bo'lgan soliq summasini hisoblang?

7-masala. Korxona hisobchisi U.Badalovga 2019 yil yanvar oyida 2850000 so'm ish haqi hisoblangan. Undan qancha miqdorda daromad solig'ini undirish lozimligini aniqlang?

VIII. Mavzu bo'yicha glossariy.

Jismoniy shaxslar daromadiga soliq to'lovchilar - Jismoniy shaxslar daromadiga soliq to'lovchilari bo'lib, moliya yilida soliqqa tortiladigan daromadga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs hisoblanadi.

Soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxslar daromadi - Soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxslar daromadi rezidentlar va norezidentlar daromadiga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti - Boshlanayotgan yoki tugayotgan moliya yilida 12 oygacha bo'lgan istalgan davrda O'zbekiston hududida 183 kun va undan ortiq yashovchi jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi rezidenti deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblangan jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasida va undan tashqaridagi manbaalardan olgan daromadlari bo'yicha daromad solig'iga tortiladi. Rezident shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan soliq summasi O'zbekiston Respublikasida soliq to'lash paytida O'zbekiston Respublikasining qonunlari va xalqaro qonunlarga binoan hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi norezidenti - Boshlanayotgan yoki tugayotgan moliya yilida 12 oygacha bo'lgan istalgan davrda O'zbekiston hududida 183 kundan kam yashovchi jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi norezidenti deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi norezidenti faqat O'zbekiston hududidan olgan daromadidan soliq to'laydi

Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi - Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi 4 guruhga bo'linadi:

- 1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;

- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

5-AMALIY MASHG'ULOT:

QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I.

Reja:

- 1.O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i joriy qilinishining iqtisodiy sabablari va ahamiyati.
- 2.Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tarkibi.
- 3.Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ekti.
- 4.Soliq ob'ektlarining tarkibi: tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sotilishi bo'yicha aylanmalari tovarlarning importi hamda O'zR hududida bajarilgan (ko'rsatilgan) ishlar (xizmatlar) importi aylanmalari.

I. Darsning maqsadi.O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i joriy qilinishining iqtisodiy sabablari va ahamiyati. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tarkibi. qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ekti. Soliq ob'ektlarining tarkibi: tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sotilishi bo'yicha aylanmalari tovarlarning importi hamda O'zR hududida bajarilgan (ko'rsatilgan) ishlar (xizmatlar) importi aylanmalari. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari. qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari. Import qilinadigan ishlar va xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash tartibini o'rganish.

II.Amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun ma'lumotlar:

1. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha:
 - 1.1. 2020 yil 1 yanvardan qo'yidagilar bekor qilinadi:
 - a) QQSni hisoblab chiqish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi.
- Bunda, soliq to'lovchilar QQSni hisoblab chiqish va to'lashning soddalashtirilgan tartibidan umumbelgilangan tartibga o'tganda, ular 2020 yil 1 yanvar holatidagi tovar-moddiy zahira qoldiqlari bo'yicha QQS summasini hisobga olishi mumkin.

Masalan, 2019 yilda soddalashtirilgan tartibda QQSni to'lovchi korxona 2020 yilda 15 foizlik stavkada to'lovchi bo'ladi. 2020 yilning 1 yanvar holatiga korxonaning balansida qo'yidagilar mavjud: QQS bilan sotib olingan 100 mln.so'mlik tovar-moddiy zahiralari.

Shu jumladan, ohirgi 12 oyda sotib olingan tovar-moddiy zahiralari, ya'ni 2019 yilning 1 yanvaridan 31 dekabrigacha 80 mln.so'mni tashkil etadi;

QQS bilan sotib olingan qoldiq qiymati 200 mln. so'mlik asosiy vositalar. Shu jumladan, 2019 yilda sotib olingan asosiy vositalar qoldiq qiymati 50 mln. so'mni tashkil etadi;

300 mln.so'mlik qurilishi tugallanmagan ob'ekt, shu jumladan 2019 yilda mazkur qiymatga kiritilgan QQS bilan sotib olingan tovar va xizmatlar 150 mln.so'mni tashkil etadi.

2020 yil 1 yanvar holatiga korxona quyidagilarga to'g'ri keladigan QQS summasini hisobga olishi mumkin:

80 mln. so'mlik tovar-moddiy zahiralari qoldiqlari;

50 mln. so'mlik qoldiq qiymat bilan asosiy vositalari;

150 mln.so'mlik qurilishi tugallanmagan ob'ekt qiymatiga kiritilgan tovar va xizmatlari.

Bunda QQS summasi tovar-moddiy boyliklar va xizmatlar sotib olinganda mol yetkazib beruchilar tomonidan ko'rsatilgan stavkaga muvofiq ular qiymatini kamaytiradi.

b) aylanmadan soliq to'lovchilarning QQSni ixtiyoriy ravishda to'lash imkoniyati.

Qo'yidagilar tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromad miqdori ko'rsatkichidan qat'i nazar QQS to'laydilar:

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tuvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;

aksiz osti tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi va (yoki) foydali qazilmalarni qazib oluvchi yuridik shaxslar;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar – ularda 50 gektar va undan ko'p bo'lgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari mavjud bo'lganda;

benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qiluvchi yuridik shaxslar;

lotereyani tashkil etish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha – oddiy shirkatning ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs – oddiy shirkatning ishtirokchisi;

vakolatli organning xulosasi chiqarilgan tugallanmagan ishlab chiqarish ob'ektlari va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdorlari bo'lgan yuridik shaxslar;

markazlashtirilgan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan ob'ektlarni qurilishini (joriy va mukammal ta'mirlashdan tashqari) bajaruvchi yuridik shaxslar.

2020 yil 1 yanvardan quyidagilar QQS to'lovchilari hisoblanadi:

chet el yuridik shaxslarning doimiy muassasalari (tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromad miqdoridan qat'iy nazar). Doimiy muassasalar ham 2020 yil 1 yanvar holatiga tovar-moddiy boyliklar qoldig'i bo'yicha QQS summasini hisobga olishi mumkin;

O'zbekiston hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi chet ellik yuridik shaxslar, agar bu tovarlarni (xizmatlarni) sotish joyi O'zbekiston hisoblansa.

QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tish kodini olish uchun, 2020 yil 1 yanvardan QQSga o'tish bo'yicha majburiyati vujudga kelgan soliq to'lovchilarga

2020 yilning 10 yanvariga qadar QQSga o'tish bo'yicha tegishli arizani berish tavsiya etiladi.

Soliq agentlari tomonidan QQS to'lash tartibi kiritilmoqda.

Bu holatda QQS to'lash soliq agenti va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi shaxsning tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan olingan daromadi miqdoridan qat'i nazar amalga oshiriladi.

QQS to'lash maqsadida soliq agenti deb quyidagilar tan olinadi:

a) davlat mulkini ijaraga berish bo'yicha vakolatli organ – O'zbekiston Respublikasi hududida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulkini ijaraga berganda.

Soliq agenti shartnomada belgilangan ijara to'lovi summasidan QQSni ushlab qolish va byudjetga o'tkazib berishga majbur. Binobarin, davlat mulkini ijaraga berish bo'yicha vakolatli organ shartnomada QQS summasini ko'zda tutishi lozim. QQS to'lovchilari bu shartnomalar bo'yicha soliq summasini Soliq kodeksida belgilangan tartibda hisobga oladilar;

b) yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar – QQS to'lovchisi sifatida O'zbekiston Respublikasi soliq organlarida hisobga turmagan chet ellik shaxslardan tovarlar (xizmatlarni) sotib olganda.

Topshiriq, vositachilik shartnomalari yoki boshqa vositachilik shartnomalari asosida chet ellik shaxslar tomonidan tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasi amalga oshirilganda, soliq agenti deb vositachi yoki ishonchli vakil tan olinadi.

Xizmatlarni realizatsiya qilish joyini aniqlash va ularga QQS solish tartibi kayta ko'rib chiqilgan. Jumladan, realizatsiya joyi O'zbekiston Respublikasi deb tan olinmagan xizmatlarni ko'rsatish endilikda soliqqa tortilmaydigan oborot sifatida qaralmaydi.

Realizatsiya joyi O'zbekiston Respublikasi deb tan olinmagan xizmatlarni ko'rsatuvchi xujalik sub'ektlari haqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha to'langan (to'lanishi lozim bo'lgan) QQSni hisobga olish huquqiga ega.

Yangi tartibga muvofiq soliqqa tortilmaydigan oborotlar deb fakat soliqqa tortishdan ozod etilgan oborotlar tan olinadi.

Xizmatlarni realizatsiya qilish joyini aniqlashda xizmatni oluvchi shaxsning o'z faoliyatini amalga oshirish joyi ustuvor printsip hisoblanadi.

Agar, xizmatni oluvchi shaxs O'zbekiston Respublikasi faoliyatini amalga oshirsa, mazkur xizmatlarni realizatsiya joyi O'zbekiston Respublikasi hisoblanadi.

Soliq kodeksining 239-moddasi uchinchi qismi 1-10-bandlarida ko'zda tutilgan xizmatlarni realizatsiya qilish joyi ularning oluvchilari O'zbekiston Respublikasida faoliyatini amalga oshirsa, agar mazkur xizmatlar O'zbekiston Respublikasining tashqarisida ko'rsatilsa, O'zbekiston Respublikasi hisoblanmaydi.

Shunga muvofiq, mazkur tartib doirasida xizmatlar eksportini amalga oshirishda (Soliq kodeksining 239-moddasi uchinchi qismi 1-10-bandlarida ko'zda tutilgan xizmatlar bundan mustasno) realizatsiya joyi O'zbekiston Respublikasi hisoblanmaydi va O'zbekiston Respublikasida QQSga tortilmaydi.

Shu bilan birga, mazkur xizmatlar realizatsiyasi bo'yicha oborot soliqqa tortiladigan oborot deb tan olinadi va soliq to'lovchilar sotib olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha QQS summasini hisobga olish huquqiga ega.

Tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasi bo'yicha oborotlar ro'yxati optimallashtirilmoqda. Jumladan, iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan tovarlarni (xizmatlarni) bepul berish tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasi bo'yicha oborot deb hisoblanmaydi va QQSga tortilmaydi.

Shu bilan birga, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha ulush sifatida tovarlarni (xizmatlarni) berish, shuningdek ularni ta'sischi yoki oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha ishtirokchilar tarkibidan chiqqanda berish, birlamchi ulush miqdoridan qat'i nazar, QQSga tortiladi.

Ular bo'yicha oborot QQSdan ozod etiladigan operatsiyalarning ro'yxati qisqartirilgan.

Jumladan, 2020 yil 1 apreldan qo'yidagi tovarlarga (xizmatlarga) imtiyozlar bekor qilinadi:

a) bosma mahsulotlari, grant hisobidan sotib olinadigan tovarlar, davlat zaxirasining tovar-moddiy zaxiralari ularni yangilanishida, investor va davlat mulklarni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida to'zilgan shartnomaga muvofiq investitsion majburiyat sifatida mulklar o'tkazilganda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bo'yicha tijorat banklarining o'z hisobidan qo'rilgan ko'chmas mulk ob'ektlari;

b) havo kemalariga xizmat ko'rsatish, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati, turistik xizmatlar, grant hisobidan olingan xizmatlar, davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o'rgatish xizmatlari, davlat mulkini ijara berishdan xizmatlar, ommaviy axborot vositalari va kitob mahsulotlarini yetkazish bo'yicha xizmatlar, qat'iy miqdorda belgilangan tarif bo'yicha moliyaviy xizmatlar.

Havo kemalariga xizmat ko'rsatish yuzasidan bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati 2020 yil 1 yanvardan nol stavkasida QQSga tortiladi.

Xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha imtiyoz qarz bitimida ko'zda tutilgan bo'lsa, qo'llaniladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) hisobiga yuridik shaxslar oladigan, shuningdek grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan ma'qullangan loyihalar doirasida 2020 yil 1 iyulgacha QQS va aksiz solig'iga tortilmaydi.

Bunda 2020 yil 1 yanvardan boshlab qo'yidagi yangi imtiyozlar kiritilmoqda:

a) ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat bo'lgan hamda nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining kamida 50 foizini tashkil

etadigan, yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinadigan tovarlar va xizmatlar

b) tovarlarni (xizmatlarni), agar tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bepul amalga oshirilsa;

v) qimmatbaho metallardan ishlangan bank va o'lchovli quymalarini, qimmatbaho metallardan ishlangan quyma (investitsiya) tangalarni (numizmatika maqsadlari uchun foydalaniladigan tangalardan, shuningdek qimmatbaho metallardan ishlangan chet el tangalaridan tashqari), zargarlik buyumlar;

g) byudjet mablag'lari hisobidan har yillik mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida ko'rsatiladigan geologiya xizmatlari.

Realizatsiya qilinadigan tovarlar (xizmatlar) shu jumladan ularni tekin berishda tannarxga bog'langan QQS bo'yicha soliq solinadigan bazani aniqlashning eskirgan usullari bekor qilinmoqda. Buning o'rniga, ularning bozor qiymati bo'yicha soliq solish nazarda tutilmoqda.

Bunda, tovarlar (xizmatlar) tekinga berish, agar bunday o'tkazib berish iqtisodiy jihatdan asoslantirilgan bo'lsa, tovarlarni tekin berish (xizmatlar ko'rsatish) soliqqa tortiladigan aylanma sifatida qaralmaydi.

Lizing operatsiyalari uchun soliq solinadigan bazani aniqlash tartibi saqlanib qolinmoqda, unga muvofiq Soliq kodeksining 246-moddasiga binoan soliq solishdan ozod qilingan texnologik uskunalar (uskunalar) moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda, soliq solinadigan baza ushbu uskunani sotib olish narxi va sotish bahosi o'rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqqan holda aniqlanishi tartibi saqlanib qolinmoqda.

Soliq kodeksida QQSning nol stavkasini qo'llash bo'yicha xalqaro huquqni implementatsiya qilish nazarda tutilmoqda. Masalan, diplomatik korpus va uning xodimlari rasmiy foydalanish uchun tovarlar (xizmatlar) sotib olishda to'langan QQSni qaytarib olish imkoniyatiga ega.

Uzoq muddatli aktivlar bo'yicha bir martalik hisobga olish, ya'ni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uzoq muddatli aktivlar bo'yicha ularni sotib olishda QQSni aylanma mablag'lardan foydalanishni cheklovchi 12 va 36 oylik davrlarga ajratmasdan, to'liq hisobga olishi mumkin.

Bunda, sotib olingan uzoq muddatli aktivlar bo'yicha hisobga olinmagan va 2020 yil 1 yanvardan 4410 "Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha avans to'lovlari (turlari bo'yicha)" debeti bo'yicha QQS summasi 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzarlar (turlar bo'yicha)" debetiga to'liq hisobga olinadi. Ushbu qoida faqat 2019 yilda sotib olingan uzoq muddatli aktivlarga nisbatan qo'llaniladi (QQS bo'yicha hisobga olish huquqi 2019 yil 1 yanvardan keyin berilgan).

QQS to'lovchilari toifasiga o'tganda, shuningdek soliq imtiyozlari bekor qilingan taqdirda, soliq to'lovchi QQS miqdorini faqat so'nggi 12 oy ichida sotib olingan TMZ qoldiqlariga hisobga olish huquqiga ega bo'ladi. Uzoq muddatli

aktivlar bo'yicha QQS, soliq qiymatini o'z ichiga olgan qayta baholashni hisobga olmaganda, ularning balans (qoldiq) qiymatiga qarab belgilanadi.

Masalan, 2019 yilda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan daromadning cheklangan miqdorini oshirgan soliq to'lovchi 2020 yil 1 yanvardan boshlab QQS to'lashga o'tadi.

2020 yil 1 yanvar holatiga ko'ra ushbu soliq to'lovchining omborida 1,4 milliard so'mlik tovarlar zahiralari mavjud, ulardan 233,3 million so'm QQS qiymatiga to'g'ri keladi.

Ushbu qoldiqlarning 600 million so'mlik qismi (shu jumladan, 100 million so'mlik QQS) 2017 yilda sotib olingan, qolgan 800 million so'm (QQS bilan 133,3 million so'm) 2019 yil mart oyida sotib olingan.

Yangi qoidalarga ko'ra, ushbu soliq to'lovchi 2020 yil 1 yanvardan boshlab QQS to'lashga o'tishda, 2019 yilda sotib olingan qoldiqlarga to'g'ri keladigan 133,3 million so'm soliqni hisobga olishi mumkin (ya'ni oxirgi 12 oy ichida).

QQS hisobga olishni qo'llash sharti - QQS to'lovchisi sifatida tegishli ro'yxatdan o'tkazish maxsus hisobga olish raqamini olish saqlanib qolinadi.

Bunda, soliq to'lovchilar tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun sotib olinmagan tovarlar bo'yicha hisobga olishlari mumkin emas, xususan:

engil avtomobillar, mototsikllar, vertolyotlar, motorli kemalar, samolyotlar, shuningdek boshqa turdagi avtotransport vositalari va ular uchun yoqilg'i; alkogol va tamaki mahsulotlari.

Hisobga olishga shuningdek, vakillik xarajatlariga to'g'ri keladigan QQS summaları kiritilmaydi.

QQS stavkalari 15 foiz va nol stavkada saqlanib qolinadi.

Soliq davri bir oy. 2020 yildan boshlab QQS bo'yicha soliq hisobotlari soliq organlariga ortib bormaydigan yakun bilan taqdim etiladi.

Soliq hisobotini taqdim etish va QQS to'lash har oyda - o'tgan soliq davridan keyingi oyning 20-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq agentlari ham shu muddatlardasoliq hisobotlarini taqdim etadilar va soliqni to'laydilar.

Ortiqcha QQSni qaytarish nafaqat nol stavka bo'yicha soliq solinadigan oborotlar uchun, balki QQSning umumiy qoidalarini qo'llash natijasida yuzaga kelgan operatsiyalar uchun ham joriy etiladi. Bunda, umumbelgilangan tartibda qaytarish muddati 60 kunni tashkil qiladi.

Hisobga olingan QQS summasining hisoblangan soliq summasidan oshib ketishi natijasida kelib chiqqan QQS miqdorini qaytarish 2020 yil 1 iyuldan boshlab amalga oshiriladi (ushbu qoida QQS bo'yicha nol stavkani qo'llagan soliq to'lovchilarga nisbatan qo'llanilmaydi).

Soliq to'lovchilarning alohida toifasi uchun QQSni qaytarishning 7 kun ichida tezlashtirilgan tartibi taqdim etiladi (yirik soliq to'lovchilar, eksport qiluvchilar, bank kafolatini taqdim etgan soliq to'lovchilar, xorijiy diplomatik vakolatxonalar, mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitim qatnashchilari, soliq monitoringi ishtirokchilari).

Shu bilan birga, xorijiy diplomatik vakolatxonalar va mahsulot taqsimotiga oid bitim taraflari (shartnomada shunday shartlarni hisobga olgan holda) tomonidan sotib olingan tovarlar (xizmatlar) QQS bilan realizatsiya qilinadi, keyinchalik ular xaridor tomonidan qaytariladi.

Bunda, QQS ni qaytarish xorijiy diplomatik vakolatxonalarga va mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitimning tomonlariga (shartnomada shunday shartlarni hisobga olgan holda) 2020 yilda sotib olingan tovarlar (xizmatlar) uchun 2020 yil 1 yanvardan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarga chet el kompaniyalar tomonidan taqdim etiladigan elektron xizmatlarga soliq solish tartibi joriy etilmoqda.

Agar elektron xizmatlar vositachilarni jalb qilgan holda chet el kompaniyalar tomonidan amalga oshirilsa, jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradigan chet el kompaniyalarining vositachilariga QQS bo'yicha soliq majburiyati yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxslariga va O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasalar orqali faoliyat ko'rsatuvchi yuridik shaxslari bo'lgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlariga elektron xizmatlarni taqdim etishda QQS bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi shunday xizmatlarni sotib oluvchilarga yuklatiladi.

Soliq solinadigan baza - realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati hisoblanadi. *(SK-204-moddasi)*

Soliq solinadigan baza ayrim hollarda:

- tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan, yoki tekinga berilganda - tovarlarning tannarxi yoki xarid narxi;
- import qilingan tovarlar bo'yicha tovarlar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lmagan qiymati;
- Asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni va qurilishi tugallanmagan ob'ektlarni realizatsiya qilish chog'ida, agar ushbu moddaning o'n uchinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq solinadigan baza ularni realizatsiya qilish qiymati asosida, biroq ularning qoldiq (balans) qiymatidan kam bo'lmagan, qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda aniqlanadi; *(2019 yil 1 yanvardan)*
- Mol-mulkni moliyaviy ijaraga, shu jumladan lizingga berish chog'ida soliq solinadigan baza chiqib ketayotgan aktiv qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda aniqlanadi. Bunda chiqib ketayotgan aktivning qiymati summa sifatida belgilanadi, unga ko'ra moliyaviy ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi

qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan aktiv sifatida tan olinadi. (2019 yil 1 yanvardan)

- Aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilishda soliq solinadigan bazaga aksiz solig'ining summasi ham kiritiladi. Bunda, benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda soliq solinadigan baza ularni realizatsiya qilish qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'i hamda benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilish chog'ida to'lanadigan aksiz solig'i kiritilmagan holda aniqlanadi. (2019 yil 1 yanvardan) **Tovarlar import qilinganda soliq solinadigan baza** tovarlarning bojxona qiymati asosida unga tovarlarni import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'i va bojxona bojarining summalarini qo'shgan holda aniqlanadi. (SK-206-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi norezidentlaridan import qilingan ish va xizmatlarga ushbu xizmatlarni oluvchisida soliq solinadi. (SK-207-moddasi)

Mazkur normani qo'llash maqsadida, realizatsiya qilish joyi O'zbekiston hududi bo'lishi kerak.

Soliq solinadigan baza ushbu ishlar, xizmatlarni oluvchisida norezident tomonidan ko'rsatilgan ishlar va xizmatlarning qiymatidan kelib chiqib aniqlanadi.

Imtiyozlar

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 208, 209, 210-moddalari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

Respublikamizda qo'shilgan qiymat solig'ining amaldagi stavkalari:

Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha QQS soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan QQS soliq solinadigan oborot bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan Soliq kodeksining 218-moddasiga muvofiq hisobga olinadigan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

$$\text{QQSB.T} = \text{QQSs.o} - \text{QQSh.o}$$

Bu yerda:

QQSB.T- byudjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

QQSs.o- soliqqa tortiladigan oborotlar bo'yicha hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasi (*iste'molchilardan*);

QQSh.o- hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi (*yetkazib beruvchilardan*).

Tovarlarni import qilish bo'yicha QQS summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi. (SK-224-moddasi)

- Masalan, korxona taburetni ishlab chiqaradi va sotadi:



Sotish narxi = 100 ming so'm (QQSsiz). Sotib oluvchiga esa bu taburetka 100 ming so'm + 20 ming so'm (20 % QQS) = 120 ming so'mga aylanadi.

Lekin, korxona mazkur taburetkani ishlab chiqarish uchun taxta, lak va mixdan foydalanilgan



(50 ming s + 10 ming s)

+



(15 ming s + 3 ming s)

+



(5 ming s + 1 ming s)

=



= 70 ming s + 14 ming s

Ish xaqi va boshqa xarajatlarni hisobga olmagan holda bir taburetkani tannarxi

Endi esa, mazkur raqamlarni formulaga qo'yib, byudjetga to'lanadigan QQS summasini aniqlaymiz:

QQS byudjetga to'lanadigan = 20 m.s. - 14 m.s. = 6 ming so'm

4410		6410	
14 m.c.	14 m.c.	14 m.c.	20 m.c.
			6 m.c.

Umumiy qoida: Realizatsiya x 15 %

Tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilinsa: Tannarx x 15 %

Tannarxidan past narxlarda eksportga realizatsiya qilinsa:

Eksportga haqiqiy realizatsiya x 0 %

Bajarilgan qurilish ishlari bo'yicha:

Bajarilgan ish hajmi x 15 %

Aksizosti tovar realizatsiya qilinganda:

(tovar qiymati + aksiz solig'i) x 15 %

Tovar import qilinayotganda:

(tovarning bojxona qiymati + bojxona boji + aksiz solig'i) x 15 %

Import qilingan tovarlar realizatsiyasi bo'yicha:


Soliq hisoblash uchun baza $\geq$ bojxona to'lovlarini hisoblash uchun baza

Narxi davlat tomonidan belgilanadigan tovar (ish, xizmatlar) bo'yicha:

realizatsiya qiymati / 120 x 15

III. Darsda qo'laniladigan grafik organayzerlar.

Quyidagi jadvaldagi qo'shilgan qiymat solig'i ob'ektlarini bo'sh kataklarni to'ldiring.



IV. Foydalanishqa tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. “O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi” (2020 yil 1-yanvar amalga kiritilgan) T – 2019 y.
2. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo`rayev. – T.: “Sharq” nashryoti – 2009 y. – 400 b.
3. Yuldashev A. “Soliq va soliqqa tortish”. O`quv qo`llanma. T.: “Fan va texnologiya”. 2007 y. 128 b.
4. Александров И. Налоги и налогообложения. Учебник. М. “Дашков и К” 2006 г. С.312.
5. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O`quv qo`llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 282 b.
6. Jo`raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo`llari. T. “Fan” 2004 y. 387 b.
7. Jo`raev A. “Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O`quv qo`llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 120 b.
8. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. . T. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2005 y. 544 b.
9. Malikov T. “Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari”. T. Akademiya. 2002 y. 253 b.
10. O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi. “2019 yilda soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o`zgarishlar yuzasidan o`quv qo`llanma”. T. 2019 y.

V. Mavzu bo`yicha nazorat savollari.

1. Qo`shilgan qiymat va qo`shilgan qiymat solig`ininng iqtisodiy mohiyati nimada?
2. QQSni qanday shaxslar to`laydi va soliq ob`ekti nima?

3. Soliqqa tortiladigan oborot qanday aniqlanadi?
4. QQS stavkalari va ularni qo'llash tartibi qanday?
5. Qanday yuridik shaxslar QQSdan ozod etiladi?
6. Qanday tovarlar va mahsulotlar (ishlar xizmatlar) QQSdan ozod bo'ladi?
7. Schyot-fakturalar qanday tulgaziladi va unda QQS qaysi punktlarda ko'rsatiladi?
8. Byujetga to'lanadigan va hisobga olinadigan QQS summasini aniqlash tartibi qanday?
9. QQSni to'lash va hisobotni taqdim etish tartibi qanday?
10. Import tovarlar, ishlar va xizmatlar bo'yicha QQSni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi qanday?
11. Evropa davlatlari amaliyotida QQSni hisoblashning qanday usullari mavjud?

VI. Mavzu yuzasidan test savollari.

1. Qo'shilgan qiymat solig'ini ob'ekti ko'rsating.

- A) soliq solinadigan oborot, soliq solinadigan import
- B) O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari
- C) O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari
- D) Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari ob'ektdir

2. Qo'shilgan qiymat solig'ida soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotidan qanday imtiyozlar mavjud emas?

- A) tovarni realizatsiya qiluvchi yuridik shaxslar
- B) maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar
- C) bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar
- D) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari

3. Qo'shilgan qiymat solig'ida soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlarda qanday imtiyozlar mavjud emas?

- A) tovarni realizatsiya qiluvchi yuridik shaxslar
- B) akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko'rsatish
- C) kliring operatsiyalari
- D) pul mablag'larini konvertatsiya qilish bo'yicha operatsiyalar

4. Qo'shilgan qiymat solig'ida soliqdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlarida qanday imtiyozlar mavjud emas?

- A) tovarni realizatsiya qiluvchi yuridik shaxslar
- B) sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar

- C) hayotni sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar
- D) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari

5. Qo'shilgan qiymat solig'ida soliqdan ozod qilinadigan importda qanday imtiyozlar mavjud emas?

- A) tovarni realizatsiya qiluvchi yuridik shaxslar
- B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar
- C) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan hayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar
- D) qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan yog'och-taxta materiallari va yog'och

6. Qo'shilgan qiymat solig'ida soliqdan ozod qilinadigan qanday imtiyoz guruhlari mavjud emas?

- A) Soliqdan ozod qilinadigan avtotexnik xizmatlar
- B) Soliqdan ozod qilinadigan import
- C) Soliqdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlar
- D) Soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar

7. Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkalarini toping.

- A) 15 % va nol darajali stavka
- B) 45 %,
- C) 100 % va yuz darajali stavka
- D) 55 %

8. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanmasiga bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasini toping.

- A) 15 foizli
- B) 40 foizli
- C) 60 foizli
- D) 80 foizli

9. Tovarlarini chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilinsa, qanday stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi?

- A) nol darajali stavka
- B) 20 foizli
- C) 40 foizli
- D) 60 foizli

10. Suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga, qanday stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi?

- A) nol darajali stavka
- B) 20 foizli
- C) 40 foizli
- D) 60 foizli

11. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq davrini toping.

- A) Kalendar yil soliq davridir.
- B) Besh yil soliq davridir.
- C) O'n yil soliq davridir.
- D) Yigirma yil soliq davridir.

12. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobot davrini toping.

- A) Yil oyi hisobot davridir.
- B) Kalendar yil hisobot davridir.
- C) Besh yil hisobot davridir.
- D) O'n yil hisobot davridir.

13. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash har oyda keyingi oyning nechanchi kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi?

- A) keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay
- B) keyingi oyning 12-kunidan kechiktirmay
- C) keyingi oyning 27-kunidan kechiktirmay
- D) keyingi oyning 8-kunidan kechiktirmay

14. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida soliq davri ko'rsating.

- A) Kalendar yil soliq davridir.
- B) Besh yil soliq davridir.
- C) O'n yil soliq davridir.
- D) Yigirma yil soliq davridir.

15. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida hisobot davri ko'rsating.

- A) hisobot davri bir oy hisoblanadi
- B) hisobot davri o'n bir oy hisoblanadi
- C) hisobot davri o'n bir yarim oy hisoblanadi
- D) soddalashtirilgan tartibi doirasida hisobot davri mavjud emas

VII. Mavzu bo'yicha masalalar.

Misol: Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan ishlab chiqarish korxonasining omborida 2020 yil 1 yanvar holatiga 12 000 000 (QQS bilan) so'mlik materiallar qoldig'i, tannarxi 90 000 000 so'mlik tayyor mahsulot qoldig'i mavjud. Tayyor mahsulotning tannarxida 36 000 000 (QQS bilan) so'mlik sarflangan materiallar va QQS to'lovchisi bo'lgan boshqa korxonadan 15 000 000 (QQS bilan) so'mlik olingan ish xizmatlari mavjud.

Shuningdek ushbu sub'ekt tomonidan 2020 yil yanvar oyi davomida 100 0000 000 so'mlik tovarlar realizatsiya qilingan va 20 000 000 so'm qo'shilgan qiymat solig'i hisoblangan va mol yetkazib beruvchilardan 30 000 000 so'mlik materiallar qo'shilgan qiymat solig'i bilan sotib olingan.

Yechimi: Bunday holatda hisobga olinadigan QQS summasi materiallar qoldig'i bo'yicha 2 000 000 so'mni, tayyor mahsulotlar qoldig'i bo'yicha 8 500 000 so'mni (material bo'yicha 6 000 000 so'm va olingan ishlar bo'yicha 2 500 000 so'm) hamda yanvar oyi davomida harid qilingan materiallar bo'yicha 5 000 000 so'mni, jami 15 500 000 so'mni tashkil qiladi.

Misol: paxtani qayta ishlash korxonasi paxta tolasini (120 so'mga, shu jumladan 20 so'm QQS bilan) kalava ip ishlab chiqaradigan korxonaga sotadi.

Kalava ip ishlab chiqaradigan korxona paxta tolasidan kalava ipni ishlab chiqaradi va unga 50 so'mlik xarajatlari hamda ustamasini qo'shib 15% QQS hisoblagan holda to'qimachi korxonaga jami 180 so'mga (shundan QQS summasi 30 so'm) realizatsiya qiladi. Bunda, kalava ip ishlab chiqaradigan korxona paxtani qayta ishlash korxonasiga to'lab bergan 20 so'mlik QQS summasini kalava ip tannarxiga obormasdan hisobga oladi.

To'qimachi korxona kalava ipdan mato to'qiydi va unga 50 so'mlik xarajatlari hamda ustamani qo'shib 15 % QQS hisoblagan holda ko'ylak tikuvchi korxonaga jami 240 so'mga (shundan QQS summasi 40 so'm) realizatsiya qiladi. Bunda, kalava ip ishlab chiqaradigan korxonaga to'lab berilgan 30 so'm QQS summasi mato tannarxiga obormasdan hisobga oladi.

Ko'ylak tikuvchi korxona matodan ko'ylak tikadi va unga 50 so'mlik xarajatlari hamda ustamasini qo'shib 15 % QQS hisoblagan holda oxirgi iste'molchiga jami 300 so'mga (shundan QQS summasi 50 so'm) realizatsiya qiladi. Bunda, to'qimachi korxonaga to'lab berilgan 40 so'm QQS summasi ko'ylak tannarxiga obormasdan hisobga oladi.

Yechimi: Demak QQSni hisobga olish orqali byudjetga jami 50 so'm QQS to'lanadi, shundan paxtani qayta ishlash korxonasi – 20 so'm, kalava ip ishlab chiqaradigan korxona – 10 so'm (30 so'm – 20 so'm), to'qimachi korxona – 10 so'm (40 so'm – 30 so'm) va ko'ylak tikuvchi korxona – 10 so'm to'laydi (50 so'm – 40 so'm).

Endi esa, shu korxonalarning biri QQS to'lovchisi hisoblanmasa o'rtadagi zanjir uziladi va hisobga olinadigan QQS summasi “yo'qolib qoladi”. Natijada ohirgi mahsulotning, ya'ni ko'ylakning narxi oshib ketadi.

Misol uchun, biz ko'rib chiqqan zanjirda mato to'qiydigan korxona QQS to'lovchisi hisoblanmasin.

Bunda, to'qimachi korxona olgan kalava ip uchun to'lab berilgan 170 so'mni (QQS hisobga olingan holda) jami xarajatlariga qo'shadi va tashkil topgan qiymatga (170 so'm plus 50 so'm boshqa xarajat va ustamasi, jami 220 so'm) 15 foiz QQS hisoblab, ko'ylak tikuvchi korxonaga jami 264 so'mga (shundan QQS summasi 44 so'm) realizatsiya qiladi.

Ko'ylak tikuvchi korxona matodan ko'ylak tikadi va unga 50 so'mlik xarajatlari hamda ustamasini qo'shib 20 foiz QQS hisoblagan holda oxirgi iste'molchiga jami 324 so'mga (shundan QQS summasi 54 so'm) realizatsiya qiladi. Bunda, to'qimachi korxonaga to'lab berilgan 44 so'm QQS summasi ko'ylak tannarxiga obormasdan hisobga oladi.

Bundan ko'rib turibdiki, yuqoridagi ishlab chiqarish zanjirida atigi bitta bo'g'ini uzilishi yakuniy tayyor mahsulot hisoblangan ko'ylakni ohirgi iste'molchiga sotish narxini 24 so'mga o'sishiga olib kelmoqda.

Aslida esa, ishlab chiqarish tarmog'ida bunday bo'g'inlar soni va bo'g'inlarning uzilishi holatlari biz ko'rib chiqqan misolga nisbatan ancha ko'proq uchrashi mumkin. Bu esa mahsulotning tannarxi oshishiga hamda korxonaning foydasi kamayishiga olib kelishi muqarrardir.

1-masala. Quyidagi ma'lumotlarga asosan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang (ming so'm).

1. Hisobot davrida xarid qilingan xom-ashyo va materillar – 65000
2. Hisobot davrida jo'natilgan tovarlar qiymati – 132000

2-masala. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan qayta ishlash korxonasi joriy yilda quyidagi ko'rsatkichlarga ega:

- mahsulotni sotishdan tushgan tushum – 14000 ming so'm;
- bunda qaytarib berilishi lozim bo'lgan idishning narxi – 2500 ming so'm;
- tekinga tannarxi bo'yicha 1200 ming so'mlik mahsulot berilgan.
- Olingan jarima summasi – 250ming so'm;
- Bankdan olingan foizlar – 100ming so'm;
- 3000 ming so'm korxona tomonidan nomoddiy aktivlar sotilgan (boshlang'ich narxi – 5000 ming so'm, to'plangan amortizatsiya – 3200 ming so'm);

- noliqvid xom-ashyo zahiralari sotishdan tushgan tushum – 870 ming so'm, ularning tannarxi – 750 ming so'm;

Hisobvara-q-fakturada olingan qo'shilgan qiymat solig'i

- xom ashyo uchun – 3200 ming so'm;
- ishlab chiqarish inshootlarini ijaraga berishdan – 1500 ming so'm;
- uyali aloqadan – 700 ming so'm;

Aniqlang:

Joriy davrda davlat byudjetiga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i necha so'mga teng?

3-masala. Quyidagi ma'lumotlarga asosan *qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang* (ming so'm).

1. Hisobot davrida xarid qilingan xom-ashyo va materillar - 25000
2. Xarid qilingan asosiy vositalar - 45000
3. Hisobot davrida jo'natilgan tovarlar qiymati - 130000
4. Asosiy vositalar realizatsiyasi -9000
5. Asosiy vositalarning eskirish qiymati -4000

4-masala.Quyidagi ma'lumotlarga asosan *qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang* (ming so'm).

1. Hisobot davrida xarid qilingan xom-ashyo va materillar– 22200
 2. Hisobot davrida jo'natilgan tovarlar qiymati qo'shilgan qiymat solig'i bilan – 45000
- shundan, eksport – 25000.

5-masala. Quyidagi ma'lumotlarga asosan *qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang* (ming so'm).

1. Hisobot davrida xarid qilingan xom-ashyo va materillar– 25000
 2. Hisobot davrida jo'natilgan tovarlar qiymati – 37000
- shundan, erkin almashtiriladigan valyutaga eksport– 18000

VIII. Mavzu bo'yicha glossariy.

Qo'shilgan qiymat solig'i - Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar, ishlar va xizmatlar ustiga qo'yilganligi uchun egri soliqlar qatoriga kiradi. Bunday qaraganda uning to'lovchilari mahsulot ishlab chiqaruvchi, ish va xizmatlarni bajaruvchi korxona, tashkilot, birlashmadek tuyuladi. Ana shu korxonalar soliqni huquqiy to'lovchilari bo'ladilar. Soliq idoralari soliqni o'z vaqtida va to'liq byudjetga o'tkazishni ulardan talab qiladilar. Aslida esa mazkur korxona, tashkilot va birlashmalar qo'shilgan qiymat solig'ini mahsulot, ish, xizmatni sotib oluvchi korxona, tashkilot va birlashmalar sotib olgan mahsulot, ish, xizmat ustiga quyib

yuboradilar. Demak, soliqni haqiqiy to'lovchilari shu mahsulot, ish va xizmatni iste'mol qiluvchi korxonalardir. Ularning oxirgi qiymati chakana savdo orqali aholiga etib boradi va oxirgi iste'molchilar bo'ladi. Amaliyotda O'zbekiston Respublikasining soliqlar haqidagi qonunlariga binoan, hisobot davri (oyi) uchun realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun hisoblab chiqarilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bilan qiymati ishlab chiqarish va muomala harajatlari (masalan, materiallar, xom ashyo, butlovchi buyumlar, Yoqilg'ini etqazib bergan ta'minotchilarga to'langan xaq)ga qo'shiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq solish ob'ekti - Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan ob'ekt bo'ladi O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunlariga binoan belgilangan bojxona rejimlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlar (shu jumladan MDH mamlakatlaridan import qilinadigan tovarlar) hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin. Agar soliq stavkasini R deb olsak, u holda soliqni hisoblash formulasi quyidagicha bo'ladi:

$R(v+m)=QQS$, bu yerda $(v+m)$ -qo'shilgan qiymat

$Rv+Rm=QQS$, qo'shilgan qiymat $(v+m)$, m -ishhaqi va v -foydadan iborat

$R(B-I)=QQS$, bu yerda V -daromad, I -xarajat

$RV-RI=QQS$ yoki quyidagicha yozish mumkin,

$QQS_{daromadlar} bo'yicha - QQS_{xarajatlar} bo'yicha = QQS_{byudjetga}$

Soliq stavkalari - Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i 20 (yigirma) foiz stavkasi bo'yicha to'lanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash muddatlari - qo'shilgan qiymat solig'i tanlangan bojxona rejimi shartlariga muvofiq, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqariladi va to'lanadi.

Xalqaro amaliyotga ko'ra QQS byudjetga to'lanadigan summasini aniqlash - Xalqaro amaliyotga ko'ra QQS byudjetga to'lanadigan summasini aniqlash 3 ta har xil usul bilan aniqlanadi.

Hisobdan chiqarish usuli. Ushbu usulga ko'ra korxona byudjetga to'laydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini sotib olingan tovarlar qiymatini sotgan tovarlar qiymatidan chiqarib tashlab farqni aniqlaydi va bu farqga soliq stavkasini ko'paytirish yo'li bilan aniqlaydi.

Hisobga olish usuli. hisobga olish usuli yoki schet-faktura usuli Evropa birligiga kiruvchi barcha davlatlarda va qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan boshqa ko'pgina davlatlarda qo'llanib kelinmoqda. Ushbu usulga ko'ra korxona byudjetga to'laydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini sotib olingan tovarlar (xizmatlar) uchun to'langan soliq summasini sotilgan tovarlarga (xizmatlarga) hisoblangan soliq summasidan chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlaydi.

Yigish usuli. Ushbu usulga ko'ra korxona byudjetga to'laydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini yangidan hosilqilingan qiymatlar komponentlari, ish xaqqi, ijara xaqqi, foizlar va sof foidalarni yig'ib, hosil bo'lgan summani soliq stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlaydi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$SQQS = (Sb+Bb+As) \times S/100,$$

bu yerda: S QQS - qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

Sb - import qilinadigan tovarning bojxona qiymati;

Bb - bojxona boji summasi;

As - aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i summasi;

S - qo'shilgan qiymat solig'ining foizlardagi stavkasi.

QQSni respublika byudjetiga o'tkazish tartibi - qo'shilgan qiymat solig'ining to'langan summalari hududiy bojxona organlarining depozit hisob varaqlariga kirim qilinib, keyin ular respublika byudjetining daromadiga qayd etilishi kerak.

6-AMALIY MASHG'ULOT: AKSIZ SOLIG'I

Reja:

1. Aksiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rni.
2. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar uchun aksiz solig'i.
3. Aksiz solig'i to'lovchilarining tarkibi.
4. Aksiz solig'ining soliqqa tortish ob'ekti.
5. Aksiz solig'ini hisoblash tartibi.

I. Darsning maqsadi. Aksiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rni. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar uchun aksiz solig'i. Aksiz solig'i to'lovchilarining tarkibi. Aksiz solig'ining soliqqa tortish ob'ekti. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga aksiz solig'i stavkalari. O'zbekiston Respublikasiga import qilinadigan aksiz osti mahsulotlariga qo'llaniladigan soliq stavkalari. Aksiz solig'i bo'yicha imtiyozlar. Aksiz solig'ini hisoblash tartibi. Aksiz solig'ini hisobga olish. Aksiz solig'ini to'lash muddatlari. Import qilinadigan aksiz osti mahsulotlaridan solih undirish tartibi. Aksiz markalari va ularni qo'llash tartibini o'rganish.

II. Amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun ma'lumotlar:

Aksiz solig'ini to'lovchilar deb quyidagi shaxslar e'tirof etiladi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;
- 2) tabiiy gazni iste'molchilarga realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar;
- 3) benzin, dizel yuqilg'isini yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yuqilg'i quyish shoxobchalari orqali, shuningdek gazni avtomobillarga yuqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar. Ushbu bo'limni qo'llash maqsadida yakuniy iste'molchilar

deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoki yoqilg'isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi;

4) oddiy shirkat ishtirokchisi bo'lgan, oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan aksiz to'lanadigan tovarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bo'yicha oddiy shirkat ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs;

5) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi orqali aksiz to'lanadigan tovarlarni olib o'tuvchilar. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur shaxslar soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Quyidagilar ham soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi:

1) telekommunikatsiya mobil aloqa xizmatlarini (aksiz to'lanadigan xizmatlarni) ko'rsatadigan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan, aksiz solig'i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki shunday tovarlarni olib kirishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari.

Aksiz solig'i (bundan buyon ushbu bo'limda soliq deb yuritiladi) solinadigan ob'ektlar quyidagilardan iborat:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan aksiz to'lanadigan tovarlarni boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun berish:

tovarga bo'lgan mulk huquqini berish;

garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan berish;

aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul berish;

aksiz to'lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxslarning mehnatiga haq to'lash yoki dividendlar to'lash hisobidan berish;

2) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida yoxud oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida berish;

3) aksiz to'lanadigan tovarlarni:

a) ishtirokchiga (muassisa) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) qaytarib sotib olinganda ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo'lgan emitent tomonidan aktsiyadordan ushbu emitent chiqargan aktsiyalar qaytarib sotib olingan taqdirda aktsiyadorga berish;

v) yuridik shaxsni tugatishda aktsiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan qayta ishlash uchun topshirish, shuningdek qaytarish sharti bilan berilgan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan, shuningdek aksiz to'lanadigan shunday xom ashyo va materiallarning mahsuli bo'lgan, aksiz to'lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga ishlab chiqaruvchi tomonidan topshirish;

5) aksiz to'lanadigan tovarlardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

6) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish;

7) benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

8) aksiz to'lanadigan xizmatlar ko'rsatish;

9) O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning buzilishi, yo'qotilishi, bundan favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan hollar mustasno. Aybdor tomonidan tovarning qiymati sug'urta orqali to'langan yoki uning o'rni qoplangan taqdirda, aksiz solig'i sug'urta orqali to'lash (o'rnini qoplash) ulushida to'lanadi.

Quyidagilar soliq solish ob'ekti hisoblanmaydi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni eksportga (eksportning bojxona tartib-taomillarida) realizatsiya qilish, bundan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan, qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketish sharti bilan berish;

3) ixtisoslashtirilgan gaz ta'minoti korxonalari orqali aholiga suyultirilgan gazni maishiy ehtiyojlar uchun realizatsiya qilish;

4) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga quyidagi aksiz to'lanadigan tovarlarni:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirish;

davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar orqali xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirish;

agar qarz shartnomasida ularni soliqdan ozod etish nazarda tutilgan bo'lsa, xalqaro moliya institutlarining qarzlar va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlar hisobidan olib kirish;

5) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilish. O'zbekiston Respublikasi hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirishning eng yuqori normalari qonun hujjatlarida belgilanadi;

6) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHLAB
CHIQRILADIGAN (KO'RSATILADIGAN), AKSIZ TO'LANADIGAN
TOVARLARGA (XIZMATLARGA) AKSIZ SOLIG'I
STAVKALARI**

	Aksiz solig'i	2019 yil	2020 yil	
	etil spirti (1 dal uchun)	10 800 so'm	Indeksatsiyalanmoqda:	
	tabiiy ravishda achitilgan natural vinolar (1 dal uchun)	7 700 so'm	1) alkogol maxsulotlari ikki bosqichda:	
	boshqa vinolar (1 dal uchun)	14 500 so'm	I bosqich - 2020 yil 1 apreldan	
	konyak (1 dal tayyor mahsulot uchun)	102 000 so'm	urtacha 8 foizga, xar bir dal uchun:	
	aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar	98 000 so'm	– etil spirti – 11 700 so'm; – tabiiy vino – 8 300 so'm; – boshqa vinolar – 15 700 so'm; – konʻyak – 109 100 so'm; – aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar – 107 800 so'm; II bosqich – 2020 yil 1 oktyabrdan 7 foizga, vinodan tashqari, xar bir dal uchun: – etil spirti – 12 500 so'm; – tabiiy vino – 8 300 so'm; – boshqa vinolar – 16 800 so'm; – konʻyak – 116 400 so'm; – aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar – 116 400 so'm;	
	pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun)	10 600 so'm	2020 yil 1 apreldan	+1 100 so'm


			pivo – 11 700 so' m, 1 dal (+ 10 %);	
	filtrli va filtrsiz sigaretalar, papiroslar (1 ming dona uchun)	141 500 so'm	I bosqich – 2020 yil 1 apreldan 152 800 so'm (8 %); II bosqich – 2020 yil 1 oktyabrdan 163 500 so'm (7 %);	
	Mobil aloqa xizmati	20 %	20 %	<i>o'zgarma gan</i>
	Oxirgi iste'molchiga sotiladigan: <u>1 litrga</u>			
	benzin yoqilg'isi	285 so'm	350 so'm	+65 so'm
	dizel yoqilg'isi	285 so'm	350 so'm	+65 so'm
	suyultirilgan gaz	285 so'm	350 so'm	+65 so'm
	siqilgan gaz	435 so'm	500 so'm	+65 so'm

III. Darsda qo`laniladigan grafik organayzerlar.

Quyidagi rasmni bo'sh kataklarini mos javoblar bilan to'ldiring!

Aksizga tortiladigan tovarlar	

Quyidagi rasmni bo'sh kataklarini mos javoblar bilan to'ldiring!



IV. Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi” (2020 yil 1-yanvar amalga kiritilgan) T – 2019 y.
2. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo‘rayev. – T.: “Sharq” nashryoti – 2009 y. – 400 b.
3. Yuldashev A. “Soliq va soliqqa tortish”. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan va texnologiya”. 2007 y. 128 b.
4. Александров И. Налоги и налогообложения. Учебник. М. “Дашков и К” 2006 г. С.312.
5. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O‘quv qo‘llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 282 b.
6. Jo‘raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. T. “Fan” 2004 y. 387 b.
7. Jo‘raev A. “Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O‘quv qo‘llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 120 b.
8. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. . T. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2005 y. 544 b.
9. Malikov T. “Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari”. T. Akademiya. 2002 y. 253 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. “2019 yilda soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o‘zgarishlar yuzasidan o‘quv qo‘llanma”. T. 2019 y.

V. Mavzu bo‘yicha nazorat savollari.

1. Aksiz tushunchasi va aksiz solig‘i nimani ifoda etadi?
2. Aksiz solig‘i to‘lovchilar qanday guruhlanadi?
3. Aksiz osti tovarlarini aniqlash mezonlari qanday?
4. Aksiz solig‘i ob‘ekti nimalardan iborat?
5. Aksiz solig‘ini hisobga olish tartibi qanday?
6. Aksiz solig‘i hisobini taqdim etish va soliqni to‘lash muddatlari qanday?

VI. Mavzu yuzasidan test savollari.

1. Aksiz solig‘i to‘lovchilari kimlar?

- A) O‘zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni (aksiz to‘lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar
- B) O‘zbekiston Respublikasi hududida foydaga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar
- C) O‘zbekiston Respublikasida daromadga ega bo‘lgan yuridik shaxslar
- D) Suv resurslaridan foydalanuvchi soliq agentlari

2. Kimlar aksiz solig‘ini to‘lovchilaridir?

- A) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to‘lanadigan tovarlarni import qiluvchilar
- B) O‘zbekiston Respublikasi hududida foydaga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar
- C) O‘zbekiston Respublikasida daromadga ega bo‘lgan yuridik shaxslar

D) Suv resurslaridan foydalanuvchi soliq agentlari

3. Kimlar aksiz solig'ini to'lovchilari bo'lib xisoblanadi?

- A) oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).
- B) O'zbekiston Respublikasi hududida foydaga ega bo'lgan jismoniy shaxslar
- C) O'zbekiston Respublikasida daromadga ega bo'lgan yuridik shaxslar
- D) Suv resurslaridan foydalanuvchi soliq agentlari

4. Aksiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning qanday ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi?

- A) naturada
- B) realizatsiya qilish qiymati
- C) foydada
- D) daromadda

5. Aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlar ro'yxati kimning qarori bilan tasdiqlanadi?

- A) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi
- B) O'zbekiston Respublikasi Oliy sud qarori bilan tasdiqlanadi
- C) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuror qarori bilan tasdiqlanadi
- D) Viloyat hokimining qarori bilan tasdiqlanadi

6. Aksiz solig'i stavkalari qanday ko'rinishlarda belgilanmaydi?

- A) rentabellikda
- B) foizlarda (advalor)
- C) mutlaq summada (qat'iy)
- D) advalor va qat'iy stavkalardan tashkil topgan aralash stavkada

7. Aksiz solig'i bo'yicha soliq davrini toping?

- A) Yil oyi soliq davridir
- B) Besh yil soliq davridir.
- C) O'n yil soliq davridir.
- D) Yigirma yil soliq davridir.

8. Aksiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda soliq davridan keyingi oyning nechinchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi?

- A) har oyda soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi
- B) har oyda soliq davridan keyingi oyning 18-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi

- C) har oyda soliq davridan keyingi oyning 21-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi
- D) har oyda soliq davridan keyingi oyning 29-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi

9. Qaysi mahsulotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart?

- A) tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar
- B) avtomobillar va telefonlar
- C) tamaki mahsulotlari va yog' mahsulotlari
- D) barcha mahsulotlar

10. Tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar aksiz markalari bilan tamg'alanadimi?

- A) Ha
- B) Yo'q
- C) O'n yilda bir marta
- D) Besh yilda bir marta

11. Tamaki mahsulotlari aksiz markalari bilan tamg'alanadimi?

- A) Ha
- B) Yo'q
- C) O'n yilda bir marta
- D) Besh yilda bir marta

12. Alkogolli ichimliklar aksiz markalari bilan tamg'alanadimi?

- A) Ha
- B) Yo'q
- C) O'n yilda bir marta
- D) Besh yilda bir marta

13. Telefonlar aksiz markalari bilan tamg'alanadimi?

- A) Yo'q
- B) Ha
- C) O'n yilda bir marta
- D) Besh yilda bir marta

14. Aksiz solig'i stavkasini kim belgilaydi?

- A) Oliy Majlis;
- B) Vazirlar Maxkamasi;
- C) Moliya Vazirligi;
- D) Davlat soliq qo'mitasi.

15. Aksiz solig'ini byudjetga:

- A) Bevosita ishlab chiqarish korxonalari to'laydi;
- B) Tovarni istemol qiluvchilar to'laydi;
- C) Tovarni undirgan sotuvchilar to'laydi;
- D) Tovarni chakana sotuvchilar to'laydi.

VII. Mavzu bo'yicha masalalar.

Misol. Rezident korxona 20 tonna paxta urug'ini paxta yog'i ishlab chiqarish uchun «bojxona hududida qayta ishlash» rejimida olib kirdi.

Bu paxta urug'idan 1 700 litr tozalangan paxta yog'i ishlab chiqarildi, undan 1 200 litri eksport rejimida olib chiqilgan, qolgan 500 litri esa boshqa korxonaga qayta ishlash bo'yicha xizmat haqi sifatida berildi. Korxonada aksiz solig'ini to'lash bo'yicha majburiyat qayta ishlash xizmati uchun to'lov sifatida berilgan 500 litr yog'ni realizatsiya qilish paytida yuzaga keladi.

Misol uchun, tijorat banki korxonaga kredit berdi. Kreditni ta'minlash garovi sifatida korxona ishlab chiqargan aksiz solig'iga tortiladigan mahsulot qo'yilgan. Mazkur holda mulkka bo'lgan huquq o'tmaydi va tegishincha aksiz solig'i solinadigan ob'ekt ham hosil bo'lmaydi, negaki garov predmeti bankning mulki emas. Agar kelishilgan muddatda kredit so'ndirilmaydigan bo'lsa, garovga qo'yilgan aksiz solinadigan tovarga bo'lgan mulk huquqi bankka o'tadi va uning hisobiga majburiyat so'ndiriladi. Shunga mos ravishda, garovga qo'yuvchida (tovarning sobiq egasida) soliq solinadigan ob'ekt aynan mulk huquqi o'tgan sanada yuzaga keladi.

Ishlab chiqariladigan tovarlar bo'yicha (stavka ularning qiymatiga nisbatan foizlarda belgilangan, ya'ni advalor) soliq solinadigan baza – realizatsiya qilingan tovarlarning aksiz solig'i va QQSsiz qiymati hisoblanadi.

Misol. Korxona zargarlik buyumlarini chiqaradi. 2019 yilning yanvar oyida realizatsiya qilingan mahsulotning ulgurji-sotish qiymati (aksiz va QQSsiz), yoki boshqacha aytganda, aksiz bo'yicha soliq solinadigan baza 115 mln. so'mni tashkil etgan. Respublikada ishlab chiqariladigan zargarlik buyumlariga aksiz solig'ining stavkasi (2019 yilda) 25%ga teng. Aksiz solig'i 28,75 mln. so'mni tashkil qiladi ($115 \times 25 : 100$).

Agar aksiz solig'ining stavkasi mahsulot birligi uchun qat'iy belgilangan pullik summa tarzida o'rnatilgan bo'lsa, soliq solinadigan baza aksizga tortiladigan tovarlarning naturada ifodalangan moddiy hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi (litr, kilogram, tonna, dona va boshqalar).

Misol. Korxona 50 ming dal (Dal (dekalitr) – spirtli ichimliklar hajmining o'lchovi, 1 dal = 10 litr.)) pivo ishlab chiqardi va realizatsiya qildi. 2019 yilda respublikada chiqariladigan pivoga – 1 dal uchun 9 200 so'm stavkali aksiz solig'i belgilangan. Ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan pivo bo'yicha aksiz solig'ining summasi 460,0 mln. so'mni tashkil qiladi ($50\,000 \times 9\,200$).

1. Aksizga tortiladigan tovarlarni ish haqi yoki dividendlar hisobiga berish, tekinga yoki boshqa tovarga (ishlar, xizmatlarga) ayirboshlash evaziga berish, shuningdek tannarxidan past narxga sotish bo'yicha operatsiyalar.

Soliq kodeksiga asosan, ushbu hollarda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida belgilagan, lekin uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan baza bo'ladi.

Misol. Yanvarda tannarxi 200 ming so'mni tashkil qilgan mahsulot ishlab chiqarilgan. Mahsulotga talab bo'lmaganligi sababli korxona uni past narxda 180 ming so'mga sotdi (QQS va aksiz solig'ini hisobga olmaganda). Realizatsiya qilish tannarxdan past bo'lgan narxda amalga oshirilganligi sababli, soliq solinadigan baza sifatida 200 ming so'm olinadi (tannarx).

2. Mahsulot qayta ishlashga olingan xom ashyodan ishlab chiqarilgan. Foizli stavkalar belgilangan aksizga tortiladigan tovarlar bo'yicha, agar ular qayta ishlashga olingan xom ashyodan ishlab chiqarilgan bo'lsa, soliq solinadigan baza ushbu xom ashyoning qiymatini ham, bajarilgan ishlarning qiymatini ham o'z ichiga oladi.

Misol. «A» kompaniyasi buyurtmachining materiallaridan tilla va kumush zargarlik buyumlarini tayyorlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi. Qayta ishlashga olingan xom ashyoning qiymati – 4 000 ming so'm. Bunda korxonaning tushumi (bajarilgan ishning qiymati, xom ashyoning qiymati hisobga olinmagan) 1 950 ming so'mni tashkil etdi. Aksiz solig'ini hisoblash uchun soliq solinadigan baza 5 950 ming so'mni tashki etadi ($4\,000 + 1\,950$).

1-masala. Quyidagi ma'lumotlarga asosan aksiz solig'ini hisoblang (ming so'm).

1. Korxonaning hisobli bahosi – 22000
2. Mahsulot uchun belgilangan soliq stavkasi – 25 %.

2-masala. Quyidagi ma'lumotlarga asosan aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblang (ming so'm).

1. Hisobot davrida xarid qilingan xom-ashyo va materiallar–38000
2. Korxonaning hisobli bahosi – 70000
3. Mahsulot uchun belgilangan soliq stavkasi – 11 %

3-masala. 400 ming butilka (0.5l dan) aroqni sotishda aksiz solig'i summasini hisoblang, agarda aroqdan spirtning hajmi 40% ni tashkil etsa.

Aksiz solig'i summasini hisoblang?

4-masala. Yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga 1 mln. dona sigaretani import qilmoqda. Mazkur sigaretalardan bojxonada to'lanadigan aksiz solig'ini aniqlang.

Markalanadigan, import qilinadigan tamaki mahsulotlariga aksiz solig'i quyidagicha hisoblanadi:

Tovarning nomlanishi	Mahsulot birligi uchun narxi, AQSh doll.	1 mln. dona uchun bojxona qiymati	Aksiz stavkalari va summasi		
			Soliq solinadigan baza	Stavka	Summa
Filtrli sigaretalar	0,03	30,0 ming. AQSh doll.*			
Kurs 1:1300		39000 ming.so'm	1 mln. dona	1000 donasiga 10 AQSh dollari	10 ming AQSh dollari

5-masala. Alkogolli mahsulot bo'yicha byudjetga to'lanadigan aksiz solig'i hisob-kitobiga doir.

№	Ko'rsatkichlar	Konyak	Aroq	Vino
1.	Tayyor mahsulotning fizik hajmi	420	400	450
2.	Aksiz solig'i stavkasi			
a)	(<i>tayyor mahsulotning 1 daliga so'mda</i>)	11300	11300	-
b)	(<i>tayyor mahsulotning 1 daliga so'mda</i>)	-	-	3000
3.	Hisoblab yozilgan aksiz solig'ining summasi			
a)	(1-satr x 2a-satr)	4746000	4520000	
b)	(1sx (2b-satr)	-	-	1350000
4.	"O'zvinosanoat-xolding" XK maxsus hisobvarag'iga yo'naltiriladigan aksiz solig'ining stavkasi			
a)	(<i>tayyor mahsulotning 1 daliga</i>)	710	710	-
b)	(<i>tayyor mahsulotning 1 daliga</i>)	-	-	410
5.	"O'zvinosanoat-xolding" XK maxsus hisobvarag'iga yo'naltiriladigan aksiz solig'ining summasi			
a)	(1-satr x 4a-satr / 100) (<i>tayyor mahsulotning 1 daliga so'mda</i>)	298200	284000	-
b)	(1s x 4b-satr) (<i>tayyor mahsulotning 1 daliga so'mda</i>)	-	-	184500
6.	Byudjetga to'lanadigan aksiz solig'ining summasi			
a)	(3a-satr - 5a-satr)	4447800	4236000	-

b)	(3b-satr - 5b-satr)	-	-	1165500
----	---------------------	---	---	---------

6-masala. O'simlik (paxta) yoki bo'yicha byudjetga to'lanadigan aksiz solig'ining hisob-kitobiga doir.

№	Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	
1.	Korxonaning hisob-kitob (ulgurji) narxi (me'yoriy xarajatlar va foyda me'yori)	1 tonna uchun so'mda	182900
2.	Aksiz solig'i:	1 tonna uchun so'mda	495000
	a) umumbelgilangan stavkada	1 tonna uchun so'mda	440550
	b) byudjetga to'lanadigani	1 tonna uchun so'mda	54450
	v) "Yog'moytamakisanoat" uyushmasiga o'tkaziladigani(2a-satr - 2b-satr)	1 tonna uchun so'mda	

VIII. Mavzu bo'yicha glossariy.

Aksiz solig'i - Aksiz solig'i o'z mohiyatiga ko'ra tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste'molchi tomonidan to'lanadigan egri soliqlarning bir turidir. Aksiz solig'ining QQSdan farqli tomoni - ma'lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga qo'shiladi.

“Aksiz” tushunchasi - “Aksiz” frantsuzcha (accise) va lotincha (accidere) so'zlaridan olingan bo'lib, tarjima qilinganda «kesib olish» ma'nosini anglatadi. Uning ijtimoiy - iqtisodiy mohiyati faqat taqsimot darajasiga qarab ifodalanadi va takomillashtiriladi.

Aksiz solig'i to'lovchilari - Aksiz solig'i to'lovchilari deb mulk shaklidan kat'i nazar aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliq solish maqsadlarida yuridik shaxslar deganda o'zining mulkchiligida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mulkka ega bo'lgan, shuningdek o'zining majburiyatlari bo'yicha ushbu mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balans va hisob-kitob schyotiga ega bo'lgan alohida bulinmalar tushuniladi.

Aksiz solig'i bo'yicha imtiyozlar

Aksiz solig'i quyidagilarga solinmaydi:

- aksiz to'lanadigan tovarlarni eksport uchun etkazish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan alohida tovarlarning ro'yxati bundan mustasno;
- yog`-moy va "O'zbekiston" yog`ini ishlab chiqarishda ishlatiladigan paxta yog`ini etkazish;
- O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan, xalq ta'limi va sog'likni saqlash tizimlari extiyojlari uchun ixtisoslashtirilgan mebel.

Imtio`z berish maqsadlarida ixtisoslashtirilgan mebel deganda quyidagilar tushuniladi:

davlat va nodavlat ta`limi va tibbiyot muassasalarini ta`minlash uchun realizatsiya qilinadigan mebel;

ta`lim va sog`likni saqlash tizimini ta`minlash uchun ta`minot sotish bilan shug`ullanuvchi qaramog`idagi tashkilotlarga sotiladigan mebel.

Ushbu imtiyoz ta`lim va sog`likni saqlash tizimini ta`minlash uchun ixtisoslashtirilgan mebelni sotib olish bo`yicha tuzilgan shartnomalar mavjud bo`lgan taqdirda beriladi.

Mazkur mebel boshqa iste`molchilarga realizatsiya qilinganda unga umumo`rnatilgan tartibda aksiz solig`i solinadi;

g) alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun "O`zmevasabzavoto`zumsanoatholding" holding kompaniyasi, "O`zkimyosanoat" assotsiatsiyasi va qishloq va suv xo`jaligi vazirligi korxonalariga spirt realizatsiya qilinganda;

d) "O`zmevasabzavoto`zumsanoatholding" holding kompaniyasi va qishloq va suv xo`jaligi vazirligi korxonalariga vino ishlab chiqarish uchun vinomateriallarni realizatsiya qilish.

7-AMALIY MASHG`ULOT:

YER QA`RIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAHSUS TO`LOVLAR.

Reja:

- 1.Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliqning o`ziga xos xususiyatlari.
- 2.Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliqning to`lovchilar tarkibi.
- 3.Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliqning ob`ekti.
- 4.Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari.

I. Darsning maqsadi. Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliqning o`ziga xos xususiyatlari. Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliqning to`lovchilar tarkibi. Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliqning ob`ekti. Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari. Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq bo`yicha imtiyozlar va ularni qo`llanilish tartibi. Soliqni hisoblash va bYudjetga o`tkazish muddati. Yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq bo`yicha hisob kitoblarni topshirish muddatlari. Yer qa`ridan foydalanganlik uchun maxsus to`lovlar va ularni undirish tartibini o`rganish.

II. Amaliy mashg`ulotlarda foydalanish uchun ma`lumotlar.

Qazib olingan foydali qazilmalarning bir qismini sotishda ishlab chiqarish tannarxi, foydali qazilmalarning boshqa qismi esa boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xom ashyo hisoblanishi yoki o`zining ishlab chiqarish yoxud xo`jalik ehtiyojlari uchun ishlatilishi asosida soliq bazasini

aniqlash tartibi bekor qilindi hamda ushbu foydali qazilmaga soliq bazasini aniqlash tartibi qazib olinadigan foydali qazilmalarning butun hajmiga hisoblab chiqarilgan foydali qazilmaning o'rtacha sotish bahosi asosida aniqlanadi.

Soliq stavkalari Soliq kodeksi bilan belgilangan. Foydali qazilmalar ro'yxati yangi O'zbekiston Respublikasi hududida aniqlangan foydali qazilmalar (reniy, selen, tellur, indiy, vismut, palladiy, yod, marganets rudalari va boshqalar) bilan to'ldirilgan.

Foydali qazilmalarni qazib olishda foydali qazilmalarning normativ yo'qotishlariga taalluqli qismi bo'yicha 0 foizli stavka joriy etilmoqda. Foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) konlarda foydali qazilmalarni qazib olishning qabul qilingan sxemasi va texnologiyalari bilan texnologik bog'liq holdagi, vakolatli organ tomonidan qonun hujjatlarda belgilangan tartibda tasdiqlanadigan normalar doirasidagi yo'qotishlar normativ yo'qotishlardir.

Soliq stavkalari belgilanadigan, lekin bir tonna uchun qat'iy belgilangan soliq summasidan kam bo'lmagan foydali qazilmalarning ayrim turlari kub metrga o'tkaziladi.

Mutloq summada belgilangan (xususan, tosh (ovqatga ishlatiladigan) tuz, ohaktosh dolomitlar, marmar ushog'i, g'isht-cherepitsa xom ashyosi, qurilish qumlari va boshqalar) amaldagi soliq stavkalari 15 foizga indeksatsiya qilindi.

2020 yilda soliq bazasi ishlab chiqarish tannarxini 20 foizga oshirgan holda aniqlanadi.

Foydali qazilmalarning ayrim turlari uchun qat'iy belgilangan stavkalardan kam bo'lmagan miqdorda (tabiiy bezaktoshdan bloklar, tosh-shag'al aralashmasi, ohaktosh-chig'anoq, qumtosh va boshqalar) belgilangan stavkalardan kelib chiqib soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi belgilandi.

TSement ishlab chiqarish uchun ohaktosh bo'yicha soliq stavkasi 1 tonna uchun 45 ming so'm miqdorida saqlab qolindi, tsementni ishlab chiqarish uchun ko'mirdan foydalanadigan ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun esa tsementni ishlab chiqarish uchun ohaktosh bo'yicha soliq stavkasi 50 foizga kamaytirildi.

Qimmatbaho, rangli, nodir va radioaktiv metallarni qazib olish bilan shug'ullanuvchi ayrim soliq to'lovchilar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oshirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

2019 yil yanvar oyidan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning oylik to'lovlari hamda foydali qazilmalarning alohida turlari uchun eng kam qat'iy stavkalar o'rnatilganligi munosabati bilan, Soliq kodeksining **247-moddasiga** tegishli o'zgartirishlar kiritildi. Endilikda foydali qazilmalarning alohida turlari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanishi, lekin u yer

qa'ridan foydalanganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan soliq summasidan past bo'lmasligi kerakligi belgilandi.

1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha:

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qarorining 10-ilovasiga muvofiq tasdiqlandi.

Bunda, tosh tuzi (5000 so'm/tonna), ohaktoshlar, dolomitlar (5000 so'm/tonna), sement xom ashyosi (45000 so'm/tonna), marmar ushog'i (10000 so'm/tonna), g'isht-cherepitsa xom ashyosi (4000 so'm/tonna), gips va angidrit (4000 so'm/tonna), arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar (4000 so'm/tonna) va qurilish qumlari (5000 so'm/tonna) uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq belgilangan stavkalar asosida, biroq bir tonnasi uchun belgilangan eng kam miqdordan kelib chiqib to'lash tartibi joriy qilindi.

2. Bonuslar bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qarorining 11-ilovasiga asosan imzoli bonus stavkalari, 12-ilovasiga muvofiq esa tijoratbop topilma bonusi stavkalari tasdiqlandi va 2018 yil uchun belgilangan miqdorlarda saqlanib qolindi.

3. Qo'shimcha foyda solig'i bekor qilindi.

YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ STAVKALARI

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar va maxsus to'lovlar	2019 yil	2020 yil	
Oltin	25 %	25 %	<i>o'zgarmagan</i>
Kumush	25 %	25 %	<i>o'zgarmagan</i>
Tozalangan mis	15 %	15 %	<i>o'zgarmagan</i>
TSement xom-ashyosi	10 %, biroq tonnasiga kamida 45 000 so'm	1,15 baravarga oshadi	
Tosh tuzi	3,5 %, biroq tonnasiga kamida 5 000 so'm	1,15 baravarga oshadi	
Ohaktoshlar, dolomitlar	5 %, biroq tonnasiga kamida 5 000 so'm	1,15 baravarga oshadi	
Marmar ushog'i	5 %, biroq tonnasiga	1,15 baravarga oshadi	

		kamida 10 000 so'm		
	G'isht-cherepitsa xom ashyosi	5 %, biroq tonnasiga kamida 4 000 so'm	1,15 barava rga oshadi	
	Gips va angidrit	5 %, biroq tonnasiga kamida 4 000 so'm	5 %, biroq tonnasiga kamida 4 600 so'm	
	Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	5 %, biroq tonnasiga kamida 4 000 so'm	5 %, biroq tonnasiga kamida 4 600 so'm	
	Qurilish qumlari	5 %, biroq tonnasiga kamida 5 000 so'm	5 %, biroq tonnasiga kamida 5 000 so'm	<i>o'zgarmagan</i>
	Neftli slanets	-	4 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	Reniy	-	10 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	Qimmatbaho tosh xom ashyosi	-	24 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	titan-magnetit rudalar	-	4 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	marganets rudalar	-	4 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	yod	-	4,8 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	Qishloq xo'jalik xom ashyosi	-	3,5 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	Serpentinit (o'tga chidamli xom ashyo)	-	5 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	CHinni xom ashyosi	-	5 foiz	<i>kiritilmoqda</i>
	Temir	4 foiz	5 foiz	+1 punkt

IMZOLANADIGAN BONUS STAVKALARI

<i>T/r</i>	<i>Foydali qazilmalarni razvedka qilish va qidirish huquqi</i>	<i>Bonusning eng kam stavkasi (eng kam ish haqiga nisbatan karrali miqdorlarda)</i>
1	Uglevodorodlar konlarini qidirish va razvedka	10 000

	qilish huquqi	
2	Oltin qidirish va razvedka qilish huquqi	10 000
3	Qimmatbaho (oltindan tashqari), noyob va asl metallar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	1 000
4	Rudali foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi, 2 va 3-bandlarda ko'rsatilganlar bundan mustasno	500
5	Noruda foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	100

TIJORATBOP TOPILMA BONUSI STAVKASI

<i>Foydali qazilmalarni kavlab olish huquqi</i>	<i>Stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
Uglevodorodlar, qimmatbaho va noyob metallar, rudali va noruda foydali qazilmalarni kavlab olish huquqi	0,1

Izoh:

Tijoratbop topilma bonusining summasi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning yillik summasidan oshgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tijoratbop topilma bonusini 3 yilgacha muddatda bo'lib-bo'lib to'lash imkoni berilishi mumkin.

III. Darsda qo'laniladigan grafik organayzerlar.

Rasmni bo'sh kataklarini mos javoblar bilan to'ldiring!



Yer qa'ridan foydalanuvchilar to'laydigan soliqlar va maxsus to'lovlarni doiralar ichiga yozing!





IV. Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi” (2020 yil 1-yanvar amalga kiritilgan) T – 2019 y.
2. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo‘rayev. – T.: “Sharq” nashryoti – 2009 y. – 400 b.
3. Yuldashev A. “Soliq va soliqqa tortish”. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan va texnologiya”. 2007 y. 128 b.
4. Александров И. Налоги и налогообложения. Учебник. М. “Дашков и К” 2006 г. С.312.
5. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O‘quv qo‘llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 282 b.
6. Jo‘raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. T. “Fan” 2004 y. 387 b.
7. Jo‘raev A. “Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O‘quv qo‘llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 120 b.
8. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. . T. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2005 y. 544 b.
9. Malikov T. “Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari”. T. Akademiya. 2002 y. 253 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. “2019 yilda soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o‘zgarishlar yuzasidan o‘quv qo‘llanma”. T. 2019 y.

V. Mavzu bo‘yicha nazorat savollari.

- 1 Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad nimada?
- 2 Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqning byudjet daromadlaridagi hissasi qanday?
- 3 Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilari kimlar?
- 4 Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari va soliqqa tortiladigan ob'ekt qanday aniqlanadi?
- 5 Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi qanday?

VI. Mavzu yuzasidan test savollari.

1. Yer qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi qaysi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar?

- 1) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni
 - 2) qo'shimcha foyda solig'ini
 - 3) aksiz solig'ini
 - 4) imzoli va tijoratbop topilma bonuslarni
 - 5) ekologiya solig'ini
- A) 1,2,4
B) 1,3,4
C) 1,3,5
D) 1,2,5

2. Kimlar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilar hisoblanmaydi?

- A) Suv resurslaridan foydalangan jismoniy shaxslar
B) O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar
C) O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalarni kavlab olish amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar
D) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar

3. Yer qa'ridan foydalanuvchilar qanday bonuslarni to'lashadi?

- A) imzoli va tijoratbop topilma bonuslarni
B) ixtiyoriy va tijoratbop topilma bonuslarni
C) ixtiyoriy va moliyaviy topilma bonuslarni
D) imzoli va moliyaviy topilma bonuslarni

4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar kimlar hisoblanadi?

- A) yer qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, mineral xom ashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar

- B) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari suv resurslaridan foydalanuvchilar
- C) O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari suv resurslaridan foydalanuvchilar
- D) Hosil bo'lish manbai O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari suv resurslaridan foydalanuvchilar

5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni ob'ekti nima?

- A) Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi
- B) Kavlab olinganmagan mahsulotning summasi
- C) Ajratib olingan suv resursining hajmi
- D) Ajratib olingan suv resursining summasi

6. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni ob'ekti sifatida tayyor mahsulotlar ro'yxati kimning qarori bilan belgilanadi?

- A) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan
- B) O'zbekiston Respublikasi Oliy sud qarori bilan
- C) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qarori bilan
- D) Viloyat xokimining qarori bilan

7. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni ob'ekti qanday aniqlanadi?

- A) Soliq solish ob'ekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha *alohida* aniqlanadi
- B) Soliq solish ob'ekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha *umumiy tarzda* aniqlanadi
- C) Soliq solish ob'ekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha *nollik miqdorda* aniqlanadi
- D) Soliq solish ob'ekti umuman aniqlanilmaydi?

8. Ushbu ta'rif qaysi soliqning bazasiga xosdir. “Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir”

- A) Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
- B) Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
- C) Qo'shilgan qiymat solig'i
- D) Aksiz solig'i

9. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliqning davri ko'rsating?

- A) Kalendar yil soliq davridir
- B) Besh yil soliq davridir.
- C) 10 yil soliq davridir.

D) Yigirma yil soliq davridir.

10. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha yuridik shaxslar uchun hisobot davri ko'rsating?

- A) yil choragi
- B) besh yil soliq davridir
- C) kalendar yili
- D) yigirma yil soliq davridir

11. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha jismoniy shaxslar uchun hisobot davri ko'rsating?

- A) kalendar yili
- B) yil choragi
- C) besh yil soliq davridir
- D) yigirma yil soliq davridir

12. Kimlar qo'shimcha foyda solig'ining to'lovchilari hisoblanishmaydi?

- A) suv resurslaridan foydalanuvchilar
- B) ayrim foydali qazilmalarni (foydali komponentlarni) kavlab olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar
- C) foydali qazilmalardan ishlab chiqariladigan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar
- D) ayrim turdagi mahsulotlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan belgilanishi mumkin

13. Qo'shimcha foyda solig'ining bazasi nima?

- A) Qo'shimcha foyda summasi bilan qo'shimcha foyda qismiga to'g'ri keladigan sof tushumdan hisoblab chiqarilgan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan sof qo'shimcha foyda soliq solinadigan bazadir
- B) Soliqqa tortilmaydigan suv hajmi chegirilgan holda soliq solinadigan baza hisoblanadi
- C) Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish ob'ektlarining kadastr qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir
- D) Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan bazadir

14. Bonus nima?

- A) Yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lovdir
- B) Suv resurslaridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovdir
- C) Mol-mulk solig'iga beriladigan imtiyoz
- D) Bunday tushuncha yo'q.

15. Imzoli bonus nima?

- A) Yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat'iy belgilangan to'lovdir
- B) Suv resurslaridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovdir
- C) Mol-mulk solig'iga beriladigan imtiyoz
- D) Bunday tushuncha yo'q.

16. Soliq to'lovchi tomonidan imzoli bonus litsenziyasini olingan kundan e'tiboran, necha kun ichida byudjetga to'lanishi kerak?

- A) o'ttiz kundan kechiktirmay
- B) besh kundan kechiktirmay
- C) o'n yildan kechiktirmay
- D) Ixtiyorir ravishda (oshiqcha moliyaviy mablag' bo'lganda)

17. Tijoratbop topilma bonusi nima?

- A) Tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun to'lanadigan to'lovdir
- B) Suv resurslaridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovdir
- C) Mol-mulk solig'iga beriladigan imtiyoz
- D) Bunday tushuncha yo'q.

VII. Mavzu bo'yicha masalalar.

1-masala. Neft qazib oluvchi korxona hisobot davrida 1600 tonna neft qazib olgan. Korxona qayta ishlash uchun 1600 ming so'mga (QQS va aksiz solig'isiz) realizatsiya qilgan. Korxonaning hisobot davrida to'lashi lozim bo'lgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasini aniqlang?

2-masala. Ko'mir qazib oluvchi korxona hisobot davrida 1900 tonna ko'mir qazib olgan va uning 45 foizini 8400 ming so'mga realizatsiya qilgan. Korxonaning to'lashi lozim bo'lgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang?

3-masala. Korxona hisobot davrida 2500 tonna temir rudasini qazib olib, uning bir qismini 1300 ming so'mga QQS bilan realizatsiya qilgan. Korxonaning to'lashi lozim bo'lgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang?

VIII. Mavzu bo'yicha glossariy.

Soliqqa tortish maqsadida «yer osti» tushunchasi - Soliqqa tortish maqsadida «yer osti» tushunchasiga yer qa'rining tuproq qismidan pastda joylashgan qismi tushuniladi. Yer qa'ri bo'lmagan joylarda suv yuzasidan past qismi va geologik

izlanuv yoki egallash imkoniyatiga ega bo'lgan suv xavzalari yoki oqimlarining tagi (tubi) hisoblanadi.

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq ob'ekti - Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq ob'ektiga quyidagilar kiradi:

- foydali qazilmalar (shu jumladan ko'shib chiqadigan foydali qazilmalar va qimmatli komponentlar) qazib olish xajmi;
- texnogen hosilalarning (mineral xom ashyo qazib olish va ularni qayta ishlash chiqindilarning) xajmi;
- to'plangan rangli toshlar, paleontologiya qoldiqlari va boshqa geologik kolleksiya materiallarini hisobga olingan qiymatidir. Bular ichida asosiysi foydali qazilmalar bo'ladi energiya beruvchilar (gaz, neft', ko'mir va b.) rangli va noyob metallar, nodir metallar (oltin, kumush), temir, toyo-kimyo mahsulotlari va boshqalar kiradi.

Soliq ob'ektlarining turlari va soliq stavkalarini har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi yangi yil byudjetini tasdiqlayotganda belgilab, Oliy Majlis muxokamasidan o'tkazadi.

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashdan quyidagilar ozod etiladi:

- yer qo'lini geologik jihatdan o'rganuvchi shaxslar;
- geologiya, minerologiya va boshqa alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlarda ilmiy ishlar olib boruvchi shaxslar;
- keng tarqalgan foydali qazilmalar qazib olishni o'zlariga berilgan yer uchastkalari doirasida xo'jalik va maishiy ehtiyojlar uchun belgilangan tartibda amalga oshirayotgan yer egalari va yerdan foydalanuvchilar;
- yuridik shaxslar balansida bo'lgan va ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan fuqarolik va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'ektlarga yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq solinmaydi.

Soliq to'lash muddatlari - Keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar yiliga bir marotaba, keyingi yilning 20 yanvaridan kechiktirmay soliq hisobini taqdim etadilar va to'laydilar.

Soliqni to'lash muddatlari:

- foydali qazilmalar qazib olish va texnogen hosilalardan foydalanganlik uchun har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 20 kunigacha to'laydilar;
- qolgan holatlarda yilning har choragida choraklik va yillik hisobotlar topshirish muddatida to'lanadi.

Choraklik va yillik muddatlar tugashi bilan soliq hisobi tuziladi.

8-AMALIY MASHG'ULOT:

SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ.

Reja:

- 1.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning joriy etilish sabablari.
- 2.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirishning huquqiy asoslari.

- 3.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning ob`ekti va uni aniqlash tartibi.
- 4.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari.

I. Darsning maqsadi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning joriy etilish sabablari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirishning huquqiy asoslari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning ob`ekti va uni aniqlash tartibi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo`yicha imtiyozlar tarkibi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi va byudjetga tulash muddatlari. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo`yicha soliq hisob-kitoblarini topshirish muddatlarini o`rganish.

II.Amaliy mashg`ulotlarda foydalanish uchun ma'lumotlar:

Yuridik shaxslar va faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar hisoblanadi

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish ob`ekti hisoblanadi.

Yer usti va yer osti manbalaridan olingan va foydalanilgan suvning hajmi (kub metr), belgilangan soliq imtiyozlarini, ular bo'lgan taqdirda, chegirgan holda soliqqa tortiladigan baza hisoblanadi.

Suv resurslari vodoprovod tarmog'idan foydalanilgan hollarda yer usti va yer osti manbalaridan keladigan suv resurslari hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlar suv yetkazib beruvchilar tomonidan belgilab beriladi.

$$SSB=SrH-SSBK$$

bu yerda:

SSB – soliq solish bazasi;

SrH – suv resurslari hajmi (kub metr);

SSBK – soliq solinadigan bazani kamaytirish.

Bunda, soliq solish bazasi foydalanilgan suv resurslarining jami hajmidan Soliq kodeksining 261-moddasi hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ozod etilishi hamda chegirilishi belgilangan muayyan hajmlarni ayirgan holda hisoblab chiqariladi.

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi o'lhagich asboblarning ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'lhagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv ob'ektlaridan suv olish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlari hisobi alohida-alohida yuritiladi.

Ikkita manba - yer usti va yer ostidan suv keladigan vodoprovod tarmog'idagi suvdan foydalanilgan taqdirda, soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi.

Suv yetkazib beruvchi korxonalar suv resurslarini yer usti va yer osti manbalariga taqsimlash ma'lumotlarini joriy soliq davrining 15 yanvariga qadar taqdim etishlari kerak.

Binolarning bir qismi, alohida joylar ijaraga topshirilganda (olinganda) soliq solinadigan baza suv yetkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi (ijaraga oluvchi) tomonidan aniqlanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq imtiyozlari Soliq kodeksining 261-moddasi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari tegishli moliyaviy yil uchun belgilangan byudjet-soliq siyosati asosida qabul qilinadigan O'zbekiston Respublikasining tegishli yilga mo'ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlariga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

2019 yil soliq stavkalari (so'm)

№	Soliq to'lovchilar	1 kub metr uchun stavka	
		Suv resurslarining yer usti manbalari	Suv resurslarining yer osti manbalari

1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining korxonalari (2-6 bandlarda ko'rsatilganlardan tashqari), dehqon xo'jaliklari, tadbirkorlik maqsadida suv resurslaridan foydalangan jismoniy shaxslar	120	150
2.	Sanoat korxonalari (3-6 bandlarda ko'rsatilganlardan tashqari)	360,0	430,0
3.	Avtotransport vositalarini yuvishga ixtisoslashtirilgan korxonalar	1200,0	1500,0
4.	Elektrostantsiyalar	30	50
5.	Maishiy xizmat ko'rsatish	60	80
6.	Alkogolsiz ichimlik ishlab chiqaruvchi korxonalar		
	Alkogolsiz ichimlik ishlab chiqarishga ishlatilgan suv hajmi	19040,0	19040,0
	Boshqa maqsadlar uchun	120	150

2020 yildagi o'zgarishlar

6.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 kub. metr uchun		
A	Sanoat korxonalari	yer usti 360 so'm yer osti 430 so'm	1,15 bara varga oshadi	
B	Alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha			
	- alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha	yer usti 19 040 so'm yer osti 19 040 so'm	1,15 bara varga oshadi	
	- boshqa maqsadlarda	yer usti 120 so'm	1,15 bara varga	

		yer osti 150 so'm	oshadi	
--	--	------------------------------	---------------	--

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqib quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\text{SrfuS} = \text{SSB} * \text{SS}$$

bu yerda:

SrfuS – suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

SSB – soliq solish bazasi (suv hajmi, m³);

SS – 1 kub m uchun belgilangan soliq stavkasi.

Misol: “Sharq” AJ suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq summasini yil davomida iste'mol qilgan suv hajmini soliq stavkasiga ko'paytirish bilan hisoblab chiqaradi.

$$\text{SrfuS} = \underset{\text{suv hajmi}}{5\,000 \text{ kub metr}} \left(\underset{\text{suv hajmi, manbalar bo'yicha}}{\text{shundan, } 3600 \text{ m}^3 \text{ yer usti, } 1\,400 \text{ m}^3 \text{ yer osti}} \right) \times$$

$$300 \text{ so'm (yer usti), } 360 \text{ so'm (yer osti)} = 1\,080\,000 \text{ so'm} + 504\,000 \text{ so'm} = \mathbf{1584000 \text{ so'm.}}$$

Soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 25 yanvarigacha (yangi tashkil qilinganlar tomonidan - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran 30 kundan kechiktirmay) mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda joriy to'lovlar to'g'risida ma'lumotnomani taqdim etadilar.

Soliq davri mobaynida yuzaga kelgan majburiyatlar bo'yicha soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnoma majburiyat yuzaga kelgan sanadan e'tiboran 30 kundan kechiktirmay taqdim etilishi lozim.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli.

Bunda, soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lovlarga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida soliq summasi EKIHNing 200 baravaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan - har oyning 25-kunidan kechiktirmay, yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Soliq davrida soliq summasi EKIHNing 200 baravaridan kamni tashkil etadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar - yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay, soliq yillik summasining 1/4 qismi miqdorida to'laydi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobi suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yiliga bir marta - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi saqlab qolinmoqda. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2020 yil uchun 2019 yil 9 dekabrda "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-589-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11-ilovasi bilan tasdiqlangan. 2020 yil 1 yanvardan boshlab alkogol mahsulotlarini (pivo va vinodan tashqari) ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun alkogol mahsulotlarini (pivo va vinodan tashqari) ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha 1 kub metr uchun 21 900 so'm miqdorida, boshqa maqsadlar uchun esa yer usti suv resurslari manbalari bo'yicha 1 kub metr uchun 410 so'm hamda yer osti suv resurslari manbalari bo'yicha 1 kub metr uchun 490 so'm miqdorida belgilanmoqda.

Alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar uchun alkogolli mahsulot ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun foydalanilgan suvning hajmi soliq bazasi hisoblanadi. Alkogolli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi deganda iste'mol idishidagi tayyor mahsulotga to'g'ri keladigan suvning hajmi tushuniladi.

Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchi korxonalar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha bo'nak to'lovlar summasi to'g'risidagi ma'lumotnoma shakli tasdiqlangunga qadar 2020 yil 20 yanvargacha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha bo'nak to'lovlarini hisoblab chiqarish uchun ushbu qo'shma xat ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha ma'lumotnoma

taqdim etadilar. Quyidagi hollarda oshirilgan soliq stavkalari o'rnatiladi (belgilangan soliq stavkalarining besh baravaridan):

suvdan foydalanish uchun belgilangan limitlardan ortiqcha suv olinganda (bunday ortiqcha qism bo'yicha);

suv resurslaridan ruxsat beruvchi hujjatlarsiz foydalanilganda;

avtotransport vositalarini yuvishni amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan yer usti manbalaridan olingan suvdan foydalanilganda.

Soliq hisobotini taqdim etish muddatlari ko'plab soliq to'lovchilar uchun saqlab qolinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun – soliq davridan keyingi yilning 20 yanvarigacha.

Suvdan foydalanish yoki suvni iste'mol qilish joyidagi soliq organlariga soliq bo'yicha bo'nak to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun ma'lumotnomani taqdim etish muddati saqlab qolinmoqda.

Bunda bo'nak to'lovlar:

soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan ko'proqni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (bundan aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar mustasno) – har oyning 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining o'n ikkidandan bir qismi miqdorida;



soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan kamroqni tashkil etadigan, aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar bo'lmagan yuridik shaxslar, shuningdek aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – har chorak uchinchi oyining 20 sanasidan kechiktirmay yillik soliq summasining to'rtidan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Soliq davri uchun bo'nak to'lovlar hisobga olingan holda soliqni to'lash soliq to'lovchilar tomonidan, bundan dehqon xo'jaliklari mustasno, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, soliq hisoboti taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Dehqon xo'jaliklari tomonidan soliqni to'lash yilda bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

III. Darsda qo'laniladigan grafik organayzerlar.

Bo'sh kataklarni mos javoblar bilan to'ldiring!



IV. Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi” (2020 yil 1-yanvar amalga kiritilgan) T – 2019 y.
2. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo‘rayev. – T.: “Sharq” nashryoti – 2009 y. – 400 b.
3. Yuldashev A. “Soliq va soliqqa tortish”. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan va texnologiya”. 2007 y. 128 b.
4. Александров И. Налоги и налогообложения. Учебник. М. “Дашков и К” 2006 г. С.312.
5. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O‘quv qo‘llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 282 b.
6. Jo‘raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. T. “Fan” 2004 y. 387 b.
7. Jo‘raev A. “Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O‘quv qo‘llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 120 b.
8. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. . T. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2005 y. 544 b.
9. Malikov T. “Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari”. T. Akademiya. 2002 y. 253 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. “2019 yilda soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o‘zgarishlar yuzasidan o‘quv qo‘llanma”. T. 2019 y.

V. Mavzu bo‘yicha nazorat savollari.

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad nimada?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilari kimlar hisoblanadi?
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning byudjet daromadlaridagi hissasi qanday?
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari qanday va soliqqa tortiladigan ob‘ekt nima?
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi qanday?

VI. Mavzu yuzasidan test savollari.

- 1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning to‘lovchilari kimlar hisoblanadi?**
 - A) tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar
 - B) jismoniy shaxslar - O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari
 - C) tashkil etilmagan dehqonlar
 - D) davlat organlari

2. Jumlani to'ldiring. "Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchidir".

- A) o'z ehtiyojlariga ishlatiladigan suv uchun
- B) xalq ehtiyojlariga ishlatiladigan suv uchun
- C) davlat ehtiyojlariga ishlatiladigan suv uchun
- D) xalqaro ehtiyojlariga ishlatiladigan suv uchun

3. Kim suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchisi bo'lmaydi?

- A) notijorat tashkilotlar (tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmagan taqdirda)
- B) tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar
- C) yuridik shaxs tashkil etgan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari
- D) yuridik shaxs tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari

4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning ob'ekti nima?

- A) yer usti va yer osti suv manbalari
- B) yer usti suv manbalari
- C) yer osti suv manbalari
- D) Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning ob'ekti yo'q

5. Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilar qaysi biri kiradi?

- 1) daryolar
 - 2) ko'llar
 - 3) artezian quduqlari
 - 4) suv omborlari
 - 5) skvajinalar
 - 6) turli xil kanallar va hovuzlar
 - 7) vertikal va gorizontal drenaj
- A) 1,2,4,6
 - B) 2,3,4,5
 - C) 3,4,5,6
 - D) 1,5,6,7

6. Suv resurslarining yer osti manbalariga quyidagilar qaysi biri kiradi?

- 1) daryolar
- 2) ko'llar
- 3) artezian quduqlari
- 4) suv omborlari
- 5) skvajinalar
- 6) turli xil kanallar va hovuzlar
- 7) vertikal va gorizontal drenaj

- A) 3,5,7
- B) 1,2,3
- C) 2,3,6
- D) 4,5,7

7. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning bazasi ko'rsatining.

- A) Foydalanilgan suvning hajmi hisoblanadi
- B) Soliq solinadigan oborot
- C) Soliq solinadigan import
- D) Qazib olingan foydali qazilmaning hajmi hisoblanadi

8. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan foydalanilgan suv hajmi nima asosida aniqlanadi?

- A) suvdan foydalanishning buxgalteriya (birlamchi) hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lchagich asboblarning ko'rsatkichlari asosida
- B) suvdan foydalanishning norentabel usuli asosida
- C) suvdan foydalanishning moliyaviy va boj siyosatini qo'llash orqali
- D) suvdan foydalanganlikni aniqlashning imkoni yo'q

9. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning davrini ko'rsating.

- A) Kalendar yil soliq davridir
- B) Besh yil soliq davridir
- C) O'n yil soliq davridir
- D) O'n besh yil soliq davridir

VII. Mavzu bo'yicha masalalar.

Misol. Korxona tomonidan vodoprovod tarmog'idan foydalanilgan umumiy suv hajmi, suv o'lchagich asboblarning ko'rsatkichlari bo'yicha 2019 yilda 10 000 m. kub.ga teng.

Soliq solinadigan baza quyidagini tashkil etadi:

yer usti manbalardan foydalanilgan suv hajmi bo'yicha, - 8 841 m. kub. (10 000 * 88,41%);

yer osti manbalardan – 1 160 m. kub. (10 000 * 11,6%)

1 - Misol. Sanoat korxonasining 2019 yil uchun vodoprovod tarmog'idan foydalanilgan umumiy suv hajmi suv o'lchagich asboblarning ko'rsatkichlari bo'yicha 9 000 m.kub.ga teng. Korxona tomonidan foydalanilgan suv hajmi faqat yer ustidan olinsa:

$$V=9000*360(1\text{ m.kub.})=3\,240\,000\text{ so'm}$$

2 - Misol. Sanoat korxonasining 2019 yil uchun vodoprovod tarmog'idan foydalanilgan umumiy suv hajmi suv o'lchagich asboblarning ko'rsatkichlari bo'yicha 9 000 m.kub.ga teng. Shundan yer usti manbalardan foydalanilgan suv hajmi bo'yicha, - 7 956,9 m.kub.(9 000 * 88,41%);

yer osti manbalardan – 1 197 m.kub.(1 197 * 11,6%).

$$V=(7\,956,9*360)+(1\,197*430)=2\,864\,484+514\,710=3\,379\,194\text{ so'm}$$

1-masala. Kichik korxona umumbelgilangan soliqlar to'laydi. 2019 yilda foydalaniladigan, soliq solinishi lozim bo'lgan suvning tahmin qilingan hajmi 1 600 kub.m.ni tashkil qiladi. Suv DUK «Suvsoz» tomonidan yetkazib beriladi. DUK «Suvsoz» ma'lumotlariga ko'ra suv quvurlariga kelib tushadigan suvning hajmi quyidagi nisbatda bo'ladi:

yer	usti	manbalaridan	–	88,41%;
yer	osti	manbalaridan	–	11,6%.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 2019 yilda quyidagicha bo'lgan:

-  yer usti manbalaridan olinadigan suvning 1 kub.m. uchun– 120 so'm;
-  yer osti manbalaridan olinadigan suvning 1 kub.m. uchun–150 so'm
-  Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovning miqdorini hisoblab chiqaring.

2-masala. Suv o'lchash asbobining ko'rsatishi bo'yicha korxona 2019 yilda sarflagan suv hajmi 1 160 kub.m. ni tashkil etgan. Suv DUK «Suvsoz» tomonidan yetkazib beriladi. Undan tashqari korxona hududida quduq mavjud bo'lib, bu quduqdan olingan suv hajmi 50 890 kub.m. ni tashkil etgan, undan 10 000 kub.m. suv ikkinchi marta qayta ishlatiladi. DUK «Suvsoz»ning ma'lumotlariga ko'ra, suv quvurlariga kelib tushadigan suv hajmining nisbati quyidagicha:

- yer usti manbalaridan – 88,41%;
- yer osti manbalaridan – 11,6%.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 2019 yilda quyidagicha bo'lgan:

- yer usti manbalaridan olingan suvning 1 kub.m. uchun – 120 so'm;
- yer osti manbalaridan olingan suvning 1 kub.m. uchun – 150 so'm.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun 2019 yilga to'lanadigan soliq summasini hisoblab chiqing.

3-masala. YaST to'lovchi kichik korxona gazlangan suv chiqarish bilan shug'ullanadi. Uning bir yillik ishlab chiqarish hajmi 100 000 litrni tashkil etadi. Yer usti va yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining suv o'lchash asbobi ko'rsatkichi asosida aniqlangan umumiy hajmi yiliga 550 kub.ni tashkil etadi.

Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchilar uchun soliq stavkasi 2019 yilda quyidagicha bo'lgan:

- alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha, suv resursining manbalaridan (yer usti yoki yer osti) qat'iy nazar, -

19 040so'm/kub.m;

- boshqa maqsadlarda ishlatiladigan suv hajmi bo'yicha (mos ravishda yer usti va yer osti manbalaridan) - 120 so'm/kub.m i 150 so'm/kub.m. DUK «Suvsoz» suv quvurlari tarmog'iga tushadigan suvning quyidagi nisbatdagi hajmini o'rnatgan: yer usti manbalaridan – 88,41%, yer osti manbalaridan – 11,6%.

4-masala. Sanoat korxonasi hisobot davrida jami 60000 kub. metr suv resurslaridan foydalangan bo'lib, shundan 35 foizi yer osti manbalaridan, qolgan qismi esa yer usti manbalaridan olingan. Korxona to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.

5-masala. Elektrostantsiya hisobot davrida 450000 kb.metr yer usti suv resurslaridan, 50000 kub.metr yer osti suv resurslaridan foydalangan. Korxona to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.

6-masala. Kommunal xo'jaligi hisobot davrida 170 000 metr kub hajmida aholi punktlarini suv bilan ta'minlangan. Shuningdek, o'z iste'moli uchun 27000 metr kub yer usti suv resurslaridan foydalangan. *Korxona to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.*

7-masala. Sanoat korxonasi M.Ulug'bek tumani DSI da ro'yxatiga olingan. Korxona hisobot davrida Qibray tumani hududidagi suv resurslaridan (yer usti manbalaridan) 35000 metr kub, o'zi joylashgan tuman yer osti suv manbalaridan 16000 metr kub foydalangan. *Korxonaning hisobot davrida to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini aniqlang va korxona soliq hisob-kitobini qaysi tuman DSI ga taqdim etadi va soliqni to'laydi.*

VIII. Mavzu bo'yicha glossariy.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq - Suvdan foydalanishni imkoniyat darajasida tejash maqsadida suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'i kiritilgan. Suv resurslaridan foydalanish solig'i to'lovchilari bo'ladi, o'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar hisoblanadi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solishning alohida tartibi urnatilgan to'lovchilarning ayrim toifalariga tatbiq etilmaydi.

Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi urnatilgan to'lovchilar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob olib borishlari va shu faoliyatda foydalaniladigan suv xajmidan kelib chiqib suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashlari kerak. Yer osti va yer usti manbalaridan ishlab chiqarish va texnikaviy maqsadlarda foydalanishga olingan suv resurslari xajmi, ya'ni yuridik shaxslar tomonidan foydalanilgan suv resurlarining jami xajmi, iste'mol xarakteri va maqsadlaridan qat'iy nazar soliqqa tortiladi..

Yer usti manbalari - Yer usti manbalariga daryolar, ko'llar, suv omborlari, ariqlar va boshqa yer usti manbalari kiradi.

Yer osti manbalari - Yer osti manbalariga: artezian quduqlari va skvajinalari, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari kiradi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:

a) notijorat tashkilotlari, ana shu faoliyatda ishlatilgan suv xajmidan kelib chiqib, suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchilardan tashqari.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar tomonidan, dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va tashkil etmaydigan)dan tashqari, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha amalda olingan soliqqa tortiladigan suv xajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

Dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan umuman xo'jalik bo'yicha o'tgan yilda 1 ga sug'oriladigan yerga sarflangan suv xajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

9-AMALIY MASHG'ULOT:

YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLAR MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ.

Reja:

- 1.O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ining joriy etilishi va unig iqtisodiy mohiyati.
- 2.Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini undirishning huquqiy asoslari.
- 3.Yuridik shaxslarlardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar.
- 4.Jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'i va uning ahamiyati.
- 5.Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig'ini undirish tartibi.

I. Darsning maqsadi. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ining joriy etilishi va unig iqtisodiy mohiyati. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini undirishning huquqiy asoslari. Mol-mulk solig'i to'lovchilari tarkibi. Mol-mulk bo'yicha soliqqa tortiladigan ob'ekt. Soliqqa tortiladigan mol-mulk bo'yicha o'rtacha qoldiq qiymatini aniqlash uslubiyati. Yuridik shaxslarlardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar. Soliq imtiyozlari tarkibi: mol-mulkiga soliq solinmaydigan Yuridik shaxslar; mol-mulkarga muddat bo'yicha taqdim etilgan soliq imtiyozlari. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash va thlash muddatlari.Jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'i va uning ahamiyati. Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig'ini undirish tartibi. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lash muddatlarini o'rganish.

II.Amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun ma'lumotlar:

1. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi ko'chmas mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga nisbatan 2 foiz miqdorida belgilanib, 2018 yildagi soliq stavkasiga nisbatan 3 foizli punktga pasaytirildi.

Bunda normativ muddatlarda ishga tushirilmagan asbob-uskunalarva normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlariga mol-mulk solig'i ikki karra oshirilgan stavkada to'lanadi.

Shuningdek, normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari, bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar bo'yicha, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ushbu maydonlardan samarasiz foydalanilayotganligi yuzasidan qonun hujjatlarida (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 sentyabrdagi PQ-3928-sonli qarori*) belgilangan tartibda chiqarilgan xulosa asosida, oshirilgan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qarorining 15-ilovasiga muvofiq belgilanib, 2018 yil darajasida saqlab qolindi.

Jumladan, jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklarning kadastr qiymatidan kelib chiqib:

turar joylar va kvartiralar, dala hovli qurilmalari, boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar uchun 0,2 foiz miqdorida;

shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.metrдан 500 kv.metr gacha bo'lgan turar joy va kvartiralar uchun 0,25 foiz miqdorida, maydoni 500 kv.metrдан oshiq bo'lgan turar joy va kvartiralar uchun esa 0,35 foiz miqdorida;

boshqa aholi punktlarida joylashgan umumiy maydoni 200 kv.metrдан oshiq bo'lgan turar joy va kvartiralar uchun 0,25 foiz miqdorida belgilandi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida mol-mulkning kadastr qiymati kadastr hujjatlaridan kelib chiqib, biroq 42 000 ming so'mdan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash organlari belgilagan kadastr qiymati bo'lmasa, soliq undirish uchun Toshkent va Nukus shaharlari, shuningdek viloyat markazlarida 210 000 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda – 90 000 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinishi saqlab qolindi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan turar joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqib undiriladi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash maqsadida soliq solinmaydigan maydon umumiy maydonning **60 kv.m** hajmida belgilanadi.

JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ STAVKALARI

T/r	Soliq solinadigan ob'ektlarning nomi	Soliq stavkasi, mol-mulkning kadastr qiymatiga nisbatan %da*
1	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lganlari bundan mustasno), boshqa imoratlar, joylar va inshootlar	0,2
2	Shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan uy-joylar va kvartiralar:	
	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	0,25
	500 kv.m dan ortiq bo'lgan	0,35
3	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,25

**Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida mol-mulkning kadastr qiymati kadastr hujjatlaridan kelib chiqib belgilanadi, biroq 42 000 ming so'mdan kam bo'lmasligi kerak.*

Izohlar:

1. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholovchi organlar belgilagan kadastr qiymati bo'lmasa, soliq undirish uchun Toshkent va Nukus shaharlari, shuningdek viloyat markazlarida 210 000 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda 90 000 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan yangi qurilgan uy-joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqib undiriladi.

2. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash maqsadida soliq solinmaydigan maydon umumiy maydonning 60 kv.m hajmida belgilanadi.

3. 2020 yilda hisoblangan jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi 2018 yilda hisoblangan soliq summasidan 1,3 baravardan ortiq bo'lmasligi kerak.

Soliqni to'lash muddati yiliga ikki marta 15 aprely va 15 oktyabrgacha teng ulushlarga bo'lib belgilandi.

Mol-mulk solig'ini to'lovchilar bo'lib O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar-O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hisoblanadi.

Soliq solish ob'ekti bo'lib ko'chmas mulk, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan ko'chmas mulk, tugallanmagan qurilish ob'ektlari, belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar hisoblanadi.

Soliqqa tortishda imtiyozga ega bo'lgan mol-mulk Soliq kodeksiga muvofiq soliq solish ob'ektiga kiritilmaydi.

Amaldagi soliq stavkasi mol-mulk yillik qiymatining 5% miqdorida belgilangan.

Barcha toifadagi qurilishi tugallanmagan ob'ektlar, bo'sh turgan binolar, noturar inshootlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish ob'ektlariga mol-mulk solig'i stavkasi xulosa berilganidan keyingi oydan boshlab:

- ikki karra miqdorda;
- 6 oy o'tgandan so'ng - besh karra miqdorda;
- 12 oy o'tgandan so'ng va keyinchalik - o'n karra miqdorda tatbiq etiladi.

Soliq solish ob'ektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

$$\text{O'YQQ} = (n_1 + n_2 + \dots + n_{12}) / 12$$

bu yerda:

O'YQQ - o'rtacha yillik qoldiq qiymat;

n - oyning oxirgi kuniga soliq solish ob'ektlari qoldiq qiymati;

Soliq hisob-kitobi yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda – hisobot yilidan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmasdan taqdim etiladi.


Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 10 yanvarigacha (*yangi tashkil qilinganlari esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran 30 kundan kechiktirmay*) mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar.

Joriy to'lovlar mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - mol-mulk solig'i yillik summasining to'rttdan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay;


mikrofimalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq davrida to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi joriy to'lovlar hisobga olingan holda, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay byudjetga o'tkaziladi.

III. Darsda qo'laniladigan grafik organayzerlar.



Quyidagi rasmni bo'sh kataklarini mos javoblar bilan to'ldiring !



IV. Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. “O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi” (2020 yil 1-yanvar amalga kiritilgan) T – 2019 y.
2. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo`rayev. – T.: “Sharq” nashryoti – 2009 y. – 400 b.
3. Yuldashev A. “Soliq va soliqqa tortish”. O`quv qo`llanma. T.: “Fan va texnologiya”. 2007 y. 128 b.
4. Александров И. Налоги и налогообложения. Учебник. М. “Дашков и К” 2006 г. С.312.
5. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O`quv qo`llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 282 b.
6. Jo`raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo`llari. T. “Fan” 2004 y. 387 b.
7. Jo`raev A. “Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O`quv qo`llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 120 b.
8. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. T. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2005 y. 544 b.
9. Malikov T. “Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari”. T. Akademiya. 2002 y. 253 b.
10. O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi. “2019 yilda soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o`zgarishlar yuzasidan o`quv qo`llanma”. T. 2019 y.

V. Mavzu bo'yicha nazorat savollari.

1. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'ini to'lovchilarga kimlar kiradi?
2. Mol-mulkning o'rtacha yillik (choraklik, 6 oylik, 9 oylik) qoldiq qiymati qanday tartibda hisoblanadi?
3. Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i stavkasini kim belgilaydi va bu soliqdan qanday imtiyozlar mavjud?
4. Mol-mulk solig'ini hisobini taqdim etish tartibi va soliqni to'lash muddatlari qanday?
5. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i to'lovchilar kimlar?
6. Mulklarning qiymati qanday tartibda hisoblab chiqiladi va uning stavkalari qanday?
7. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkasini kim belgilaydi va bu soliqdan qanday imtiyozlar mavjud?
8. Mol-mulk solig'ini hisobini taqdim etish tartibi va soliqni to'lash muddatlari qanday?

VI. Mavzu yuzasidan test savollari.

- 1. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliqqa tortiladigan bazasini aniqlang.**
 - A) Ko'chmas mulk bo'yicha - o'rtacha yillik qoldiq qiymati
 - B) Asosiy vositalarning qiymati
 - C) Mol-mulklarning boshlang'ich qiymati
 - D) Mol-mulklarning amortizatsiya miqdori
- 2. Qaysi javobda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar to'g'ri keltirilgan.**
 - A) Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar
 - B) Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan fermer xo'jaliklari
 - C) Faqat 2 guruh nogironlari
 - D) Uchala darajadagi "Shuhrat" ordeni bilan taqdirlanganlar
- 3. Qaysi javobda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq solinadigan ob'ekti to'g'ri keltirilgan.**
 - A) Uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar
 - B) Avtomobillar, garajlar va boshqa imoratlar
 - C) Motoaravachalar, inshootlar
 - D) Motorli qayiqalar
- 4. Yuridik shaxslarning mol-mulklaridan soliq 2019 yilda qanday stavkada undiriladi.**
 - A) 2%
 - B) 5%

- C) 15% va 30%
- D) 25% va 50%

5. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi: Turar joylar, kvartiralar, dala hovli qurilmalari (bundan umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lganlari mustasno), boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar uchun

- A) 0,2 foiz
- B) 1 foiz
- C) 3 foiz
- D) 4 foiz

6. Meros bo'yicha o'tgan mol-mulkdan soliq qachondan undiriladi?

- A) mulk huquqi vujudga kelgan kundan boshlab
- B) mulk huquqi vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab
- C) mulk huquqi vujudga kelgan yildan keyingi yil boshidan
- D) mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran

7. Qaysi javobda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining ob'ekti to'g'ri keltirilgan?

- A) uy joylar, kvartiralar, garajlar, bogp uylari, bino va inshootlari
- B) Motoaravachalar
- C) Avtomobillar
- D) motorli qayiqlar

8. Qaysi javobda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq solinadigan bazasi to'g'ri berilgan?

- A) soliq solish ob'ektlarining kadastr qiymati
- B) soliq solish ob'ektlarining fizik hajmdagi soni
- C) soliq solish ob'ektlarining bozor qiymati
- D) soliq solish ob'ektlarining birja bahosi

9. Qaysi javobda yuridik shaxslarning mol-mulk solig'ining soliqqa tortish ob'ekti to'liq berilgan?

- A) asosiy vositalar, normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar
- B) asosiy vositalar
- C) kapital qo'yilmalar
- D) pul mablag'lari

VII. Mavzu bo'yicha masalalar.

Misol: “Sharq” AJ asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatini aniqlash uchun har oylik qoldiq qiymatlarini qo'shish va 12 ga bo'lish bilan hisoblab chiqariladi.

$$\begin{aligned}
 \text{O'yQQ} = & (4\,996\,775,3 + 4\,829\,465,1 + 4\,685\,754,3 + 5\,986\,897,9 + 5\,830\,108,4 + \\
 & \text{yanvar} \qquad \qquad \text{fevral} \qquad \qquad \text{mart} \qquad \qquad \text{aprel} \qquad \qquad \text{may} \\
 & 5\,986\,897,9 + 5\,830\,108,4 + 5\,679\,532,0 + 5\,543\,424,8 + 5\,374\,546,7 + 5\,208\,344,8 + \\
 & \text{iyun} \qquad \qquad \text{iyul} \qquad \qquad \text{avgust} \qquad \qquad \text{sentyabr} \qquad \qquad \text{oktyabr} \qquad \qquad \text{noyabr} \\
 & 4\,714\,466,3) / 12 = 5\,229\,183,6 \text{ ming so'm} \\
 & \text{dekabr}
 \end{aligned}$$

Mol-mulk solig'i quyidagi formula asosida hisoblab chiqariladi:

$$\mathbf{MmS = SSB * SS}$$

bu yerda:

MmS – mol-mulk solig'i;

SSB – soliq solinadigan baza;

SS – soliq stavkasi.

Misol: “Sharq”AJ mol-mulk solig'ini asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymatini soliq stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblab chiqaradi.

$$\mathbf{MmS = 5\,229\,183,6 \text{ ming so'm} \times 5\% = 261\,459,1 \text{ ming so'm}}$$

O'yQQ

stavka

soliq summasi

Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari bo'yicha mol-mulk solig'i **ikki baravar stavkada** to'lanadi.

**Korxonaning 200,0 mln. so'mlik mol-mulkni o'rtacha yillik
qoldiq qiymatini aniqlash tartibi**

200,000,000 so'm		3% eskirish qiymati	=	6,000,000 som	12 oy	= 500,000 so'm
1	31.01.2019 yil	200,000,000 so'm	—	500,000	=	199,500,000 so'm
2	28.02.2019 yil	200,000,000 so'm	—	500,000*2	=	199,000,000 so'm
3	31.03.2019 yil	200,000,000 so'm	—	500,000*3	=	198,500,000 so'm
4	30.04.2019 yil	200,000,000 so'm	—	500,000*4	=	198,000,000 so'm
5	31.05.2019 yil	200,000,000 so'm	—	500,000*5	=	197,500,000 so'm
6	30.06.2019 yil	200,000,000 so'm	—	500,000*6	=	197,000,000 so'm
7	31.07.2019 yil	200,000,000 so'm	—	500,000*7	=	196,500,000 so'm
8	31.08.2019 yil	200,000,000 so'm	—	500,000*8	=	196,000,000 so'm
9	30.09.2019 yil	200,000,000 so'm	—	500,000*9	=	195,500,000 so'm
10	31.10.2019 yil	200,000,000 so'm	—	500,000*10	=	195,000,000 so'm
11	30.11.2019 yil	200,000,000 so'm	—	500,000*11	=	194,500,000 so'm
12	31.12.2019 yil	200,000,000 so'm	—	500,000*12	=	194,000,000 so'm

Mol-mulkni o'rtacha yillik qoldiq qiymatini soliq stavkasiga qo'llagan holda aniqlash tartibi

$$\begin{aligned} \text{Mol-mulkni o'rtacha yillik qoldiq qiymati} &= \frac{199,500,000 + 199,000,000 \dots + 194,000,000}{12} \\ &= \frac{2,361,000,000}{12} = 196,750,000 \times 2\% = 3,935,000 \end{aligned}$$



Korxonaning 200,0 mln. so'mlik mol-mulkni o'rtacha yillik qoldiq qiymatini aniqlash tartibi

200,000,000 so'm	3% eskirish qiymati	=	6,000,000 so'm	12 oy	=	500,000 so'm
1	31.01.2019 йил	200,000,000 so'm	-	500,000 so'm	=	199,500,000 so'm
2	28.02.2019 йил	200,000,000 so'm	-	500,000*2 so'm	=	199,000,000 so'm

Korxonaning 200,0 mln. so'mlik mol-mulkni o'rtacha yillik qoldiq qiymatini 2019 yil yanvardan avgustgacha bo'lgan summasi xisoblangan

1,386,000,000 so'm

Korxonaning 200,0 mln. so'mlik mol-mulkiga 2019 yil 21 iyuldan 150,0 mln. so'm mol-mulk qo'shildi yillik o'rtacha yillik qoldiq qiymatini aniqlashtiramiz.

150,000,000 so'm	3% eskirish qiymati	=	4,500,000 so'm	12 oy	=	375,000 so'm
8	31.08.2019 yil	350,000,000 so'm	-	500,000*8+375*1	=	345 625 000 so'm
9	30.09.2019 yil	350,000,000 so'm	-	500,000*9+375*2	=	344 750 000 so'm
10	31.10.2019 yil	350,000,000 so'm	-	500,000*10+375*3	=	343 875 000 so'm
11	30.11.2019 yil	350,000,000 so'm	-	500,000*11+375*4	=	343 000 000 so'm
12	31.12.2019 yil	350,000,000 so'm	-	500,000*12+375*5	=	342 125 000 so'm

Korxonaning 2019 yil avgustdan yilning oxirigacha mol-mulkining qoldiq qiymati

ЖАМИ 3 105 375 000 so'm

1 719 375 000 so'm

Korxonaga 2019 yil iyul oyidan mol-mulk qo'shilgan holda mol-mulkni o'rtacha yillik qoldiq qiymatini soliq stavkasiga qo'llagan holda aniqlash tartibi

$$\begin{aligned} &\text{Mol-mulkni o'rtacha yillik qoldiq qiymati} \quad \frac{199\,500\,000 + 199\,000\,000 \dots + 342\,125\,000}{12} = \\ &= \frac{3\,105\,375\,000}{12} = 258\,781\,250 \times 2\% = 5\,175\,625 \end{aligned}$$



1-masala. Fuqaro Safarov Sherzod Toshent shahar Yunusobod tumani TS-2, 24-uydan xarid qilgan 4 xonali kvartirasining texnik inventarizatsiyalash byurosi tomonidan narxlangan bahosi 1850 ming so'mni tashkil etadi.

Mol-mulk solig'i summasini hisoblang?

2-masala. Fuqaro Safarov Shoxrux 2018 yil sentyabr oyida Toshent shahar Chilonzor tumanidan 4,0 sotix maydonga ega bo'lgan turarjoy sotib oldi. Sotib olingan turarjoyning texnik inventarizatsiyalash byurosi xodimlari tomonidan narxlangan qiymati 24500 ming so'mni tashkil etadi.

Mol-mulk solig'i summasini hisoblang va fuqaro Safarov Shoxrux 2018 yil uchun qancha miqdorda soliq to'lashi lozim bo'ladi.

3-masala. Fuqaro Safarov Sanjar 2018 yilda o'z shaxsiy avtomashinasi uchun garaj sotib oldi. Garajning narxlangan qiymati 14800 ming so'mni tashkil etdi.

Fuqaro Safarov Sanjar qancha miqdorda mol-mulk solig'ini to'lashi lozim?

4-masala. Korxona asosiy vositalarining 1 yanvar holati buyicha qiymati 11000 ming so'mni tashkil etib, aprel oyining birinchi o'n kunligida yana 250 ming so'mlik asosiy vosita kirim qilingan. Asosiy vositalarning eskirish qiymati 1 yanvar holatiga 100; 1 fevral holatiga 125; 1 mart holatiga 150; 1 aprel holatiga 250 ming so'mni

tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlarga asosan korxona *mol-mulk solig'ini hisoblang* (1-chorak uchun).

5-masala. 1-masala va quyidagi ma'lumotlarga asosan *mol-mulk solig'ini hisoblang*.

1. 1 – korxonada mahsulot eksporti - 15 % ni;
- 2.2 – korxonada mahsulot eksporti - 20 % ni;
- 3.3 – korxonada mahsulot eksporti - 35 % ni;
4. 4 – korxonada mahsulot eksporti - 50 % ni tashkil etadi.

6-masala. 2018 yil 1 yanvar holatiga mol-mulk solig'i to'lovchi korxonada asosiy vosita va nomoddiy aktivlari bo'lmagan. 13 yanvarda korxona 6700 ming so'mga kompyuter, 25 martda esa 2900 ming so'mga printer sotib olgan.

2018 yil birinchi chorak uchun mol-mulk solig'ini hisoblang?

7-masal. Korxona mol-mulkining o'rtacha qoldiq qiymati 9003 ming so'mni tashkil etadi, bundan:

- Me'yoriy muddatlarda tugatilmagan qurilishning qiymati – 3500 ming so'm;
- 2275 ming so'mni O'zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining qaroriga binoan konservatsiya qilingan.

Joriy davr uchun umumiy tushum 30300 ming so'm, bundan 7300 ming so'mligi korxona o'z mahsulotini erkin valyutaga sotgan.

Joriy davr uchun mol-mulk solig'i necha so'mni tashkil etadi?

Misol: "Gern Plus" korxonasi 8 oktyabrda qiymati 40 160 ming so'mlik bino oldi. U bo'yicha eskirish to'g'ri chiziqli usul bilan 3 % stavka bo'yicha hisoblanadi. 2019 yil uchun bu korxonaning mol-mulk solig'ini hisoblab bering.

2019 yil uchun soliq summasi = $40059,6 \cdot 2\% = 801,2$ ming so'm

1-Masala. Korxonaning balansidagi bino – mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarga muvofiq qiymati – 500 mln. so'm, qoldiq qiymati 01.01.2016 y.da – 400 mln. so'm. Amortizatsiya stavkasi – 10%. Mol-mulk solig'i bazasini aniqlang?

2-Masala. Notijorat tashkiloti pullik malaka oshirish kurslarini ochdi. Bino xonalari ustav faoliyatini amalga oshirishda, shuningdek pullik kurslarni (tadbirkorlik faoliyati) o'tkazishda ishlatiladi. Hisobot davrida a'zolik badallari va maqsadli tushumlar 5 940 ming so'mni tashkil qildi, kurslarda ta'tim olayotganlardan esa 660 ming so'm tushdi. Binoning o'rtacha yillik qoldiq qiymati 360 000 ming so'mga teng. Mol-mulk solig'i solinadigan bazani aniqlang.

Umumbelgilangan soliqlar to'lovchi korxona 2016 yilning noyabr oyiga qadar ijaraga olingan asosiy vositalarda o'z faoliyatini amalga oshirishgan. 2016 yilning noyabrida lizing shartnomasi bo'yicha qiymati 75 000 ming so'm bo'lgan yangi uskuna olingan va ishga tushirilgan (amortizatsiya stavkasi hisob siyosatiga muvofiq – 25%, SKga muvofiq – 15%). Undan tashqari, o'tgan yil

olingan uskunaning o'rnatish muddati 20.11.2016 y.da tugagan. Uskunaning qiymati [hisobvaraq-faktura](#) bo'yicha – 62 000 ming so'm, xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar 1 700 ming so'mni tashkil etgan. Mol-mulk solig'i solinadigan bazani aniqlang.

VIII. Mavzu bo'yicha glossariy.

Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexnizmi bu-yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solish bilan bog'liq bo'lgan, soliqni tashkil qilishda bevosita ishtirok etuvchi elementlar majmui hisoblanadi. Bu majmua: soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliqqa tortiladigan baza, soliq imtiyozlari, soliqni to'lash muddatlari va boshqa elementlardan iborat.

Soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilardir. Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulk bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha mol-mulki bilan javob beradigan, shu jumladan mustaqil balans va hisob-kitob varagiga ega alohida bo'linmalar tushuniladi.

Soliq solinadigan bazani aniqlash - Soliq solinadigan bazani aniqlash uchun, balans aktivida aks ettiriladigan eskirishni chegirgan holda, buhgalteriya hisobining quyidagi hisobvaraqlari bo'yicha summalar qabul qilinadi:

asosiy vositalarni hisobga olish hisobvaraqlari;

uzoq muddatga ijaraga olinadigan asosiy vositalarni hisobga olish hisobvaraqlari;

nomoddiy aktivlarni hisobga olish hisobvaraqlari;

tugallanmagan qurilishni (belgilangan muddatlarda qurilishi tugallanmagan ob'ekt qismida) hisobga olish hisobvaraqlari;

o'rnatishga mo'ljallangan uskunani (me'yor muddatlarida urnatilmagan uskuna qismida) hisobga olish hisobvaraqlari.

Soliq stavkalari quyidagicha:

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga 3 foiz stavkasi bo'yicha soliq solinadi.

Soliq to'lash tartibi -Yuridik shaxslar byudjetga joriy to'lovlar summasini hisobot yili mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan va soliq stavkasidan kelib chiqib mustaqil ravishda belgilaydilar.

Byudjetga joriy to'lovlarni to'lash har oyning 20-kunidan kechiktirmay, yillik soliq summasining 1/12 qismi miqdorida to'lanadi.

Mahsulot eksportini amalga oshiradigan eksportchi korxonalar mol-mulk solig'i hisob-kitobini taqdim etayotganlarida mazkur yo'riqnomaning 5-ilovasiga binoan eksport qilinadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ga doir ma'lumotnomani taqdim etadilar.

Eksportchi korxonalar eksport ulushi 15 dan 25 foizgacha bo'lganda hisob-kitob shaklida 2-satrning 3-ustunida soliq stavkasini kasr chizigi orqali ko'rsatadilar (2%; 0,6%).

Eksportchi korxonalar eksport ulushi 25 dan 50 foizgacha bo'lganda hisob-kitob shaklida 2-satrning 3-ustunida soliq stavkasini kasr chizigi orqali ko'rsatadilar (2%/1%).

Agar eksport ulushi 50 foizdan ortiq bo`ladi, 2-ustunning 3-ustuniga chizib qo`yiladi.

Ortiqcha to`langan soliq summolari, agar soliqlar va yigimlar bo`yicha karz mavjud bo`lmasa, to`lovchining yozma arizasiga ko`ra bo`lg`usi to`lovlar hisobiga qayd etiladi yoki 30 kun ichida qaytariladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq - bu bevosita soliq bo`ladi, u o`zining ushbu sifati bilan moddiy boyliklarni olish va jamyoarish jarayonida undiriladi. Bu real soliqdir, («real» atamasi (inglizcha real - mulk) ayni ushbu soliq birinchi galda fuqaro egalik qilinadigan mol - mulk solinishi bilan bog`liq). Bu muntazam soliq hisoblanadi, ya`ni u yarim yilda bir marta muntazam ravishda undiriladi. Nixoyat bu hududiy soliq bo`ladi, u O`zbekiston Respublikasi hududida bo`lgan va unda ro`yxatga olingan ko`chmas mulk va transport vositalari (2002 yil 1 yanvardan transport vositalari dvigatel quvvatidan olinadigan soliq bekor qilingan) uchun to`lanadi. Respublika fuqarosi, boshqa davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo`lmagan shaxs, O`zbekiston rezidenti yoki norezidenti bo`lishidan qat`iy nazar soliq solinadigan mol-mulkka ega bo`lgan jismoniy shaxslar mol-mulk solig`i to`lovchilari bo`ladi hisoblanadi.

**Soliq solish ob`ekti** – bu sub`ektning soliq to`lash majburiyatini shart qilib qo`yuvchi yuridik dalillardir (mazkur holatda mulkchilik huquqida mol-mulkka egalik qilish bunday yuridik dalil hisoblanadi).

Soliq solish predmeti (atama mazmuniga ko`ra soliq solish ob`ektiga yaqin) – bu tegishli soliqning undirilishini asoslab beruvchi daliliy xususiyatdagi belgilardir. Masalan, uy, kvartira kabi mol-mulk uchun mulkchilik huquqi ob`ekti bo`ladi, uy yoki kvartiraning o`zi esa soliq solish predmeti hisoblanadi va x.k.

10-AMALIY MASHG`ULOT:

YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG`I

Reja:

- 1.Yer solig`i joriy etilishining asosiy sabablari.
- 2.Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig`ini to`lovchilar tarkibi.
- 3.Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig`i va uning iqtisodiy ahamiyati.
- 4.Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig`ining to`lovchilari.

I. Darsning maqsadi. Yer solig`i joriy etilishining asosiy sabablari. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig`ini to`lovchilar tarkibi. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig`ining soliq solish ob`ekti. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig`i stavkalari. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig`i va uning iqtisodiy ahamiyati. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig`ining to`lovchilari. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig`ining ob`ekti va uni aniqlash tartibi. Yer solig`i bo`yicha jismoniy shaxslarga beriladigan imtiyozlar. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig`i stavkalari va ularning tabaqalanishi. Yer solig`i hisoblash va uni byudjetga undirish tartibi. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig`ini to`lash muddatlarini o`rganish.

II. Amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun ma'lumotlar.

2019 yil 1 yanvardan boshlab barcha tadbirkorlik sub'yektlari, shu jumladan, ilgari soddalashtirilgan soliq solish tartibini qo'llagan mikrofirmalar va kichik korxonalar ham yer solig'i, mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalangan taqdirda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashga o'tishi shart!

Soliq solish ob'ekti bo'lib - Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari.

Soliq solinadigan baza bo'lib - Soliq kodeksiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy yer maydoni.

Yer solig'ining stavkalari yer maydonining joylashgan joyiga qarab aniqlanadi.

Yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarori bilan tasdiqlanadi.

Barcha toifadagi qurilishi tugallanmagan ob'ektlar, bo'sh turgan binolar, noturar inshootlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari egallagan yer uchastkalari bo'yicha yer solig'i stavkasi xulosa berilganidan keyingi oydan boshlab:

- ikki karra miqdorda;
- 6 oy o'tgandan so'ng - besh karra miqdorda;
- 12 oy o'tgandan so'ng va keyinchalik - o'n karra miqdorda tatbiq etiladi.

Yer solig'i soliq davrining 1 yanvar holatiga ko'ra hisoblab chiqariladi.

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan yer solig'i summasi quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\mathbf{YeS=SSB*SS*K}$$

Bu yerda:

YeS – yer solig'i summasi;

SSB – soliq solinadigan baza (yer maydoni, gektar);

SS – soliq stavkasi;

K – tuzatuvchi va yer maydonini markazlarga yaqin joylashuviga qarab qo'llaniladigan koeffitsient.

Misol: “Sharq” AJ yer solig'i summasini umumiy maydonni soliq stavkasiga ko'paytirish orqali hisoblab chiqaradi.

$$\mathbf{YeS = 1,2 \text{ gektar} \times 78 \text{ 705 281 so'm (3-zona)} = 94 \text{ 446 337 so'm}}$$

yer maydoni soliq stavkasi soliq summasi

Yer solig'i hisob-kitobi joriy soliq davrining 10 yanvariga qadar taqdim etiladi.

2019 yildan boshlab yer solig'ini to'lash:

- mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan har chorakning birinchi oyning 10 kuniga qadar yer solig'i yillik summasining to'rtidan bir qismi miqdorida amalga oshiriladi.


- mikrofirma va kichik korxonalar turkumiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan har oyning 10 kuniga qadar yer solig'i yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida amalga oshiriladi.

Yer solig'i	2020 yilda 1,15 baravarga oshadi
qishloq xujaligiga muljallangan yerlar uchun	0,95 foiz (yerning normativ qiymatidan)


III. Darsda qo`laniladigan grafik organayzerlar.

Quyidagi rasmni mos javoblar bilan ketma-ketlikda to'g'ri to'ldiring!

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lashning huquqiy va nazariy asoslari.



Yer solig'i ob'jekti sifatida qaralmaydigan ob'yektlarni bo'sh kataklarni to'ldiring



IV. Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi" (2020 yil 1-yanvar amalga kiritilgan) T – 2019 y.
2. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo'rayev. – T.: "Sharq" nashryoti – 2009 y. – 400 b.
3. Yuldashev A. "Soliq va soliqqa tortish". O'quv qo'llanma. T.: "Fan va texnologiya". 2007 y. 128 b.
4. Александров И. Налоги и налогообложения. Учебник. М. "Дашков и К" 2006 г. С.312.
5. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O'quv qo'llanma. T. "Iqtisodiyot va moliya" 2005 y. 282 b.
6. Jo'raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. T. "Fan" 2004 y. 387 b.
7. Jo'raev A. "Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O'quv qo'llanma. T. "Iqtisodiyot va moliya" 2005 y. 120 b.
8. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. . T. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi. 2005 y. 544 b.
9. Malikov T. "Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari". T. Akademiya. 2002 y. 253 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. "2019 yilda soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o'zgarishlar yuzasidan o'quv qo'llanma". T. 2019 y.

V. Mavzu bo'yicha nazorat savollari.

1. Yer solig'ining iqtisodiy mohiyatini izohlab bering.

2. Yer solig`ini qanday yuridik shaxslar to`laydilar?
3. Yer solig`i ob`ektiga qanday yer maydonlari kiradi?
4. Yer solig`i stavkalari kim tomonidan belgilanadi va yer solig`idan yuridik shaxslar qanday imtiyozlarga ega?
5. Yer solig`ini yuridik shaxslar qanday muddatlarda to`laydilar?
6. Qanday jismoniy shaxslar yer solig`ining to`lovchilari bo`ladi hisoblanadi?
7. Jismoniy shaxslarning yer solig`i ob`ektiga nimalar kiradi?
8. Yer solig`i stavkasini belgilash tartibi qanday?
9. Yer solig`idan jismoniy shaxslar qanday imtiyozlar olish huquqiga ega?
10. Jismoniy shaxslar yer solig`ini kim hisoblaydi va yer solig`ini to`lash muddatlari qanday?

VI. Mavzu yuzasidan test savollari.

1. Yer solig`ini kim to`laydi?

- A) Fuqarolar;
- B) Yuridik shaxslar;
- C) Sanoat korxonalari;
- D) Hamma javob to`g`ri.

2. Yer solig`i:

- A) Faqat pul bilan to`lanadi;
- B) Naturada;
- C) Aralash shaklda;
- D) Umuman to`lanmaydiq

3. Yer solig`i stavkalari kim tomonidan belgilanadi?

- A) O`zbekiston Prezidenti;
- B) Oliy majlis;
- C) Vazirlar mahkamasi;
- D) Davlat soliq qo`mitasi.

4. Yer soligi qaysi byudjetiga to`lanadi?

- A) Davlat byudjetiga;
- B) Mahalliy byudjetga;
- C) 65% davlat byudjetiga 35% mahalliy byudjetga;
- D) 65% mahalliy byudjetiga.

5. Ijaraga olingan yerlar uchun yer solig`ini kimlar to`laydi?

- A) Yerni ijaraga berganlar;
- B) Yerni ijaraga olganlar;
- C) Ikki tomon ham teng ulushlar;
- D) Ijaraga berilgan yerlar soliqdan ozod qilingan

6.Yer solig'i va yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarni berish qaysi davlat organi tomonidan amalga oshiriladi?

- A) Oliy majlis tomonidan;
- B) Davlat Soliq Qo'mitasi tomonidan;
- C) Mahalliy davlat xokimiyati organlari tomonidan;
- D) Moliya Vazirligi tomonidan.

7. Yer solig'ini joriy yetishdan ko'zlangan maqsadlarni ko'rsating.

- A) Davlat byudjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash, yer resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishni rag'batlantirish
- B) Yuridik shaxslarning moliyaviy resurslarga bo'lgan yehtiyojini qondirish
- C) Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash
- D) Tijorat banklarining moliyaviy resurslarga bo'lgan yehtiyojini qondirish

8. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha soliq ob'ektini aniqlang

- A) Mulk huquqi, yegalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari
- B) Kommunal-maishiy yerlar
- C) Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari
- D) Aholining madaniy-maishiy yehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar.

9. O'zbekiston Respublikasida zaxira yerlarga yer solig'i hisoblanadimi?

- A) Soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi
- B) Soliqqa tortiladi
- C) Soliq solishdan qisman ozod qilinadi
- D) Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga kiradi.

10. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?

- A) mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari
- B) foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar
- C) egaligida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar
- D) o'z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari

11.Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solinadigan ob'ekti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari
- B) ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari
- C) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yer uchastkalari
- D) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yer uchastkalari

12. Jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomasini taqdim etish muddati qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) joriy yilning 15 iyunigacha
- B) joriy yilning 25 apreliyigacha
- C) joriy yilning 1 mayigacha
- D) joriy yilning 5 yanvarigacha

VII. Mavzu bo'yicha masalalar.

Masalan: 1,2 gektar maydondagi yer uchastkasida joylashgan 3-qavatli bino, amalda uchta yuridik shaxslar tomonidan teng ulushda (har bir yuridik shaxs 1 qavatdan foydalanadi – yoki aytish mumkinki umumiy uchastkaning 0,4 gektardan) foydalaniladi. Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'i to'lovchisi hisoblanadi;

Biroq, ushbu uchastka bo'yicha doimiy foydalanish huquqini tasdiqlovchi davlat dalolatnomasi, faqat ulardan biriga berilganda 1,2 ga uchun soliqni hujjat rasmiylashtirilgan yuridik shaxs to'laydi.

Misol. Yuridik shaxsdan yer uchastkasining bir qismi olib qo'yildi, undan foydalanish huquqi 29 oktyabrda to'xtatildi. Yuridik shaxsning soliq solinadigan bazasi 1 oktyabrdan boshlab olib qo'yilgan yer uchastkasining maydoniga kamaytiriladi;

Misol. Agar imtiyoz 21-yanvarda vujudga kelgan bo'lsa, 1 yanvardan boshlab soliqni imtiyozni hisobga olgan holda hisoblash mumkin;

Misol. Agar imtiyoz 2-yanvarda o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, yer solig'i 1 fevraldan boshlab esa imtiyozsiz hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonasiga Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yer uchastkasi ajratilgan. Yer kadastrining ma'lumotlariga ko'ra, yer uchastkasidan foydalanish huquqi ro'yxatga olingan vaqtda sug'oriladigan yertuprog'ining bonitet balli 63 ballni tashkil etgan.

Faoliyati davomida soliq to'lovchining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlari sifati yomonlashdi va bonitet balli 50 gacha tushdi.

Bunday vaziyatda soliq to'lovchi yer solig'ini yer sifati yomonlashguniga qadar o'rnatilgan stavka bo'yicha to'laydi, ya'ni 2018 yilda 1 gektar uchun 226709,1 so'm miqdorda o'rnatilgan 63 ga teng bonitet ball bo'yicha to'laydi ($25189,9 \times 9$) (yer solig'ining stavkasi = sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlariga yer solig'ining bazaviy stavkasi $\times$ yer uchastkasining sifat ko'rsatkichini ya'ni bonitet ballini hisobga oluvchi tuzatish koeffitsenti).

Yuridik shaxsga Bekobod shahrining ma'muriy chegarasida joylashgan, bonitet balli 54 ga teng bo'lgan qishloq xo'jaligi uchunmo'ljallangan yer uchastkasi ajratildi. 2018 yilda yer solig'ining stavkasi 1 gektar uchun 143 933,3 so'm miqdorda o'rnatilgan ($21\ 229,1 \times 6,78$) Yer uchastkasi Bekobod shahrining ma'muriy chegarasida joylashganligini inobatga olsak, yer solig'i stavkasiga 2 koeffitsent qo'llaniladi. Yer solig'i stavkasi 1 gektar uchun 287 866,6 so'mni tashkil etadi ($143\ 933,3 \times 2$) (yer solig'ining stavkasi = sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlariga yer solig'ining bazaviy stavkasi x yer uchastkasining sifat ko'rsatkichini ya'ni bonitet ballini hisobga oluvchi tuzatish koeffitsenti).

Tuproq bonitirovkasi ishlarini o'tkazish va hujjatlarni tasdiqlash tartibi to'g'risidagi Nizom (AV-2521 07.11.2013 y.ro'yx.)

Masalan:Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi yuridik shaxsga jami lalmi ekinzor, bo'z yerlardan ko'p yillik ko'chatlarni yetishtirish uchun 68,2 gektar yer maydonalari ajratilgan shundan tekislik zonasidan 42,6 gektar, adir zonasidan 17,8 gektar va tog' oldi va tog'lik zonasidan 7,8 gektar yer uchastkasi ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qarorining 16-ilova 2-jadvaliga muvofiq belgilangan. 2019 yilda 1 gektar uchun yer solig'ining summasi tekislik zonasiga 136264,6 ($42,6 \times 3198,7$) so'm, adir zonasi uchun 94147,8 ($17,8 \times 5289,2$) so'm, tog' oldi va tog'lik zona uchun 49499,6 ($7,8 \times 6346,1$) so'm jami 279912,0 so'm yer solig'i to'laydi.

Toshkent viloyati Parkent tumanidagi yuridik shaxsga jami sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar uchun 380 gektar yer maydonalari ajratilgan, shundan cho'l yerlaridan 286 gektar, adir yerlaridan 64 gektar va tog' yerlaridan 30 gektar yer uchastkasi ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PQ-4086-sonli qarorining 16-ilova 3-jadvaliga muvofiq belgilangan. 2019 yilda 1 gektar uchun yer solig'ining summasi cho'l yerlariga 177062,6 ($286 \times 619,1$) so'm, adir yerlari uchun 60627,2 ($64 \times 947,3$) so'm, tog' oldi va tog'lik yerlar uchun 38850 (30×1295) so'm jami 276539,8 so'm yer solig'i to'laydi.

Toshkent viloyati Bo'ka tumanida faoliyat ko'rsatadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonaning 32 gektar sug'oriladigan 6-toifali yer maydoni mavjud bo'lib, ushbu yer maydonining 1,2 gektar maydonida jamoat qurilmalari (shiypon) joylashgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib korxona tomonidan 2019 yilda to'lanishi lozim bo'lgan yer solig'ini hisoblang.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil dekabrda PQ-4086-sonli qarorining 16-ilova 1-jadvaliga asosan, Toshkent viloyatida sug'oriladigan 6-toifali yer maydonining 1 gektari uchun 189 801,4 ($27\ 994,3 \times 6,78$) so'm yer solig'i,

mazkur qarorning 4-jadvasiga asosan, qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan jamoat qurilmalari egallagan yer maydonlarining 1 gektari uchun 503 250,4 so'm belgilangan.

Yer solig'ini hisoblaymiz:

1. Korxonaning sug'oriladigan 6-toifali 30,8 (32-1,2) gektar yer maydoniga 5 845 883,1 (30,8 x 189 801,4) so'm yer solig'i;

2. Korxonaning jamoat qurilmalari egallagan 1,2 gektar yer maydoniga 603 900,5 (1,2 x 503 250,4) so'm yer solig'i hisoblanadi.

Demak korxona 2019 yil uchun 6 449 783,6 (5 845 883,1 + 603 900,5) so'm yer solig'i to'laydi.

Toshkent viloyati Bo'ka tumanida joylashgan "Kamol" agrofirma sabzavot (kartoshka, piyoz va sabzi) mahsulotlarini yetishtirish uchun tuman hokimining qaroriga asosan 1,7 gektar sug'oriladigan hamda 1,4 gektar sug'orilmaydigan yer maydoniga ega.

Korxonaga tegishli sug'oriladigan yer maydonining ball boniteti 55 ga, shuningdek sug'orilmaydigan yer maydonining ball boniteti 14 ga teng.

Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalangan holda korxona tomonidan 2019 yilda to'lanishi lozim bo'lgan yagona yer solig'i miqdorini aniqlang.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda 4086-sonli qarorining 20-ilovasiga asosan, mazkur korxona uchun sug'oriladigan yerlarga yer solig'i 56 073,6 so'm, sug'orilmaydigan yerlarga yer solig'i 9 888,0 so'm yer solig'i stavka belgilangan.

Yerlarning unimdorligi (ball boniteti) inobatga olingan holda soliq stavkalariga quyidagicha tuzatish koeffitsientlari qo'llaniladi.

1. Korxonaning sug'oriladigan yeri 6-toifali yer maydoni hisoblanib, unga nisbatan 6,78 tuzatish koeffitsient qo'llaniladi.

2. Sug'orilmaydigan yer maydoni 2-toifali yer hisoblanib, unga nisbatan 1,5 tuzatish koeffitsienti qo'llaniladi.

Sug'oriladigan yer maydoni uchun 646 304,3 (1,7 x 6,78 x 56 073,6) so'm miqdorida.

Sug'orilmaydigan yer maydoni uchun 207 664,8 (1,4 x 1,5 x 9 888,0) so'm miqdorida.

Demak, korxona 2019 yil uchun 853 969,1 (646 304,3 + 207 664,8) so'm yagona yer solig'i to'laydi.

1-masala. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida joylashgan fermer xo'jaligi 2018 yilda 55.0 ga sug'oriladigan yer maydoniga ega. Shundan 35.0 ga ning ball boniteti 6 kali (51 – 60 ball), 20.0 ga esa 7 kall (61 – 70 ball) hisoblanadi.

Fermer xo'jaligining hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yagona yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlarini aniqlang.

2-masala. Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi shirkat xo'jaligining 2018 yildagi yer maydoni quyidagicha:

1. Sug'oriladigan yerlar

5 kali – (41-50 ball) - 40 ga

7 kali – (61-70 ball) - 80 ga

8 kali – (71-80 ball) - 120 ga

2. Lalmi yerlar - 485 ga

3. Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar - 125 ga

Jami: 850 ga

Ushbu ma'lumotlarga asosan shirkat xo'jaligi to'lashi lozim bo'lgan yagona yer solig'ini hisoblang.

3-masala. 2018 yilda fermer xo'jaligi foydalanish uchun 100 gektar yer uchastkasi Surxondaryo viloyati Denov tumanining sug'oriladigan yerlarida joylashgan bo'lib, sifati jihatidan ball-boniteti 61-70 ga to'g'ri keladi.

Soliqning bazaviy stavkasi bir gektar uchun 1476,2 so'm, 61-70 ball-bonitet uchun koeffitsient 9,00 ga teng.

Aniqlang:

Fermer xo'jalikning faoliyati natijasiga bog'liq bo'lmagan holda fermer xo'jaligi qancha yagona yer solig'i to'lashi lozim?

4-masala. "Mingbuloq" hissadorlik jamiyatining yer solig'i summasi 75 mln. so'mni tashkil etadi. Soliqning yig'imi darajasi 97%, kelgusi yil indeksatsiyasi 1,5 ni tashkil etadi. Korxonaning 2019 yilda kutilayotgan soliq summasini hisoblang:

5-masala. Toshkent shahrining 8 zonasida joylashgan ishlab chiqarish korxonasiga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 5.5 ga ni tashkil etadi. Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang va to'lash muddatlarini belgilang.

6-masala. Zarafshon shahrining 3 zonasida joylashgan korxonaga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 3,75 ga, haqiqiy foydalanilishdagi yer maydoni esa 4,5 ga ekanligi aniqlandi. Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblaymiz.

7-masala. Fuqaro Safarova Shaxzoda 2018 yil 10 yanvarda Toshkent viloyati Qibray tumanidan 6 sotix yer uchastkasini uy-joy qurish uchun sotib oldi.

Fuqaro Safarova Shaxzoda sotib olgan yer uchastkasi uchun qancha miqdorda yer solig'ini to'lashi lozim. *Yer solig'i summasini hisoblang?*

8-masala. Fuqaro Romozonov Akbar Surxondaryo viloyatining Denov tumanida yashaydi. Uning yer uchastkasi 15 sotixni tashkil etadi.

Fuqaro Romozonov Akbar yer uchastkasi uchun qancha miqdorda yer solig'ini to'lashi lozim. *Yer solig'i summasini hisoblang?*

VIII. Mavzu bo'yicha glossariy.

Yer solig'ini to'lovchilar - Yer solig'ini to'lovchilar bo'ladi o'zining mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalari bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Yagona soliq to'lashga o'tgan kichik korxonalar, savdo tashkilotlari yer solig'i to'lamaydilar. Yerni ijaraga olgan yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining, mahalliy hokimiyat idoralarining qarori bilan ijara olingan yerlar uchun yer solig'i urniga byudjetga ijara haqi to'laydilar.

11-AMALIY MASHG'ULOT: SOLIQ SOLISHNI SODDALASHTIRISH TARTIBI

Reja:

- 1.Soddalashtirilgan soliq tizimining soliq amaliyotiga tadbqiq etilishi.
- 2.Soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyati.
- 3.Soddalashtirilgan soliq tizimining tarkibiy tuzilishi: yagona soliq to'lovi, qat'iy belgilangan soliq.
- 4.Yagoga soliq to'lovchilari tarkibi, soliq ob'ekti va stavkalari..

I. Darsning maqsadi. Soddalashtirilgan soliq tizimining soliq amaliyotiga tadbqiq etilishi. Soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyati. Soddalashtirilgan soliq tizimining tarkibiy tuzilishi: yagona soliq to'lovi, yagona Yer solig'i, qat'iy belgilangan soliq. Yagoga soliq to'lovchilari tarkibi. Yagona soliq to'lovining soliq ob'ekti. Yagona soliq to'lovi stavkalari. Yagona soliq to'lovini hisoblash va to'lash tartibi. Yagona Yer solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'ekti va bazasi. Soliq imtiyozlari va soliqni hisoblash va to'lash muddatlari. qat'iy belgilangan soliq va uning o'ziga hos xususiyatlarini o'rganish.

II.Amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun ma'lumotlar:

Yakka tartibdagi tadbirkor - tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir.

Yakka tartibdagi tadbirkor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlarni yollashga haqli.

Yakka tartibdagi tadbirkor amaldagi qonunchilikka asosan **qat'iy belgilangan soliq** to'lovini amalga oshiradi.

Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlarining ro'yxati, shuningdek faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Qat'iy belgilangan soliq summasi soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda quyidagilarni to'laydilar:

- 1) bojxona to'lovlari;
- 2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq - suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;
- 4) aksiz solig'i - aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;
- 5) byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'iy nazar, qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar.

Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 10-kunidan kechiktirmay har oyda, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi.

Amaldagi qonunchilikka asosan xususiy tadbirkorlar chakana savdo, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi jami 81 ta faoliyat bilan yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishlari, bu jarayonda bir nafardan uch nafargacha xodimni yollab ishlatishlari mumkin. Jumladan, yakka tartibdagi tadbirkor:

- chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanganda bir nafar;
- maishiy xizmat ko'rsatish faoliyatilari bilan shug'ullanganda uch nafargacha;
- faoliyatning boshqa turlari bilan shug'ullanganda ikki nafargacha xodimni yollab ishlatishga ruxsat etilgan.

Lekin, o'rganishlar natijalari shuni ko'rsatdiki:

- **birinchidan**, qurilish materiallari, tsement, shifer, yog'och va yog'och mahsulotlari hajmining kattaligi va vaznining og'irligi sababli, xususiy tadbirkorlar ushbu mahsulotlarni transport vositalariga yuklash, tashish, tushirish, qadoqlash, qo'riqlash va sotishni ruxsat etilgan bir nafar yollanma ishchi bilan bajara olmayotganliklari sababli qonunchilikda belgilanganidan ortiqcha xodimlarni yollab norasmiy ishlatishga majbur bo'lmoqda.

- **ikkinchidan**, alyumeniy (plastik) profillardan eshik, deraza va boshqa buyumlarni tayyorlash yirik uskunalardan foydalanilgan hoda, sanoat usulida amalga oshirilishi shuningdek, hamda xom-ashyo materiallari va tayyor mahsulotlarni ortish, tashish, tushirish va o'rnatish uchun ko'p ishchi kuchi talab etilishi sababli xodimlarni norasmiy yollab ishlatishga to'g'ri kelmoqda.

Shu kabi holatlar avtomobillarni yuvish faoliyati bo'yicha ham kuzatilmoqda.

Natijada, norasmiy yollangan xodimlarning mehnat muhofazasi va mehnat xavfsizligi ta'minlanmasdan, mehnat stajlari yuritilmasligiga hamda kelgusida asoslangan pensiya to'lovi kafolatlanmasdan qolishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuniga binoan yuk ortish va tushirish ishlari og'ir va xavfli ishlar toifasiga kiritilgan bo'lib, ish jarayonida bir xodimning doimiy ko'taradigan yuk og'irligi 15 kg dan va ish smenasi davomida jami ko'taradigan yuk og'irligi 870 kg dan ortiq bo'lmasligi lozim.

Lekin sement (1 qopi 50 kg), shifer, va yog'och mahsulotlari sotishda (1 nafar ishchi bilan) mazkur normalarga amal qilib bo'lmaydi.

Yuqoridagi sabablarga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 oktyabrdagi 850-son qaroriga asosan Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Qarordagi shu kabi 14 ta faoliyat turlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilib, ayrim yo'nalishlardagi faoliyat turi bo'yicha faqat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirilishi belgilandi.

Xususan,

№	Oldingi tahrirda	Amaldagi tahrirda (2019 yil 1 yanvardan)
1.	Oziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish (o'simlik moyi, alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini sotishdan tashqari)	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish (qurilish materiallari, tsement, shifer, yog'och va yog'och mahsulotlari, alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlarining barcha turlarini, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar yoxud bunday materiallar qo'llanilgan buyumlarni, audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlarni, yangi import avtomobillar va farmatsevtika tovarlarini sotish bundan mustasno)
2.	Nooziq-ovqat tovarlarini chakana sotish (neft mahsulotlarining barcha turlarini, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar yoxud bunday materiallar qo'llanilgan buyumlarni, audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlarni, yangi import avtomobillar va farmatsevtika tovarlarini sotish bundan mustasno)	
3.	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarini chakana sotish (turg'un shoxobchalarda aralash savdo qilish)	
4.	Tovarlarni import qilish va chakana sotish	Tovarlarni import qilish va chakana sotish (qurilish materiallari, tsement, shifer, yog'och va yog'och mahsulotlari, o'simlik moyi, alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlarining barcha turlarini, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar yoxud bunday materiallar qo'llanilgan buyumlarni, audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlarni, yangi import avtomobillar va farmatsevtika tovarlarini sotish bundan mustasno) import qilinadigan tovarlarning narxi bir oyda 5000 AQSh dollaridan oshmaslik sharti bilan
5.	Qo'shimcha faoliyat turi qo'shildi.	Ko'chma savdo ob'ektlarida aralash chakana savdo qilish (vaqtincha joylashgan va mavsumiy yoki maqsadli

№	Oldingi tahrirda	Amaldagi tahrirda (2019 yil 1 yanvardan)
		xususiyatga ega bo'lgan, shuningdek ish kuni tamom bo'lgandan keyin yig'ishtirib olishni va ob'ekt ko'chirilishini talab etish asosida joylashtirilgan savdo ob'ektlari)
6.	Tikuv, mo'yna, charm va trikotaj buyumlarni, bosh kiyimlarni, to'qimachilik galantereyasidan tikilgan buyumlarni ta'mirlash va tikish, shu jumladan deraza va eshik pardalari tikish, trikotaj buyumlarni to'qish	Tikuv, mo'yna, charm va trikotaj buyumlarni, bosh kiyimlarni, va to'qimachilik galantereyasidan tikilgan buyumlarni ta'mirlash, aholining yakka tartibdagi buyurtmalar bo'yicha tikuv va trikotaj buyumlarini, bosh kiyimlarini va to'qimachilik galantereyasidan buyumlarni tikish, shu jumladan deraza va eshik pardalarini tikish, kashtachilik
7.	Yakka buyurtmalar bo'yicha poyabzal tayyorlash va tikish, poyabzalni ta'mirlash, bo'yash va tozalash	Aholining yakka tartibdagi buyurtmalari bo'yicha poyabzal tikish, poyabzalni ta'mirlash, bo'yash va tozalash
8.	Yog'ochdan (mebeldan tashqari) va alyuminiy (plastik) profildan eshik, deraza va boshqa buyumlar tayyorlash.	Yog'ochdan eshik, deraza va boshqa buyumlar (mebeldan tashqari) tayyorlash
9.	Mebelni yig'ish va ta'mirlash	Tayyor mebelni yig'ish, ta'minlash va drapirovka qilish
10.	Transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, shu jumladan transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish xizmatlarining boshqa turlari (akustik tizimlar va qo'riqlash signallarini ta'mirlash va o'rnatish, yuvish, tekislash, kuzovga himoya va bezak qoplamalari qoplash, salonni tozalash va shunga o'xshash boshqa xizmatlar)	Transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, shu jumladan, transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish xizmatlarining boshqa turlari (akustik tizimlar va qo'riqlash signalizatsiyalarini ta'mirlash va o'rnatish, polirovkalash, kuzovga himoya va bezak qoplamalari qoplash xizmatlari)
11.	O'simlik, hayvonlar va minerallardan tayyorlangan dorivor xom ashyoni yetishtirish, yig'ishtirish, tayyorlash, qadoqlash va ulgurji sotish	O'simlik, hayvonlar va minerallardan tayyorlangan dorivor xom ashyoni yetishtirish, yig'ishtirish, tayyorlash va sotish.

№	Oldingi tahrirda	Amaldagi tahrirda (2019 yil 1 yanvardan)
12.	Jismoniy va yuridik shaxslarga maxsus texnikadan (traktorlar, avtokranlar, buldozerlar, ekskavatorlar va boshqalardan) foydalangan holda xizmatlar ko'rsatish	Jismoniy va yuridik shaxslarga maxsus va qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalangan holda xizmatlar ko'rsatish
13.	Qurilish, ta'mirlash va bezash bo'yicha alohida ishlarni bajarish (kapital qurilish, qurilish-montaj ishlari bo'yicha yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatishdan tashqari)	Aholi uchun turar va noturar joylarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
14.	Vitraj ishlari (shisha, smalta va boshqa materiallardan tayyorlangan vitrajlar)	Faoliyat turlari ro'yxatidan chiqarib tashlandi
15.	Milliy shirinliklar, non-bulka va qandolatchilik mahsulotlari, popkorn, frezerda muzqaymoq, salatlar va tuzlamalar tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda o'tirish joylari tashkil etmasdan donalab sotiladigan taomlarning ayrim turlarini tayyorlash.	Qadoqlash uskunalaridan foydalanmagan holda uy sharoitida milliy shirinliklar, qandolat va qurt mahsulotlarini maishiy texnika qo'llagan holda tayyorlash va sotish
		Milliy non va patir tayyorlash va sotish
		Popkorn, frezerda muzqaymoq, salqin ichimliklar, ayron va go'ja tayyorlash va quyib sotish
		Salatlar va tuzlamalar tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitida donalab sotiladigan taomlarning ayrim turlarini tayyorlash va o'tirish joylari tashkil etmasdan yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda sotish.


Shu bilan birga 2019 yilgi soliq siyosati kontseptsiyasida yakka tartibdagi tadbirkorlarning o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik yoki joriy yil davomidagi aylanmasi (yalpi tushumi):

- 100 mln.so'mgacha bo'lganda qat'iy belgilangan soliqni;
- 100 mln.so'mdan 1 mlrd.so'mgacha bo'lganda yakka tartibdagi tadbirkorlik maqomini saqlab qolgan holda yagona soliq to'lovini;
- 1 mlrd.so'mdan oshganda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini to'xtatib, yuridik shaxs sifatida qayta ro'yxatdan o'tgan holda umumbelgilangan soliqlarni to'lashlari nazarda tutilmoqda.

2019 yildan boshlib, 100 mln.so'mgacha tovar aylanmasini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun amaldagi qat'iy soliq stavkasi 20-35 foizgacha kamaytirilgan holda qat'iy summalarda qat'iy belgilangan soliq joriy etilmoqda.

Masalan, Toshkent shahrida chakana savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor 2018 yilda har oyda eng kam ish haqining 7 baravari miqdorida ya'ni 1 205,6 ming.so'm qat'iy belgilangan soliq to'lovini amalga oshirib kelayotgan bo'lsa, 2019 yildan boshlab, har oyda 800 ming.so'm miqdorida (33 foizga kamaygan) qat'iy summada qat'iy soliq to'lovini amalga oshirishi belgilanmoqda.

2019 yildan boshlab yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish ma'muriyatchiligi to'g'risida.



Yagona soliq rejimiga o'tishda qo'yidagi talablar qo'yilmoqda:

Tovar aylanmasi 100 mln.so'mdan oshgan oyning keyingi oyidan boshlab yagona soliq to'lovi rejimiga o'tadi. *(joriy oy uchun qat'iy soliq to'laydi)*

Yagona soliq to'lovi rejimiga o'tgan oydan boshlab yalpi tushimi o'sib boruvchi tartibida hisoblanadi.


Yagona soliq rejimiga o'tgandan so'ng yalpi tushumi miqdoridan qat'i nazar, qat'iy belgilangan soliq to'lovi rejimiga o'tkazilmaydi.

O'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik yoki joriy yil davomidagi realizatsiya qilingan tovar (ishlar, xizmatlar) aylanmasi (yalpi tushumi) 100 mln.so'mdan 1 mlrd.so'mgachani tashkil etganligi sababli yagona soliq to'lovini to'lashga o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar - realizatsiya qilingan tovar (ishlar, xizmatlar) aylanmasining (yalpi tushum) chegirmasidan oshgan summasiga yagona soliq to'lovini to'lash majburiyati paydo bo'ladi.

Bunda, yagona soliq to'lovi summasi yakka tartibdagi tadbirkor ushbu faoliyati amalga oshirish uchun hisoblanadigan qat'iy belgilangan soliq summasidan kam bo'lmasligi kerak.

Bir necha faoliyat amalga oshirilayotgan taqdirda, yagona soliq summasi yakka tartibdagi faoliyati uchun qat'iy belgilangan soliq stavkasining eng yuqorisi olinadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan soliq stavkalari:



Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish, ularga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, o'sib kelayotgan yosh avlodni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish, aholining ish bilan bandligini ta'minlash hamda oilalar daromadlilik darajasini oshirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

1. Soliq kodeksining 311 va 375-moddalariga kiritilgan qo'shimchalarda yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarining oila a'zolari uchun qat'iy belgilangan soliqni va sug'urta badallarini to'lash ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab *(yoki shu o'tgan oy uchun imtiyozga ega)* amalga oshirilishi belgilandi.

2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 375-moddasiga 2015 yildan boshlab kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga asosan, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari kollejni tamomlagandan keyin o'n ikki oy ichida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan taqdirda, ro'yxatidan o'tgan sanadan e'tiboran qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan olti oy muddatga ozod etildi.

3. Shuningdek, yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironi bo'lgan shaxslar uchun sug'urta badalining miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'risida"gi PF-5270-sonli Farmoniga asosan **2018 yilning 1 yanvaridan** boshlab faoliyat ko'rsatish turi va uni amalga oshirish joyidan qat'iy nazar **I va II guruh nogironligi** bo'lgan shaxs hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bir oyda **eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida** *(har qanday faoliyat turi bo'yicha)*, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar hisobidan ishga yollangan har bir ishchi uchun – bir oyda eng kam ish haqining 15 foizi miqdorida qat'iy belgilangan soliq stavkasi o'rnatilgan.

5. Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagi 219-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan yakka tartibdagi tadbirkorlar amalga oshiriladigan faoliyat turiga bog'liq holda ushbu Nizomning 1-ilovasiga muvofiq bir nafardan uch nafargacha xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga haqli.

Yakka tartibdagi tadbirkorga o'z majburiyatlari bo'yicha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bilan bir qatorda har bir xodim uchun:

- Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini - har oyda eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;

- qat'iy belgilangan solig'i Prezidentning 2018 yil 14 iyuldagi PQ-3856-sonli qaroriga asosan **2018 yil 1 avgustdan** boshlab qat'iy soliq to'lovidan ozod etildi.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 martdagi PQ-2844-sonli qaroriga asosan **2021 yil 1 yanvarga 18 ta faoliyat turlari** bilan shug'ullanadigan **yangi ro'yxatga olingan** yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari ushbu qarorning 1-bandida ko'zda tutilgan qoidalarga binoan **mikrokreditlarni rasmiylashtirishda 6 oy muddatga qat'iy belgilangan soliq to'lovlaridan ozod etiladi.**

Qarorning mazkur bandida nazarda tutilgan imtiyozlardan foydalanadigan qat'iy belgilangan soliq to'lovchilar ular davlat ro'yxatiga olingan kundan e'tiboran o'n ikki oy ichida tugatilsa yoki uch yoxud undan ko'p oy muddatga faoliyatini to'xtatsa, faoliyat ko'rsatgan davri uchun qat'iy belgilangan soliqlarni to'laydi.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 31 maydagi "Jizzax viloyatida ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishni tubdan jadallashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishning yangi yondashuvlari va metodlarini sinab ko'rishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi 332-sonli qaroriga asosan Jizzax viloyatining Arnasoy, Baxmal, Forish, Zafarobod, Zarbdor, Yangiobod tumanlarida, shuningdek viloyatning boshqa tumanlari qishloq aholi punktlarida maishiy xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar **2017 yilning 1 iyulidan 2021 yilning 1 yanvariga** qadar belgilab qo'yilgan qat'iy soliq to'lashdan ozod etilgan.

8. Yakka tartibdagi tadbirkorlar Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyuldagi 216-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari, hunarmandlar tomonidan ishlab chiqariladigan buyumlar va tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlari Ro'yxati"ga muvofiq 34 turdagi hunarmandchilik faoliyati turlarini amalga oshirishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qullab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5242-sonli Farmoni bilan **2017 yil 1 dekabrdan boshlab** hunarmandchilik sub'ektlari -"Hunarmand" uyushmasining a'zolari:

- hunarmandchilik faoliyati mahsulotlari (tovar, ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotishda **qat'iy belgilangan soliqdan** to'liq ozod etildi;

- yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchilar Pensiya jamg'armasiga **sug'urta badali to'lashdan** to'liq ozod etildi;

- qishloq joylarda ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan hunarmandlar o'z faoliyatining dastlabki ikki yili mobaynida Pensiya jamg'armasiga belgilangan sug'urta badalining 50 foizini to'lashi belgilab qo'yildi.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 sentyabrdagi "Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari va Zarafshon shahrini kompleks rivojlantirish hamda aholisi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3301-sonli qaroriga asosan Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex tumanlari, Nurota tumanidagi Dehibaland, Sentob, Temirkovuk, Qizilcha, Gum va Cho'ya aholi punktlari hamda Zarafshon shahri hududida ro'yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan soliq to'lashdan **2017 yilning 1 oktyabridan 2028 yilning 1 yanvariga** qadar ozod etilgan.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 fevraldagi PQ-2803-sonli qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanida davlat ro'yxatidan o'tgan va faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar **2017 yilning 1 apreldan 2027 yilning 1 yanvariga** qadar qat'iy soliqni to'lashdan ozod etilgan.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi PQ-3856-son qaroriga asosan:

- qishloq tumanlarida, bundan aholi soni 5 ming kishidan ko'p bo'lgan aholi punktlari mustasno, **sartaroshxona xizmatlarini**, yakka tartibdagi buyurtmalar bo'yicha **kiyim tikish xizmatlarini**, **poyabzal ta'mirlash** xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha faoliyatni tashkil etgan, shuningdek, **jamoat hammomlarini** tashkil etgan yakka tartibdagi tadbirkorlar **2023 yil 1 iyulgacha qat'iy soliq** to'lashdan ozod etiladi;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar har bir yollangan xodimga to'lanadigan **qat'iy belgilangan soliqni** to'lashdan ozod etiladi;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar **3 tonnadan** ortiq yuk ko'taruvchi avtomobil transportida yuklarni eng kam ish haqining 2 baravari (*oldin 3-3,5 baravar*) miqdoridagi stavka bo'yicha tashish xizmatlaridan har oyda olinadigan qat'iy belgilangan soliq to'lashi belgilanda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 maydagi **PQ-3741-son** "Nizolarning oldini olishga qaratilgan institut sifatida notariat tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq **2019 yil 1 yanvardan boshlab ijara shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida majburiy hisobga qo'yish tartibini o'rnatish orqali** ko'chmas mulkni ijaraga berish va tekin foydalanish shartnomalarini **majburiy notarial tasdiqlash bo'yicha talab bekor qilindi.**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 11 oktyabrda 3077-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2018 yil 15 avgustdagi 2018-65-son qarori bilan "Ko'chmas mulk ijara shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida majburiy hisobga qo'yish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi.

Endilikda ko'chmas mulkini ijaraga bermoqchi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar o'zlariga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan turar yoki noturar mulklarini ijaraga berishda ikki tomonlama ijara shartnoma tuzishlari va shartnomani davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yishlari shart.

Ijaraga beruvchi yoki uning vakili (ishonchli boshqaruvchi) ko'chmas mulk ijara shartnomasini shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay davlat soliq xizmati organida hisobga qo'yishi shart.

Ijara shartnomasini soliq organlarida hisobga qo'yish ikkita usulda:

- Davlat soliq qo'mitasining MY.SOLIQ.UZ saytidagi «Ijara shartnomalarini hisobga olish» xizmati orqali;
- bevosita jismoniy shaxsning doimiy yashash, yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tgan joyidagi davlat soliq inspeksiyalariga tashrif buyurgan holda belgilangan shakldagi so'rovnoma taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

So'rovnomada ijara beruvchi va oluvchi to'g'risidagi (pasport ceriyasi va raqami, yuridik shaxsning nomi) ma'lumotlar, identifikatsiya raqami (STIR), yashash joyi (yuridik manzili) yoziladi.

Ijara shartnomasini soliq organlarida hisobga qo'yish uchun so'rovnomaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

1. *Ijara shartnomasi;*
2. *Jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxs rahbarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat.*

Ko'chmas mulk ijara shartnomasining oylik ijara to'lovi summasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan kam bo'lishi mumkin emas.

Mazkur xabarnoma asosida har oyning 5 sanasigacha mazkur daromaddan 12% miqdorda daromad solig'i to'lanadi.

Agar soliq to'lanmasa to'lov muddatidan keyingi kundan boshlab har bir kun uchun 0,033 foiz miqdorida penya hisoblanadi.

Ko'chmas mulk ijara shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida majburiy hisobga qo'yish tartibiga rioya etmaslik Ma'muriy javobgarlik

to'g'risidagi kodeksning 159¹-moddasiga asosan eng kam ish haqining **5 baravaridan 10 baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar ro'yxati o'zgardi

O'zbekiston Respublikasi prezidenti "Soliq va byudjet siyosatining 2019 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunni imzoladi.

Hujjat bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 350-moddasining (Soliq to'lovchilar) matni quyidagi tahrirda bayon etildi:

«Yagona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilardir:

1) soliq davrida olingan yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshmagan yuridik shaxslar;

2) oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – soliq davrida oddiy shirkat faoliyatidan olingan yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshmagan yakka tartibdagi tadbirkor;

3) soliq davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdordan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, bundan ushbu moddaning 4-bandida ko'rsatilganlar mustasno;

4) soliq davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi bir milliard so'mdan oshmagan:

meva-sabzavot mahsulotlari eksportini amalga oshiruvchi;

Elektron tijorat sub'ektlarining milliy reestriga kiritilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

5) soliq davrida olingan yalpi tushumi bir milliard so'mdan oshmagan oilaviy korxonalar;

6) notijorat tashkilotlar daromadlarining soliq davrida tadbirkorlik faoliyatidan olingan qismi bo'yicha, soliq davrida tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlari bir milliard so'mdan oshmasligi sharti bilan.

Vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar yillik aylanmaning (tushumning) belgilangan chegaraviy miqdorini tovar aylanmasidan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda hisoblab chiqaradi.

Yagona soliq to'lovi:

aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi;

aksiz solig'iga tortiladigan mobil aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi;

ushbu Kodeksning 57-bobiga muvofiq yagona yer solig'i to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi;

mahsulot taqsimotiga oid bitimlarning ishtirokchilari bo'lgan yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi».

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Jamoatchilik bilan aloqalar va huquqiy axborot bo'limi tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga oid soliq o'zgarishlari e'lon qilindi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar 2019 yil 1 yanvardan boshlab bir kalendar yilda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi miqdoriga qarab, jumladan:

100 mln. so'mgacha, qat'iy belgilangan soliqni;

100 mln. so'mdan 1,0 mlrd. so'mgacha tashkil etganda, 4 foizlik stavkada yagona soliq to'lovini;

1,0 mlrd. so'mdan oshganda yuridik shaxslar tomonidan to'lanishi nazarda tutilgan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydilar.

Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini amalga oshirish doirasida quyidagi soliq va to'lovlarni ham to'laydilar:

1) bojxona to'lovlari;

2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;

3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq - suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;

4) aksiz solig'i - aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;

5) ijtimoiy soliq;

6) davlat boji;

7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im.

Qat'iy belgilangan soliq – amalga oshirilayotgan faoliyat turi va hududiga qarab, belgilangan qat'iy soliq summasi miqdorida faoliyat yuritayotgan oyning 10-sanasiga qadar mahalliy byudjetga to'lanadi.

	Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyat markazlari	Boshqa shaharlar	Boshqa aholi punktlari
	Qat'iy belgilangan soliq stavkasi (oyiga so'mda)			
Oziq-ovqat, nooziq-ovqat tovarlari bilan	750 ming	600 ming	300 ming	200 ming
Dehaon bozorlarida q/x mahsulotlari bilan	250 ming	150 ming	100 ming	50 ming
Gazeta va iurnallar va kitob mahsulotlari bilan	250 ming	150 ming	100 ming	50 ming
Maishiy xizmat	250 ming	150 ming	100 ming	50 ming

O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish	225 ming	150 ming	100 ming	50 ming
Bolalar o'yin avtomatlari	250 ming	150 ming	100 ming	50 ming
Boshqa faoliyat turlari	250 ming	150 ming	100 ming	50 ming
Yuklarni avtomobil transportida tashish xizmati				
Yuk ko'tarish imkoniyati 3 tonnagacha bo'lgan yuk avtomobillari uchun		Yuk ko'tarish imkoniyati 3 tonnadan ortiq bo'lgan yuk avtomobillari uchun		
Qat'iy belishangan soliq stavkasi (oyiga so'mda)				
150 ming		225 ming		

Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar (summa) bo'yicha alohida-alohida to'laydilar.

Bir kalendar yil davomida tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdordan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qonun xujjatlarida belgilangan miqdor oshgan oyning keyingi oyidan boshlab yagona soliq to'lashga o'tadi.

Yagona soliq to'lovining bazasi hisoblab chiqarilgan yalpi tushumdan belgilangan (4 foiz) soliq stavkasi bo'yicha hisoblab chiqariladi va har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar to'lovni amalga oshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkor amaldagi qonunchilikka asosan chakana savdo, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi jami 84 ta faoliyat bilan shug'ullanishlari hamda:

chakana savdo faoliyatida bir nafargacha;

maishiy xizmat ko'rsatish faoliyatlarida uch nafargacha;

faoliyatning boshqa turlarida ikki nafargacha xodimni yollab ishlatish huquqiga ega.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 oktyabrdagi 850-son qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan "Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati"da ko'rsatilgan 14 ta faoliyat turiga o'zgartirishlar kiritildi va bitta faoliyat turi chiqarib tashlandi.

Xususan, quyidagi faoliyat turi bilan shug'ullangan yakka tartibdagi tadbirkorlar 2019 yilning 1 yanvaridan yuridik shaxs sifatida qayta ro'yxatdan o'tishlari talab etiladi:

qurilish materiallari, tsement, shifer, yog'och va yog'och mahsulotlarini sotish;

alyuminiy (plastik) profildan eshik, deraza va boshqa buyumlar tayyorlash;

o'simlik, hayvonlar va minerallardan tayyorlangan dorivor xomashyoni qadoqlash va ulgurji sotish;

transport vositalarini yuvish, salonni tozalash va shunga o'xshash boshqa xizmatlar ko'rsatish faoliyatini amalga oshiruvchilar;

chetdan tijorat maqsadida bir oyda 5000 AQSh dollaridan ko'p tovar olib keluvchilar (importyorlar).

Jismoniy shaxslarning jami daromadlarini aniqlash tartibi qayta ko'rib chiqilmoqda. Jumladan, hozirgi vaqtda jismoniy shaxsning jami daromadiga kiritilgan va keyinchalik soliq solinadigan bazani aniqlashda chegirilgan (pensiya, stipendiya, ijtimoiy nafaqa, aliment va boshqalar) daromadlarning ayrim turlari, 2020 yil 1 yanvardan boshlab soliq to'lovchining jami daromadlariga kiritilmaydi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarni quyidagi yo'llar bilan optimallashtirish rejalashtirilgan:

a) O'zbekiston Respublikasida hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish, shuningdek ipoteka kreditlari va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lash uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga sug'urta mukofotlarini to'lash uchun ajratilgan mablag'lar bo'yicha imtiyozlar berish tartibini qayta ko'rib chiqish (soliq davri davomida soliq chegirmalarining maksimal miqdori belgilanadi);

b) ta'lim to'lovlari uchun ajratilgan mablag' (o'zi yoki uning yigirma olti yoshgacha bo'lgan bolalari uchun), shuningdek, yigirma olti yoshga to'lmagan turmush o'rtog'i uchun to'lovlar bo'yicha taqsimlanishi;

v) soliq to'lashdan ozod qilish tarzidagi ayrim imtiyozlarning bekor qilinishi:

xususiy korxona egasi, oilaviy korxona a'zosi va fermer xo'jaligi rahbari ixtiyorida qolgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan keyingi foyda miqdori;

mehnat shartnomasi bekor qilinganda eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdorida to'lanadigan ta'til nafaqasi;

ixtiyoriy ravishda tugatilgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt - yuridik shaxsga o'z majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltirilgan yuridik shaxs ta'sischilari (qatnashchilari) daromadlarining miqdori;

aktsiyadorlik jamiyatlarining chet ellik ishchilarining boshqaruv kadrlari sifatidagi faoliyatidan olgan daromadlari;

g) kontsert va ko'ngilochar faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar uchun - ushbu faoliyatdan olingan daromadlar bo'yicha soliq imtiyozlari bekor qilinishi; shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo'lganlar - yakka tartibdagi tadbirkor bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajarishdan olgan daromadlari bo'yicha;

Soliqlar summasi va mehnat haqining eng kam miqdorini aniqlashda ishlatiladigan bazaviy hisoblash miqdori ko'rsatkichining joriy etilishi

munosabati bilan eng kam ish haqining bir karrali miqdrlarida belgilangan imtiyozlar mos ravishda bazaviy hisoblash miqdori va mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga qayta ko'rib chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning alohida toifasini qat'iy belgilangan soliq o'rnigaga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash va ularga yillik umumiy daromadlar to'g'risidagi hisobot asosida soliq to'lashni tanlash huquqini berish munosabati bilan:

qat'iy belgilangan soliq to'lovi xususiyatlari nazarda tutilgan (yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq summolari O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda O'RQ-589-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2020 yilgi Davlat byudjeti to'g'risida" gi Qonuni bilan tasdiqlangan);

ular tomonidan yillik jami daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliq to'lash tartibi batafsil bayon qilinmoqda (mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar singari dastlabki deklaratsiyani topshirish tartibi).

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq bo'yicha soliq hisobotini har oyning 15-kundan kechiktirmasdan topshirish muddatlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Bu holda, soliq agenti tomonidan hisoblangan soliq summasini to'lash jismoniy shaxsga daromadni to'lash bilan bir vaqtda, soliq hisobotini topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladigan tartib belgilanadi.

Xodimlari soni 25 nafardan ortiq bo'lgan filiallar va alohida bo'linmalarning ushbu bo'linmalar va filiallar xodimlari yuzasidan soliq hisobotlarini mustaqil ravishda bunday filiallar va alohida bo'linmalar ro'yxatga olingan joydagi soliq organiga taqdim etish va tegishincha hisoblangan soliq summalarini to'lash nazarda tutilmoqda. ,.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun deklaratsiya asosida yoki belgilangan miqdorda soliqni tanlash va to'lash uchun quyidagi tartib o'rnatildi.

1) Umumiy qoidalar.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining yangi tahririga binoan yakka tartibdagi tadbirkorlar – kalendar yilida tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olingan daromadi 100 million so'mdan oshmaydigan jismoniy shaxslar daromad solig'ini to'lash tartibini tanlash huquqiga ega:

tegishli faoliyat turi uchun belgilangan miqdorda;

umumiy belgilangan 12 foiz stavkasi bo'yicha olingan haqiqiy daromad asosida yillik umumiy daromad deklaratsiyasi asosida.

Tanlash quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

tadbirkorlik subektini davlat ro'yxatidan o'tkazishda tanlangan soliq to'lash tartibini ko'rsatgan holda;

tanlangan soliq to'lash tartibi to'g'risida xabarni doimiy yashash joyidagi soliq organlariga joriy yilning 25 yanvaridan kechiktirmasdan taqdim etish orqali.

Jismoniy shaxs tomonidan belgilangan muddatda xabarnoma taqdim etilmaganligi uning yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliq to'lashga roziligi hisoblanadi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorning soliq davridagi tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olgan daromadi 100 million so'mdan oshsa, lekin bir milliard so'mdan oshmasa, u aylanmadan soliq to'lovchisi deb e'tirof etiladi. Bunda tovarlarni import qiluvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga aylanmadan soliq qo'llanilmaydi.

Soliq davrida tovarlar (xizmatlar) sotishdan olingan daromadlari bir milliard so'mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qo'shilgan qiymat solig'i va daromad solig'ini to'lashga o'tmoqdalar.

Yakka tartibdagi tadbirkor ixtiyoriy ravishda daromad solig'i va QQS to'lashga o'tishga haqli.

Yillik umumiy daromad deklaratsiyasi asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash.

Yillik umumiy daromad deklaratsiyasi asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash tartibini tanlagan yakka tartibdagi tadbirkorning daromadiga 12 foiz miqdorida soliq solinadi.

Yillik umumiy daromad deklaratsiyasi asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash tartibini tanlagan yakka tartibdagi tadbirkorlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan haqiqatdan amalga oshirilgan va hujjatlashtirilgan xarajatlarni daromaddan ushlab qolish huquqiga ega.

Soliq har oy daromad olingan oydan keyingi oyning o'n beshinchi kunigacha to'lanadi, bunga quyidagilar asoslanadi:

- taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya;
- soliq organining xabarnomasi.

Dastlabki deklaratsiya joriy yilning 1 fevralidan kechiktirmay taqdim etiladi. Yangi ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subektlari dastlabki deklaratsiyani xo'jalik yurituvchi subektni davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan oyning oxirigacha topshiradilar. Yil so'ngida yillik soliq summasi olingan haqiqiy daromadga ko'ra hisoblanadi. Deklaratsiya doimiy yashash joyidagi soliq organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay topshiriladi. Deklaratsiya bo'yicha soliq summasi bilan yil davomida to'langan summalar o'rtasidagi farq soliq to'lovchidan undiriladi yoki keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay unga qaytariladi.

3) JSHDSni qat'iy belgilangan miqdorda to'lash.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyat turlari bo'yicha 2020 yil uchun JSHDSning qat'iy belgilangan summolari "O'zbekiston Respublikasining 2020 yilgi Davlat byudjeti to'g'risida"gi 2019 yil 9 dekabrda O'RQ-589-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan (13-ilova).

Qat'iy belgilangan soliq summasi har oyda, tadbirkorlik faoliyati olib borilgan oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay to'lanadi.

Bir nechta faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar har bir faoliyat turi uchun soliq summasini ushbu faoliyat turlari uchun belgilangan

miqdorda to'lashadi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar yuridik shaxsni tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6 - son qaroriga 1- ilovada keltirilgan.

Jismoniy shaxslar daromadlarining boshqa turlari bilan bir qatorda, qat'iy belgilangan miqdordagi soliq to'lash amalga oshiriladigan faoliyatdan olingan daromadlari uchun alohida hisob yuritiladi. Ushbu daromadlardan olinadigan soliq yillik umumiy daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida to'lanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning boshqa daromadlaridan JSHDS to'lash.

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i quyidagi daromad turlari bo'yicha yillik umumiy daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya asosida to'lanadi:

a) 12 % stavkada:

soliq agentida soliq solinmaydigan mulkiy daromadlar;

soliq agentida soliq solinmaydigan moddiy naf tarzidagi daromadlar;

O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;

soliq agenti bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar.

b) ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik va undan foydalanganlik uchun olingan jismoniy shaxslarning daromadlari ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan va hujjatlashtirilgan haqiqiy xarajatlarni chegirib tashlash huquqi bilan 12 foizlik stavka bo'yicha daromad solig'i solinadi, ammo olingan yalpi daromad summasining 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda.

v) dividend va foizlar ko'rinishidagi daromadlarga 5% stavkada soliq solinadi.

5) Yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlar va xarajatlarni hisobga olish majburiyati.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tasdiqlangan shakllarda daromad olish bilan bog'liq daromadlar va xarajatlarni hisobga olishlari shart. Savdo faoliyati bo'yicha soliq solinadigan daromadlar va tovar operatsiyalarini hisobga olish daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalari hisobini yuritish reestrlarida yuritiladi. Ular:

a) chakana savdo bilan shug'ullanadigan yakka tartibdagi tadbirkorning

soliq solinadigan daromadlari va tovar operatsiyalarini hisobga olish kitobi;

b) mahsulot cheklari kitobi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida yakka tartibdagi tadbirkorning soliq hisobini olib borish joyidagi soliq xizmati organi daromadlar va tovar operatsiyalari hisobini yuritish reestrlarini ro'yxatdan o'tkazadi. Ular yakka tartibdagi tadbirkorda ma'lumot oxirgi kiritilgan kundan boshlab besh yil davomida saqlanadi va raqamlangan, ip bilan bog'langan va tegishli soliq organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati to'g'risidagi hisobotlar har chorak yakunlari bo'yicha soliq hisobotini yuritish joyidagi soliq organlariga hisobot choragidan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha:

Yagona yer solig'ini bekor qilish va soliq to'lovchilarning alohida toifasi uchun QQSni majburiy to'lash kiritilishini hisobga olgan holda, aylanmadan soliqqa tortilmaydigan shaxslar ro'yxati qayta ko'rib chiqilmoqda. Shu sababli, quyidagi shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashga haqli emaslar:

soliq davrida tovarlar (xizmatlar) sotishdan olingan daromadlari 1 milliard so'mdan oshgan amaldagi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar; soliq davrida tovarlar (xizmatlar) sotishdan olingan daromadlari 100 million so'mdan oshmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar;

tovarlarni import qiluvchilar - import shartnomasi tuzilgandan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab;

aksiz to'lanadigan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchilar va (yoki) foydali qazilmalar qazib olish bilan shug'ullanuvchilar;

50 gektar va undan ortiq sug'oriladigan yer maydonlari bo'lgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari - qishloq xo'jaligi yerlari olingan kundan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab;

benzin, dizel yuqilg'isi va gazni realizatsiya qiladigan yuridik shaxslar - ushbu faoliyat boshlanganidan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab;

lotereyani tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar; oddiy sheriklik shartnomasi doirasidagi faoliyat bo'yicha ishonchli vakillar;

Investitsiya loyihasini amalga oshirilmaganligi to'g'risida xulosa berish vakolatiga ega organ tomonidan xulosa chiqarilgan tugallanmagan qurilish ob'ektlari va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari egalari. Ular qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini xulosa chiqarilgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab to'lashga o'tishlari shart;

markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan ob'ektlar qurilish ishlarini bajaruvchi korxonalar (joriy ta'mirlash va kapital ta'mirlashdan tashqari). Ular bunday qurilish shartnomasi tuzilgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab qo'shilgan qiymat va foyda solig'ini to'lashga o'tishga majburlar.

Aylanmadan olinadigan soliq to'lash tatbiq qilinmaydigan shaxslar 2020 yil 1 yanvardan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lovchilari deb e'tirof etiladi. Bunday shaxslar 2020 yil 1 fevraliga qadar soliq organlarini ushbu soliqlarni to'lashga o'tish to'g'risida xabardor qilishga majbur.

Yuqorida ko'rsatilgan muddatlarda xabarnoma taqdim qilinmasa soliq organlari mustaqil ravishda ushbu shaxsni qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lovchisi sifatida bir vaqtning o'zida qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi sifatida maxsus hisobga olish ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshiradi.

Xuddi shunday qoidalar 2019 yilda tadbirkorlik sub'ekti sifatida ro'yxatdan o'tgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi, ularning umumiy daromadi 2019 yil oxiriga qadar bir milliard so'mga teng bo'lgan summadan oshib, 365 ga bo'lingan va ro'yxatga olingan kundan boshlab 2019 yil oxirigacha kunlar soniga ko'paytiriladi.

Aylanmadan soliqni qo'llash uchun maksimal yillik aylanmasi 1 mlrd. so'm miqdorida saqlanib qolindi. SHu bilan birga, aylanmadan olinadigan soliqni to'lashdan foyda solig'i va QQS to'lashga o'tish tartibi batafsil bayon etilgan.

Uzoq texnologik tsiklda - qurilishda, loyihalash va boshqa ishlarda, agar tuzilgan shartnomalar shartlarida xizmatlarni bosqichma-bosqich topshirish ko'zda tutilmagan bo'lsa, sotishdan tushgan daromad teng ravishda tan olinadi.

Hisobot davri oxiridagi daromadni aniqlash uchun: birinchi navbatda, kontrakti bajarishni boshidan boshlab qilingan xarajatlarning ulushi shartnomani bajarish xarajatlarning umumiy miqdorida hisoblanadi; keyin olingan ko'rsatkich kontrakt bo'yicha daromadining umumiy summasiga (kontrakt narxiga) ko'paytiriladi.

Joriy hisobot davri uchun xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadni aniqlashda ushbu shartnoma bo'yicha ilgari hisobga olingan daromadlar chegirib tashlanadi.

2019 yilda amalda bo'lgan aylanmadan soliq stavkalari saqlanib qolinmoqda, mol-mulkni ijaraga berish faoliyati bundan mustasno. Ushbu faoliyat turi bo'yicha soliq stavkasini 30 foizdan 8 foizga tushirish nazarda tutilmoqda.

Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish bo'lmagan yuridik shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar bo'yicha Soliq kodeksining 467-moddasi 1-bandida belgilangan soliq stavkasini qo'llagan holda aylanmadan soliqni to'laydilar.

Barcha soliq to'lovchilar uchun soliq hisobotini taqdim etishning unifikatsiyalashgan muddati belgilanmoqda:

hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay - hisobot davri yakunlari bo'yicha;

soliq davri tugagan keyingi davrning 15 fevralidan kechiktirmay - soliq davri yakunlari bo'yicha.

		2019 yil	2020 yil	
	Yagona soliq to'lovi (bazaviy stavka)	4 foiz	4 foiz	<i>o'zgar-magan</i>
	3.1. Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	5 foiz	5 foiz	<i>o'zgar-magan</i>
	3.2. Lombardlar	25 foiz	25 foiz	<i>o'zgar-magan</i>
	3.3. Kontsert-tomosha ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil	5 foiz	5 foiz	<i>o'zgar-magan</i>

	etishdan daromadlar oladigan yuridik shaxslar hamda lombardlar			
	3.4. Brokerlik idoralari (6-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari), shuningdek vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar	25 foiz	25 foiz	<i>o'zgar- magan</i>
	3.5. Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar	13 foiz	13 foiz	<i>o'zgar- magan</i>
	3.6. Asosiy faoliyat turi mol-mulkni ijaraga berish bo'lgan yuridik shaxslar	30 foiz	8 foiz	-22 punkt
	3.7. Umumiy ovqatlanish korxonalari:			
	3.7.1. aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	8 foiz	8 foiz	<i>o'zgarma gan</i>
	3.7.2. boshqa aholi punktlarida	6 foiz	6 foiz	<i>o'zgarma gan</i>
	3.7.3. borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	4 foiz	4 foiz	<i>o'zgarma gan</i>
	3.8. Chakana savdo korxonalari:			
	3.8.1. aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlardagi	4 foiz	4 foiz	<i>o'zgarma gan</i>
	3.8.2. boshqa aholi punktlaridagi chakana savdo korxonalari	2 foiz	2 foiz	<i>o'zgarma gan</i>
	3.8.3. borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlardagi chakana savdo korxonalari	1 foiz	1 foiz	<i>o'zgarma gan</i>
	3.9. Alkogolli mahsulot, tamaki mahsuloti, benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazni realizatsiyasi bo'yicha tovar oborotidan (faoliyatni yuritish joyidan qat'i nazar)	4 foiz	4 foiz	<i>o'zgarma gan</i>
	3.10. Ulgurji hamda ulgurji-chakana savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar (bundan ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari mustasno)	4 foiz	4 foiz	<i>o'zgarma- gan</i>
	3.11. Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari:			
	3.11.1. aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3 foiz	3 foiz	<i>o'zgarma gan</i>

3.11.2. boshqa aholi punktlarida	2 foiz	2 foiz	<i>o'zgarma gan</i>
3.11.3. borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	1 foiz	1 foiz	<i>o'zgarma gan</i>

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan soliqlarni to'lash tartibi
(O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Soliq kodeksi)

	Soliq turi	Soliq stavkasi	Soliqlarning qo'llanilishi
100 mln.so'mgacha	Daromad solig'i	Qat'iy miqdordagi summada	Qat'iy belgilangan miqdordagi soliq yakka targibdagi tadbirkor tomonidan xar oyning 15 sanasidan kechiktirmay amalga oshiriladigan faoliyat turi uchun belgilangan miqdorlarda to'lanadi.
		12%	Yakka tartibdagi tadbirkorlar daromad solig'ini jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya asosida to'lashni tanlashga haqli
100 mln.so'mdan 1 mlrd.so'mgacha	Aylanmadan soliq	4%	Kalendar yilida tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromadi 100 mln.so'mdan oshsa yakka tartibdagi tadbirkor aylanmadan soliq to'lashga o'tadi.
1 mlrd so'mdan yuqori	Qo'shilgan qiymat solig'i	15%	Kalendar yilida tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan daromadi 1 mlrd.so'mdan oshsa yakka tartibdagi tadbirkor belgilangan tartibda qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

III. Darsda qoʻlaniladigan grafik organayzerlar.

Quyidagi rasmni boʻsh kataklarini mos javoblar bilan toʻldiring!

Yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida quyidagi toʻlovlarni ham toʻlaydilar	

Quyidagi rasmni boʻsh kataklarini mos javoblar bilan toʻldiring!

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan toʻlanadigan soliq STAVKALARI	
Kalendar yili davomida yalpi tushim meʼyorida oshmaganda	
Kalendar yili davomida yalpi tushim 100 mln.soʻmdan oshgan holda 1 mlrd.soʻmgacha boʻlgand	
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" 2018 yil 24 maydagi PQ-3724-son qaroriga asosan elektron tijorat orqali sotishdan olgan daromadlari umumiy sotilgan tovarlar (xizmatlar) hajmining kamida 80 foizini tashkil etuvchilar uchun	
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida" 2018 yil 17 oktyabrdagi PQ-3978-son qaroriga asosan meva-sabzavot mahsulotlari (ulgurji) eksportini amalga oshiruvchilar uchun	

IV. Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi” (2020 yil 1-yanvar amalga kiritilgan) T – 2019 y.
2. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo‘rayev. – T.: “Sharq” nashryoti – 2009 y. – 400 b.
3. Yuldashev A. “Soliq va soliqqa tortish”. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan va texnologiya”. 2007 y. 128 b.
4. Александров И. Налоги и налогообложения. Учебник. М. “Дашков и К” 2006 г. С.312.
5. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O‘quv qo‘llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 282 b.
6. Jo‘raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. T. “Fan” 2004 y. 387 b.
7. Jo‘raev A. “Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O‘quv qo‘llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 120 b.
8. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. . T. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashiriyot uyi. 2005 y. 544 b.
9. Malikov T. “Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari”. T. Akademiya. 2002 y. 253 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. “2019 yilda soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o‘zgarishlar yuzasidan o‘quv qo‘llanma”. T. 2019 y.

V. Mavzu bo‘yicha nazorat savollari.

1. Yagona soliqqa utishning ahamiyatlari qanday?
2. Qanday korxonalar yagona soliq to‘lashga utishlari mumkin?
3. Qanday korxonalar yagona soliq to‘lovchilari bo‘la oladi?
4. Soliqqa tortish ob‘ekti nimalardan iborat?
5. Soliq stavkalarini kim belgilaydi, nimalarga bog‘liq?
6. Soliq qaysi byudjetga tushadi?
7. Yagona soliqni hisoblash uchun qanday ko‘rsatkichlar kerak?
8. Soliq qaysi davr uchun hisoblanadi?
9. Yagona soliq qaysi muddatda byudjetga o‘tkaziladi?

VI. Mavzu yuzasidan test savollari.

1. Yakka tartibdagi tadbirkor – bu...

- A) tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir.

- B) notijorat tashkilotlari deganda foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar tushuniladi.
- C) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot
- D) zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.

2. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan soliqlarni ajratib ko'rsating.

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
 - 2) yagona yer solig'i
 - 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
 - 4) aksiz solig'i;
 - 5) yagona soliq to'lovi
 - 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
 - 7) mol-mulk solig'i;
 - 8) qat'iy belgilangan soliq
- A) 2,5,8
 - B) 1,2,3
 - C) 3,5,7
 - D) 4,6,8

3. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarni berishm mumkin?

- A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda berishi mumkin
- B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda berishi mumkin emas
- C) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan belgilanmagan tartibda berishi mumkin
- D) O'zbekiston Respublikasi Soliq idorsi tomonidan belgilanmagan tartibda berishi mumkin emas

4. Tadbirkorlik sub'ektlari soliq hisobotini qanday tarzida taqdim etadi?

- A) telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida
- B) pochta orqali buyurtma xat bilan
- C) shaxsan olib borib berish tartibida
- D) tadbirkorlik sub'ektlari soliq hisobotini umuman taqdim etmaydilar

5. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish ob'ekti bo'ladimi?

- A) Yo'q bo'lmaydi
- B) Ha bo'ladi
- C) To'rt yilda bir marta bo'ladi
- D) O'n yilda bir marta bo'ladi

6. Yagona soliq to'lovining ob'ekti nima?

- A) Yalpi tushum
- B) Davr xarajatlari
- C) Yalpi foyda
- D) Sof foyda

7. Savdo tashkilotlari yalpi daromad soliqlari nimaga asosan belgilanadi?

- A) Tashkilotning daromadlarinig darajasiga asosan;
- B) Tashkilotning foydasining darajasiga asosan;
- C) Tashkilotning yalpi daromadiga asosan;
- D) Tashkilotning tolvar aylanmasiga asosan.

8. Savdo tashkiloti yalpi daromadi qanday topiladi?

- A) $YAD = ST + SOT$;
- B) $YAD = ST - SOT$;
- C) $YAD = SOT + ST$;
- D) $YAD = SOT - ST$.

9. Savdo tashkilotlari tovar aylanmasi deganda nimani tushunasiz?

- A) Muayyan davrdagi sof foyda;
- B) Muayyan davrdagi yalpi daromad;
- C) Muayyan davrdagi realizatsiya qilinib puldagi ifodasi;
- D) Muayyan davrdagi ishlatilgan xajmning puldagi ifodasi.

10. Savdo tashkilotlari yalpi daromadining darajasi qanday topiladi?

- A) $D.D = (YAD / TO) * 100\%$;
- B) $DD = (YAD * TO) * 100\%$;
- C) $DD = (YAD * TO) / 100\%$;
- D) $DD = (TO / YAD) * 100\%$.

9. Soliq va yig'imlarni byudjetga o'tkazish tartibi qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Asosiy summa, jarimalar, hisoblab chiqarilgan penya;
- B) Asosiy summa, hisoblab chiqarilgan penya, jarimalar;
- C) Hisoblab chiqarilgan penya, asosiy summa, jarimalar;
- D) Asosiy va qo'shimcha summa shaklida.

10.Soliq va yig`imlarni byudjetga o`tkazish tartibi qaysi bandda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) Asosiy summa, jarimalar, hisoblab chiqarilgan penya;
- B) Asosiy summa, hisoblab chiqarilgan penya, jarimalar;
- C) Hisoblab chiqarilgan penya, asosiy summa, jarimalar;
- D) Asosiy va qo`shimcha summa shaklida.

12.Soliq solish ob`ekti deganda nimani tushunasiz?

- A) Soliq to`lovchida soliq yoki boshqa majburiy to`lov hisoblab chiqarilishi va to`lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk tushuniladi;
- B) Soliq to`lovchida soliq yoki boshqa majburiy to`lov hisoblab chiqarilishi va to`lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi harakat tushuniladi;
- C) Soliq to`lovchida soliq yoki boshqa majburiy to`lov hisoblab chiqarilishi va to`lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi harakat natijasi tushuniladi;
- D) Noto`g`ri javob yo`q.

VII. Mavzu bo`yicha masalalar.

Toshkent viloyati Bo`ka tumanida joylashgan “Kamol” agrofirma sabzavot (kartoshka, piyoz va sabzi) mahsulotlarini yetishtirish uchun tuman hokimining qaroriga asosan 1,7 gektar sug`oriladigan hamda 1,4 gektar sug`orilmaydigan yer maydoniga ega.

Korxonaga tegishli sug`oriladigan yer maydonining ball boniteti 55 ga, shuningdek sug`orilmaydigan yer maydonining ball boniteti 14 ga teng.

Yuqoridagi ma`lumotlardan foydalangan holda korxona tomonidan 2019 yilda to`lanishi lozim bo`lgan yagona yer solig`i miqdorini aniqlang.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda 4086-sonli qarorining 20-ilovasiga asosan, mazkur korxona uchun sug`oriladigan yerlarga yer solig`i **56 073,6 so`m**, sug`orilmaydigan yerlarga yer solig`i **9 888,0 so`m** yer solig`i stavka belgilangan.

Yerlarning unimdorligi (ball boniteti) inobatga olingan holda soliq stavkalariga quyidagicha tuzatish koeffitsientlari qo`llaniladi.

1. Korxonaning sug`oriladigan yeri 6-toifali yer maydoni hisoblanib, unga nisbatan **6,78** tuzatish koeffitsient qo`llaniladi.

2. Sug`orilmaydigan yer maydoni 2-toifali yer hisoblanib, unga nisbatan **1,5** tuzatish koeffitsienti qo`llaniladi.

Sug`oriladigan yer maydoni uchun **646 304,3** ( $1,7 \times 6,78 \times 56\,073,6$ ) so`m miqdorida.

Sug`orilmaydigan yer maydoni uchun **207 664,8** ( $1,4 \times 1,5 \times 9\,888,0$ ) so`m miqdorida.

Demak, korxona 2019 yil uchun **853 969,1** ($646\,304,3 + 207\,664,8$) so`m yagona yer solig`i to`laydi.

Masalan, Toshkent shahrida chakana savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor 2018 yilda har oyda eng kam ish haqining 7 baravari

miqdorida ya'ni 1,2 mln.so'm qat'iy belgilangan soliq to'lovini amalga oshirib kelayotgan bo'lsa, 2019 yil 1yanvardan boshlab, har oyda 1 mln.so'm miqdorida qat'iy summada soliq to'lovini amalga oshirishi belgilandi.

VIII. Mavzu bo'yicha glosariy.

Ixchamlashgan soliq tizimining ahamiyati - Ixchamlashgan soliq tizimining ahamiyati kattadir. Bular ***birinchidan***, bozorni tezda tovarlar va xizmatlar bilan boyitish imkonini beradi, ***ikkinchidan***, ishsizlikni kamaytirish, yangi ish o'rinlari ochishga yordam beradi, ***uchinchidan***, ular faoliyatini tashkil qilishni ixchamlashtiradi, ***to'rtinchidan***, soliq hisoblari va hisobotlari sonini kamaytiradi, soliq hisoblash xodimlari ishini osonlashtiradi, chunki ilgari ko'p soliq hisoblari va dalolatnomalari o'rniga yagona soliq (aksiz osti tovarlari bo'ladi aksiz) soliq to'laydi. Ko'p martali bo'nak to'lovlar umuman bo'lmaydi. Demak boqimanda ham bo'lmasligi lozim.

Ixchamlashtirilgan soliq to'lashga o'tgan kichik korxonalar uchun quyidagi to'lovlarni to'lash tartibi saqlanib qolgan: Aksiz solig'i; Bojxona to'lovlari; Davlat boji; Byudjetdan tashkari fondlarga to'lovlar: pensiya fondi, bandlik, yo'l fondlari va b. Birja bitimlari yig'imi; Maxsus tovarlarni sotish huquqini olish litsenziya yig'imi; Savdo qilish huquqini olish yig'imi;

Yagona soliqqa tortish ob'ektlari - Quyidagilar yagona soliqqa tortish ob'ektlari (soliq solinadigan oborot) hisoblanadi: savdo (harid qilish, vositachilik, ulgurji-sotish, ta'minot) korxonalari uchun - yalpi daromad; harid qiluvchi, ta'minot-sotish korxonalari uchun yalpi tushum. Bunda, qurilish, qurilish-montaj, to'zatishtirish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar xajmidan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

Yalpi tushum tarkibi - Yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiradi: - tovar (ish, xizmat)larni, mol-mulkni sotishdan olingan tushum summasi; - sotilgan mol-mulk qiymati va boshqa aktivlar o'zi ishlab chiqargan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni erkin almashtiriladigan valyutaga eksport qilishdan olingan tushum summalari yalpi tushum tarkibiga kiritilmaydi. Mazkur qoida savdo-vositachilik faoliyati bilan shugullanayotgan yoxud xom ashyo tovarlarni paxta tolasi, paxta kalavasi, lint, neft', neft' mahsulotlari, rangli va qora metallarni erkin almashtiriladigan valyutaga eksport qilayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga joriy qilinmaydi.

Yalpi daromad tarkibi - Yalpi daromad tarkibiga quyidagilar kiradi: - tovarning harid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq; - moliyaviy faoliyatdan daromadlar va O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan boshqa daromadlar.

Yagona soliq to'lovchilari - Yagona soliq to'lovchilari bo'ladi, korxonada ishlovchilar soni cheklangan me'yordan oshmagan yuridik shaxslar hisoblanadi. Bunga hamma soxalarda faoliyat ko'rsatuvchi har xil mulk shaklidagi korxonalar kiradi. Demak, kichik korxona me'yori faqat ishlovchilar sonigagina qaralib, ishlab

chiqarilgan mahsulot miqdori va daromad olish darajasi e'tiborga olinmagan. Shu erdan ko'rinib turibdiki, davlat ko'p mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar, xizmatlar bajaruvchi kichik korxonalarni har tomonlama rayobatlantirishni mo'ljallaydi. Faoliyat turi xilma-xil bo'ladi ham yagona soliq to'laydilar. Mikrofirmalar va kichik korxonalarining yagona solig'i har chorakda choraklik moliyaviy hisobotlar topshirish uchun belgilangan muddatda to'lanadi. Buning to'lovlar bo'lmaydi. Soliq to'lovchilar yagona soliqni to'g'ri, to'liq hisoblash va byudjetga o'tkazish javobgarligini soliq qonunchiligi bo'yicha oladilar. Yalpi daromadni yoki tushumni kamaytirish soliq ob'ektini yashirish (kamaytirish) deb qaraladi va tegishli moliyaviy jazolarga tortiladi.

12-AMALIY MASHG'ULOT:

IJTIMOIIY SOLIQLAR. MAHALLIY SOLIQLAR VA YIG'IMLAR.

Reja:

1. Ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish va to'lash.
2. Mahalliy yig'imlar va ularning amal qilish xususiyatlari.
3. Mahalliy yig'implarni hisoblash va to'lash tartibini o'rganish.

I.Darsning maqsadi. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilar tarkibi, hisoblash va to'lash muddatlari. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibi. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar va yig'implarni to'lovchilar tarkibi va ularni hisoblar tartibi hamda to'lash muddatlarini o'rganish. Mahalliy yig'imlar va ularning amal qilish xususiyatlari. Mahalliy yig'implarni hisoblash va to'lash tartibini o'rganish.

II.Amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun ma'lumotlar:

Ijtimoiy soliqni soliq to'lovchilari (bundan buyon ushbu bo'limda soliq to'lovchilar deb yuritiladi) deb quyidagilar e'tirof etiladi:

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari va filiallari;

ushbu Kodeksning 408 va 409-moddalarida nazarda tutilgan tartibga muvofiq ijtimoiy soliq to'laydigan jismoniy shaxslarning ayrim toifalari.

Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari ijtimoiy soliqning (bundan buyon ushbu bo'limda soliq deb yuritiladi) soliq solish ob'ektidir.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlar bilan ta'minlash yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga doir shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan yuridik shaxsga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham soliq solish ob'ektidir.

Jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini va (yoki) yakka tartibdagi mehnat faoliyatini amalga oshirish soliq solish ob'ektidir.

Quyidagilar soliq solish ob'ekti hisoblanmaydi:

ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'ligiga boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq zararining o'rnini qoplash tarzidagi, ushbu Kodeks 369-moddasi ikkinchi qismining 10-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha xarajatlari;

paxta yig'im-terimi bo'yicha mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun mehnat haqi to'lashga doir xarajatlar.

Soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi ushbu Kodeksning 371-moddasiga muvofiq to'lanadigan xarajatlar summasi sifatida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi ularning O'zbekiston Respublikasida byudjet tashkilotlari xodimlari uchun ish haqi miqdorining oshishi inobatga olingan holda qayta hisoblab chiqariladigan, ular O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ishga yuborilguniga qadar oxirgi ish joyida mehnatga haq to'lash tarzida olgan daromadlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Ushbu Kodeks 403-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi chet ellik xodimlarga to'lanadigan daromadlar summasi sifatida, biroq O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlar bilan ta'minlash yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga doir shartnoma bo'yicha xarajatlar umumiy summasining 90 foizidan kam bo'lmagan summada belgilanadi.

Soliq stavkalari, agar ushbu Kodeksning 408-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

№	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Soliq to'lovchilar, bundan 2–4-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	12
2.	Byudjet tashkilotlari	25
3.	«SOS – O'zbekiston Bolalar mahallalari» uyushmalari	7
4.	Ixtisoslashtirilgan tsexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to'lovchilar	4,7

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan pasaytirilgan soliq stavkalari belgilanishi mumkin.

Soliq soliq to'lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan miqdorda;

2) yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan (bundan buyon matnda yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari deb yuritiladi) – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

3) faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan:

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi tomonidan – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan miqdorda;

oilaning boshqa a'zolari tomonidan (bundan o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar mustasno) – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

4) «Hunarmand» uyushmasining hunarmandchilik faoliyati sub'ektlari bo'lgan, qishloq tumanlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan a'zolari tomonidan o'z faoliyatining dastlabki ikki yilida – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

5) «Usta-shogird» maktablari o'quvchilari tomonidan ular yigirma besh yoshga to'lguniga qadar ishlagan davrida – yiliga bazaviy hisoblash miqdorining 2,5 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda majburiy tartibda to'lanadi. Belgilangan miqdordagi soliqning to'lanishi mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek maydoni to'rt sotixdan kam bo'lmagan dehqon xo'jaligida, tomorqa yer uchastkasida band bo'lgan yoki ushbu maydonda qoramol yoxud ellik boshdan kam bo'lmagan xonaki parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida soliq to'laydi. Bunda dehqon xo'jaligi rahbari soliqni majburiy tartibda to'laydi, boshqa a'zolari va ko'rsatilgan jismoniy shaxslar esa ixtiyoriy asosda to'laydi. Belgilangan miqdordagi soliqning to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining va jismoniy shaxsning mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Ijtimoiy soliq bo'yicha:

Grantlar hisobidan olinadigan ish haqi ko'rinishidagi daromadlar, shuningdek, boshqaruv xodimlari sifatida jalb qilingan aktsiyadorlik jamiyatlarining chet ellik ishchilarga beriladigan imtiyozlar bekor qilinmoqda.

Ijtimoiy soliq stavkasi davlat korxonalariga, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarga, shuningdek ustav fondida 50 yoki undan ortiq foiz davlat ulushi bo'lgan yuridik shaxslarga va ularning tarkibiy bo'linmalariga nisbatan 25 foizdan 12 foizgacha pasaytirildi.

Jismoniy shaxslarning alohida toifasi uchun eng kam ish haqining karrali miqdorlarida o'rnatilgan qat'iy belgilangan soliq stavkalari bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan xolda qayta ko'rib chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning ko'rsatilgan toifasiga jismoniy shaxslarga deklaratsiya asosida yillik daromadidan ijtimoiy soliqni umumbelgilangan stavkada jismoniy shaxslar daromad solig'iga o'xshash xolda to'lash huquqi beriladi.

Ijtimoiy soliqni yillik yalpi daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida ixtiyoriy asosda hisoblashva to'lash tartibi nazarda tutilmoqda.

Mahalliy soliqlar va yig'implarga quyidagilar kiradi: Mol - mulk solig'i; yer solig'i; Kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun soddalashtirilgan soliq; Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadidan soliq; o'z ichiga alohida tovarlarga litsenziya yig'imini kushgan savdo huquqi olish yig'imi; Tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi olinadi.

Savdo-sotiq huquqi uchun yig'im va tovarlarning ayrim turlarini, shu jumladan alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish huquqi uchun litsenzion yig'im to'lovchilari bo'ladi O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda savdo-sotiqni amalga oshiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar (alkogolli mahsulotlar sotishdan tashqari) va yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'im to'lovchilari bo'lib yangi barpo etilayotgan yuridik shaxslar yoki yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish hoxishini bildirgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

MAHALLIY YIG'IMLARNING CHEGARALANGAN STAVKALARI

t/r	Soliqlar va yig'implarning turlari	Chegaralangan stavkalar			
		Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyat markazlari	Boshqa shaharlar	Boshqa aholi punktlari
1.	Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im:				
	alkogolli mahsulotlar	6.0	5.0	4.0	3.0
	qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar	4.0	3.5	3.0	2.0
3.	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash bo'yicha pulli xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im	har bir oy uchun eng kam ish haqining 8 baravari			

Ko'rsatib o'tilgan stavkalar miqdorlari O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi. Soliq stavkasining aniq miqdori O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taklifiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Quyidagi yuridik shaxslar ijtimoiy soliqi to'lovchilari hisoblanadi.

Yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

-Ijtimoiy soliqining eng miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$MR_{yait} = K/n * N$$

Bu yerda:

MR_{yait} - YaITning bir oy uchun eng kam miqdori

K - bir oyda barcha xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlari (bir kunda ishlagan soatlaridan qat'i nazar) soni, biroq korxonada o'rnatilgan ish kunlari sonidan ortmagan holda. Xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlariga, shuningdek yillik mehnat ta'tillariga va ish haqi saqlangan holda beriladigan ta'tillarga to'g'ri keladigan kunlar ham taalluqlidir. Bir oyda xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlarini hisoblab chiqarishda quyidagilarning ishlagan kunlari kiritilmaydi:

-pasaytirilgan stavkalar bo'yicha YaIT hisoblab chiqariladigan ixtisoslashtirilgan tsexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironlarning ish kunlari;

-kasanachilarning ish kunlari (YaIT bo'yicha imtiyoz muddati tugagunga qadar);

-fuqarolik-huquqiy tushdagi shartnomalarga muvofiq ishlar bajarayotgan (xizmatlar ko'rsatayotgan) yakka tartibdagi tadbirkorlarning ish kunlari;

n - korxonada belgilangan bir oydagi ish kunlari soni;

N - bir xodim uchun bir oyda YaIT normativi. Agar minimal ish haqining miqdori oyning 1-kunidan o'zgarmasa, u holda oy uchun minimal ish haqining o'rtacha oylik miqdori qo'llaniladi.

Misol uchun:

"Turon" xususiy korxonasida 3 nafar ishchi xodim faoliyat ko'rsatadi. Korxonaning 2018 yil yanvar oyi uchun mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari 1626,6 ming (xodimlarning ishlagan kunlari 75 kun, hisobot davridagi ish kunlari soni 25 kun) so'mdan 15 foiz miqdorida 243,9 ming so'm ijtimoiy soliq hisoblangan.

Ma'lumki Nizomning 1-bandiga asosan mikrofirmalar va kichik korxonalar (fermer xo'jaliklari bundan mustasno) har bir xodimi uchun oyiga minimal ish haqining 65 foizi miqdoridan kam bo'lmacligi kerak.

SHunga asosan ijtimoiy soliq bo'yicha hisob-kitob summasi quyidagicha.

Barcha xodimlarning ishlagan kunlari 75 kunni, ish kunlari soni 25 kunni tashkil etib, YaIT normativi 111,9 ming so'mni, hisoblangan YaIT eng kam miqdori 335,8 ming so'mni ($75/25 \cdot 111,9$) tashkil etadi.

*Korxona tomonidan hisoblangan ijtimoiy soliq summasi eng kam miqdordan kam bo'lganligi sababli **91,9 ming so'm** ($335,8 - 243,9$) qo'shimcha hisoblab to'lash lozim bo'ladi.*

Soliq hisoboti shakllarini soddalashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar.

Soliq hisoboti shakllarini soddalashtirish maqsadida 11 ilovadan iborat bo'lgan ijtimoiy soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisobotlari birlashtirilib, 7 ta ilovadan iborat yangi soliq hisoboti shakllari ishlab chiqildi va ko'rib chiqish uchun Moliya vazirligiga yuborildi.

Unga muvofiq, ijtimoiy soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar qismi 31 ta satrdan 16 ta satrga kamaytirilib, 15 ta satr qoldirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit qilishdan yig'imlar STAVKALARI

<i>T/N</i>	<i>Yig'imlar turlari</i>	<i>Yig'imlar stavkalari (AQSh dollarida)</i>
1.	O'zbekiston Respublikasi hududiga xorijiy davlatlardan avtotransport vositalarini olib kirganlik va tranzit qilish uchun yig'im, bir avtotashuvchini olib kirganlik uchun (2-5-bandlarda ko'rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2.	O'zbekiston Respublikasi hududi orqali Tojikiston Respublikasining har bir yuk avtotransport vositasi va avtobusini olib kirganlik va tranzit qilganlik uchun yig'imlar:	
	10 - tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3.	O'zbekiston Respublikasi hududiga Qozog'iston	300

	Respublikasi yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirganlik uchun yig'imga, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilish bundan mustasno, bir yuk avtotransport vositasini olib kirganlik uchun	
4.	O'zbekiston Respublikasi hududi orqali Qirg'iziston Respublikasining yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imga	300
5.	O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab Turkmaniston Respublikasi avtotransport vositalarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imga, avtotransport vositalari turlari bo'yicha:	
	quyidagi og'irlikdagi yuklarni ko'taradigan yuk avtotransport vositalari:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan ko'p	150

Sotib olingan avtomobillarni O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tomonidan ro'yhatdan o'tkazish yig'imi

T/r	Yig'imga turlari	Yig'imga stavkalari (AQSh dollarida)		
1	Yangi sotib olingan avtotransport vositalari uchun	Sotib olingan narxining 3% miqdorida		
2	Avval ishlatilgan transport vositalari bo'yicha	Foydalanilgan muddatidan qat'iy nazar xar bir ot kuchiga eng kam oylik ish haqining % miqdorida		
		3 yilgacha	3 yildan 7 yilgacha	7 yildan ortiq
3	Yengil avtomobillar	11	9	6
4	Mototsikllar	10	7	5
5	Boshqa motorli transport vositalari	16	13	9

MAHALLIY YIG'IMLAR STAVKALARI


Soliq va yig'mlar turlari	Belgilangan stavka (bir oy uchun)			
Alohida tovarlarni chakana sotish huquqini uchun yig'in	Toshkent shahri	Nukus sh va viloyat markazlari	Boshqa shaharlar	Boshqa aholi punktlari
Alkagol mahsulotlar, umumiy ovqatlanish korxonalarida realizatsiya qilish	1216400	1013700	810900	608200
Qimmatbaho metal va toshlardan yasalgan buyumlar	810900	709600	608200	405500

Jismoniy shaxslar tomonidan mol-mulklarni ijaraga berishning minimal ijara haqi stavkasi

№	Ijaraga berilayotgan mol-mulk turi	Belgilangan stavka hajmini belgilovchi ko'rsatkich	Ijara to'lovi hajmini minimal stavkasi (bir oy uchun)		
			Toshkent shahri	Nukus sh va viloyat markazlari	Boshqa shaharlar
1.	Binolar				
	Turarjoy	1 m.kv joy uchun	10 000	6 500	3 000
	Noturarjoy		20 000	13 000	6 000
2.	Avtomobil transporti				
	yengil avtomobillar (haydovchidan tashqari o'rindiqlar soni 8 ta)	1 ta transport vositasi uchun	480 000		
	Mikroavtobus, avtobus va yuk avtomobillari		940 000		

III. Darsda qo'laniladigan grafik organayzerlar.

Quyidagi rasmni bo'sh kataklarini mos javoblar bilan to'ldiring!



IV. Foydalanishqa tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi” (2020 yil 1-yanvar amalga kiritilgan) T – 2019 y.
2. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik /Hammual.: A.Vahobov, A.Jo‘rayev. – T.: “Sharq” nashryoti – 2009 y. – 400 b.
3. Yuldashev A. “Soliq va soliqqa tortish”. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan va texnologiya”. 2007 y. 128 b.
4. Александров И. Налоги и налогообложения. Учебник. М. “Дашков и К” 2006 г. С.312.
5. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. O‘quv qo‘llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 282 b.
6. Jo‘raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. T. “Fan” 2004 y. 387 b.
7. Jo‘raev A. “Markaziy Osiyo davlatlari soliq tizimi. O‘quv qo‘llanma. T. “Iqtisodiyot va moliya” 2005 y. 120 b.
8. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. . T. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2005 y. 544 b.
9. Malikov T. “Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari”. T. Akademiya. 2002 y. 253 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. “2019 yilda soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o‘zgarishlar yuzasidan o‘quv qo‘llanma”. T. 2019 y.

V. Mavzu bo‘yicha nazorat savollari.

1. Mahalliy soliqlar va yig‘imlarni kimlar to‘laydilar va soliq ob‘ekti nima hisoblanadi?
2. Mahalliy soliqlar va yig‘imlardan qanday imtiyozlar bor?
3. Mahalliy soliqlar va yig‘imlarning byudjet daromadlaridagi ulushi qanday?
4. Mahalliy soliqlar va yig‘imlarni to‘lash muddatlari qanday?

5. Ijtimoiy sug`urtaning ijtimoiy yordamdan farqi nimada?
6. Zamonaviy ijtimoiy ta`minot tizimining shakllanishi va rivojlanishi to`g`risida gapirib bering.
7. Ijtimoiy ta`minot sohasida qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
8. O`zbekiston Respublikasida pensiya ta`minoti tizimi xususiyatlari haqida gapirib bering.

VI. Mavzu yuzasidan test savollari.

1. Mahalliy va umumdavlat soliqlar uchun umumiy ko`rinishda belgilangan soliq stavkalarini ko`rsating?

- A) Qat`iy, qonun tan olib;
- B) Qat`iy;
- C) Sirg`anuvchi, egiluvchi;
- D) Nol.

2. Quyida keltirilganlardan qaysilari yig`imlarga kiradi?

- A) Suv resurslaridan foydalanish, erdan foydalanish, obodonlashtirish uchun foydalanish;
- B) Daromad olinishi, aksiz osti mahsulotlari ishlab chiqarish, mulkka egalik qilinishi;
- C) Reklama ishlari, Infrastrukturaning ushlab turish, QQS, yalpi daromadga ega bo`lish;
- D) to`g`ri javob yo`q

3. Yig`im nima?

- A) To`lanish lozim bo`lgan, yig`im to`lovchilar, mahsulotlarni ko`zlovchi davlat, xususiy va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan to`lovlardir;
- B) Yuridik ahamiyatga molik xatti xarakatlarni amalga oshirishning shartlaridan biri bo`lib, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan majburiy badallardir;
- C) Faqat jismoniy shaxslardan undiriladigan mahalliy soliqlar tushumlari;
- D) A va B to`g`ri.

4. Soliq imtiyozlari o`zining xususiyatiga ko`ra quyidagilarga bo`linadi?

- A) Qisman, to`liq;
- B) Vaqtinchalik, doimiy;
- C) Davriy uzluksiz;
- D) to`g`ri javob yo`q

5. Quyida keltirilganlardan qaysilari yig`imlarga kiradi?

- A) Suv resurslaridan foydalanish, erdan foydalanish, obodonlashtirish uchun foydalanish;
- B) Daromad olinishi, aksiz osti mahsulotlari ishlab chiqarish, mulkka egalik qilinishi;

- C) Reklama ishlari, Infrastrukturani ushlab turish, QQS, yalpi daromadga ega bo'lish;
D) to'g'ri javob yo'q

6. Soliq va yig'implarni byudjetga o'tkazish tartibi qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Asosiy summa, jarimalar, hisoblab chiqarilgan penya;
B) Asosiy summa, hisoblab chiqarilgan penya, jarimalar;
C) Hisoblab chiqarilgan penya, asosiy summa, jarimalar;
D) Asosiy va qushimcha summa shaklida.

7. Soliqsiz to'lovlarga quyida keltirilganlardan qaysilari javob bo'ladi?

- A) Daromad solig'i, davlat boji, bojxona yig'implari;
B) Aksiz solig'i, QQS, yer solig'i, suv resurslardan foydalangan uchun soliq;
C) Mol-mulk solig'i, reklama solig'i, infrastruktura solig'i;
D) Bojxona bojlari, bojlar, litsenziya yig'imi.

8. Soliq to'lovchi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan qancha vaqt foydalanishga haqli?

- A) Tegishli huquqiy asoslar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran ular amal qiladigan butun davr mobaynida foydalanishga haqli;
B) Tegishli huquqiy asoslar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran 3 yilgacha foydalanishga haqli;
C) Tegishli huquqiy asoslar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran 5 yilgacha foydalanishga haqli;
D) Tegishli huquqiy asoslar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran 7 yilgacha foydalanishga haqli.

9. Yig'im nima?

- A) To'lanish lozim bo'lgan, yig'im to'lovchilar, mahsulotlarni ko'zlovchi davlat, xususiy va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlardir;
B) Yuridik ahamiyatga molik xatti xarakatlarni amalga oshirishning shartlaridan biri bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan majburiy badallardir;
C) Faqat jismoniy shaxslardan undiriladigan mahalliy soliqlar tushumlari;
D) A va V to'g'ri.

10. Soliqsiz to'lovlarga quyida keltirilganlardan qaysilari javob bo'ladi?

- A) Bojxona bojlari, bojlar, litsenziya yig'imi;
B) Aksiz solig'i, QQS, yer solig'i, suv resurslardan foydalangan uchun soliq;
C) Mol-mulk solig'i, reklama solig'i, infrastruktura solig'i;
D) Daromad solig'i, davlat boji, bojxona yig'implari.

11. Quyida keltirilganlardan qaysilari yig'implarga kiradi?

- A) Suv resurslaridan foydalanish, yerdan foydalanish, obodonlashtirish uchun foydalanish;
- B) Daromad olinishi, aksiz osti mahsulotlari ishlab chiqarish, mulkka egalik qilinishi;
- C) Reklama ishlari, Infrastrukturaning ushlab turish, QQS, yalpi daromadga ega bo'lish;
- D) to'g'ri javob yo'q

12. Rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlarga qanday to'lovlar kiradi?

- A) Yillik ish yakunlari bo'yicha pul mukofoti, ta'tilga har yilgi qo'shimcha haqlar;
- B) Bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik va xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirganlik uchun ustamalar;
- C) Asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta'tilda bo'lgan hodimlarga beriladigan to'lovlar;
- D) Qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishdan tushgan daromadlar.

13. Kompensatsiya to'lovlari qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Yillik ish yakunlari bo'yicha pul mukofoti, ta'tilga har yilgi qo'shimcha haqlar;
- B) Bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik va xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirganlik uchun ustamalar;
- C) Asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta'tilda bo'lgan hodimlarga beriladigan to'lovlar;
- D) Qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishdan tushgan daromadlar.

VII. Mavzu bo'yicha masalalar.

1-masala: 2008 yil yanvar oyi uchun ishchi va xizmatchilarning mehnatga haq to'lash fondidan Pensiya jamg'armasiga ajratiladigan *ijtimoiy soliq summasini aniqlang?*

- ish haqi hisoblangan – 11600 ming so'm;
 - ishchi va xizmatchilarning yo'l pattalariga ajratilgan xarajatlar – 600 ming so'm;
 - ishchilarga moddiy yordam ajratilgan – 10600 ming so'm;
 - ishchilarning tushlik ovqatlariga – 930 ming so'm;
 - kunlik xarajatlar berilgan:
me'yor chegarasida – 8950 ming so'm;
 - me'yordan yuqori – 7500 ming so'm;
 - yarim yil yakuniga asosan mukofot puli hisoblangan – 250 ming so'm.
- Eng kam minimal ish haqi miqdori – 12420 so'm.

2-masala: Fuqaro O'.Rasulovga ish joyidan uning yubileyi munosabati bilan mukofot puli berildi. Bunday mukofot puliga sug'urta ajratmalari to'lanadimi?

3-masala: Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiradigan respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralariga qarashli tumanlararo baza

2008 yil birinchi chorakda 52,5 mln. so'm yalpi daromadga ega bo'ldi. Baza qancha miqdorda Pensiya jamg'armasiga ajratma to'lashi lozimligini aniqlang?

4-masla: Alskom sug'urta kompaniyasi 2008 yil 1 chorakda sug'urta xizmatlaridan 32 mln. so'm miqdorida daromadga ega bo'ldi. Ushbu daromaddan kompaniya qancha miqdorda jamg'armaga ajratmaga to'lashi lozim?

5-masala: Chakana savdo bilan shug'ullanuvchi korxona asosiy faoliyatidan tashqari ishlab chiqarish faoliyati bilan ham shug'ullanadi. 2008 yil 1 chorak uchun tovarlarni sotishdan tushgan tushum - 12000 ming so'm, korxona o'zi ishlab chiqargan mahsulotini sotish natijasida tushgan tushumi -6600 ming so'm. Yuk avtomobili sotib olingan -11000 ming so'm.

Respublika yo'l jamg'armasiga to'lanishi lozim bo'lgan summani aniqlang?

VIII. Mavzu bo'yicha tayanch iboralar.

Mahalliy soliqlar va yig'implar - Mahalliy soliqlar va yig'implarga quyidagilar kiradi: Mol - mulk solig'i; Yer solig'i; Infratuzilmani rivojlantirish solig'i; Kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun soddalashtirilgan soliq; Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadidan soliq; Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazni iste'mol qilish solig'i; o'z ichiga alohida tovarlarga litsenziya yig'imini kushgan savdo huquqi olish yig'imi; Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi olinadi.

Savdo-sotik huquqi uchun yig'im - Savdo-sotiq huquqi uchun yig'im va tovarlarning ayrim turlarini, shu jumladan alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish huquqi uchun litsenzion yig'im to'lovchilari bo'ladi O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda savdo-sotiqni amalga oshiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar (alkogolli mahsulotlar sotishdan tashkari) va yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'im -To'lovchilar bo'ladi yangi barpo etilayotgan yuridik shaxslar yoki yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish xoxishini bildirgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

GLOSARIY

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan tartibga solinadigan munosabatlar - Soliq Kodeks soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga (bundan buyon matnda byudjet deb yuritiladi) va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining printsiplari - Soliq to'g'risidagi

qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to'lovchining haqligi prezumtsiyasi printsiplariga asoslanadi.

Soliq solishning majburiyligi printsipi - Har bir shaxs Soliq Kodeksda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi shart. Hech kimning zimmasiga Soliq Kodeksda nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

Soliq solishning aniqligi printsipi - Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar aniq bo'lishi kerak. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari har bir soliq to'lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to'lashi kerakligini aniq biladigan tarzda ifodalangan bo'lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilashda, agar Soliq Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilar, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari aniqlangan bo'lishi kerak.

Soliq solishning adolatliligi printsipi - Soliq solish umumiydir. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat printsiplariga mos bo'lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin emas hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilishi mumkin emas.

Soliq tizimining yagonaligi printsipi - Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagonadir. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi printsipi - Soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi shart. Barchaning e'tibori uchun rasmiy e'lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi va soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, ulardagi ko'rsatmalar bajarilmaganligi uchun biron bir sanksiyani qo'llashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.

Soliq to'lovchining haqligi prezumtsiyasi printsipi - Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinadi.

Soliqlar - Soliqlar deganda Soliq Kodeksda belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Majburiy to'lovlar - majburiy to'lovlar deganda Soliq Kodeksda belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

Soliq to'lovchilar - Soliq to'lovchilar Soliq Kodeksga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalaridir.

Soliq agentlari - Soliq agentlari Soliq Kodeksga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.

Soliq to'lovchining vakillari - Soliq to'lovchining vakillari qonunga yoki ta'sis hujjatiga muvofiq soliq to'lovchining vakili bo'lishga vakolatli shaxslardir.

Davlat soliq xizmati organlari – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari;

Bojxona organlari – O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari;

Moliya organlari – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo'limlari;

Soliq munosabatlarining sub'ektlari - Soliq to'lovchilar va vakolatli organlar soliq munosabatlarining sub'ektlaridir.

Yuridik shaxs - O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot; chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan hamda O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'lgan xorijiy va (yoki) xalqaro tashkilot.

Jismoniy shaxs - O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jismoniy shaxslar deb e'tirof etiladi.

Notijorat tashkilotlari - Notijorat tashkilotlari deganda foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar tushuniladi.

Notijorat tashkilotlariga byudjet tashkilotlari, shu jumladan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari kiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkor - Yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, xodimlarni yollash huquqisiz, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti - O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxs;

O'zbekiston Respublikasining rezidenti O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O'zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs.

Doimiy muassasa - Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda norezident O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan faoliyatni vakolatli shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e'tirof etiladi.

Asosiy ish joyi – ish beruvchi mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo'lgan ish joyi;

Asosiy faoliyat turi – yuridik shaxsning umumiy realizatsiya qilish hajmidagi tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati;

Byudjetdan ajratiladigan subsidiya – davlat tomonidan muayyan maqsadlar uchun byudjet hisobidan beriladigan pul mablag'lari;

Grant – davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga, O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk;

Dividendlar – aktsiyalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o'rtasida (ishtirokchilari, a'zolari o'rtasida ularning ulushlari, paylari, hissalar bo'yicha) taqsimlanadigan sof foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek muassis (ishtirokchi, a'zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a'zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi;

Ijara(lizing) to'lovi – ijarachi (lizing oluvchi) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to'laydigan summa;

Ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi – buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan ijara (lizing) to'lovi

summasi bilan ijara (lizing) ob`ektining qiymatini qoplash summasi o`rtasidagi farq ko`rinishidagi ijara (lizing) to`lovining bir qismi;

Insonparvarlik yordami – aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlariga tibbiy va ijtimoiy yordam ko`rsatish, ijtimoiy soha muassasalarini qo`llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, falokatlar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun aniq maqsadli beg`araz ko`maklashish. Insonparvarlik yordami dori vositalari va tibbiy ahamiyatga molik buyumlar, xalq iste`moli tovarlari, boshqa tovarlar, shu jumladan asbob-uskunalar, transport va texnika, shuningdek ixtiyoriy ravishdagi xayr-ehsonlar, bajarilgan ishlar va xizmatlar, shu jumladan insonparvarlik yordami yuklarini tashish, kuzatib borish va saqlash tariqasida beriladi hamda O`zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan vakolatli tashkilotlar orqali taqsimlanadi;

Ishlarni (xizmatlarni) eksport qilish – ishlarni bajarish (xizmatlar ko`rsatish) joyidan qat`i nazar O`zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan chet davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko`rsatish;

Kredit tashkilotlari – tegishli litsenziyaga ega bo`lgan banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari;

**Kurs bo`yicha farq** – milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o`zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq;

Mol-mulk – egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish predmetlari bo`la oladigan moddiy ob`ektlar, shu jumladan pul mablag`lari va qimmatli qog`ozlar hamda nomoddiy ob`ektlar. Ob`ektlarni mol-mulk jumlasiga kiritish fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi;

Oila a`zolari – er (xotin), ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar va bolalar, shu jumladan farzandlikka olinganlar;

Operativ ijara – moliyaviy ijara shartnomasi bo`lmagan mulkiy ijara (ijaraga berish) shartnomasi asosida mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berish;

Realizatsiya qilish – sotish, ayirboshlash, beg`araz berish maqsadida tovarlarni jo`natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko`rsatish, shuningdek garovga qo`yilgan tovarlarga bo`lgan mulk huquqini garovga qo`yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish. Hisobvara-q-fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko`rsatilganligi to`g`risidagi dalolatnomalar, tovarlar jo`natilganligini (topshirilganligini), ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko`rsatilganligini tasdiqlovchi kvitantsiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlardir;

Royalti– quyidagilar uchun har qanday turdagi to`lovlar: fan, adabiyot va san`at asarlaridan, shu jumladan elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturlar, audiovizual asarlardan hamda turdosh huquqlar ob`ektlaridan, jumladan ijrolar va fonogrammalardan foydalanganlik yoxud ulardan foydalanish huquqini berganlik uchun; sanoat mulki ob`ektiga, savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga, maxfiy formula yoki jarayonga bo`lgan huquqni tasdiqlovchi patentdan

(guvohnomadan) yoxud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborotdan (nou-xaudan) foydalanganlik uchun;

Savdo faoliyati – qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat;

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi;

Soliq qarzi – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, shu jumladan Soliq Kodeksda belgilangan muddatida to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar;

Sof tushum – tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ini hamda aksiz solig'i summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum;

Soffoyda – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda;

Tannarx – mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa turdagi xarajatlarning qiymat bahosi. Tannarx buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi;

Tovar oboroti – muayyan davr ichida savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida tovarlarni sotishdan olingan (olinishi lozim bo'lgan), pulda ifodalangan mablag'lar;

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum – realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo'lgan) mablag'lar summasi, shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati;

Tovarlarni eksport qilish – O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish;

To'lov manbai – soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

Umidsiz qarz – sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'lmagan qarz;

Favqulodda holatlar – taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lmagan, tabiat hodisalari (zilzila, ko'chkilar, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko'zlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar bo'lib, qabul qilingan majburiyatlar shular tufayli bajarila olmaydi;

Foizlar – har qanday turdagi qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, shuningdek depozit qo'yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad;

Yutuq– lotereyalar, o'yinlar, tanlovlar, musobaqalar (olimpiadalar), festivallar va shu kabi boshqa tadbirlarda olingan, natura holidagi yoki pulda ifodalangan to'lovlar, sovrinlar va boshqa daromadlar;

Yaqin qarindoshlar – er, xotin, ota-ona, bolalar, tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillar, bobolar, buvilar, nevaralar;

O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestri – soliq to'lovchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi;

Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar – buyurtmachiga tegishli xom ashyo va materiallar bo'lib, buyurtmachi ularni mahsulot ishlab chiqarish uchun boshqa shaxsga sanoat asosida qayta ishlashga beradi hamda tuzilgan shartnomaga muvofiq mahsulot keyinchalik buyurtmachiga qaytariladi;

Hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar – operatsiya sanasini, summasini, xususiyatini aniqlash va uning ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar.

Soliqlarga quyidagilar kiradi: 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i; 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; 3) qo'shilgan qiymat solig'i; 4) aksiz solig'i; 5) yer qat'idan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar; 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; 7) mol-mulk solig'i; 8) yer solig'i; 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i; 10) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq; yagona soliq to'lovi; yagona yer solig'i; tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi: 1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar: yagona ijtimoiy to'lov; fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari; byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar; 2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar: Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar; Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar; 3) davlat boji; 4) bojxona to'lovlari; 5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari - Soliq yoki boshqa majburiy to'lov soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq to'lovchilar, shuningdek ushbu soliq yoki boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur elementlar belgilab qo'yilgan taqdiridagina belgilangan deb hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari quyidagilardir:

- soliq solish ob'ekti;
- soliq solinadigan baza;
- stavka;
- hisoblab chiqarish tartibi;
- soliq davri;
- soliq hisobotini taqdim etish tartibi;

➤ to'lash tartibi.

Soliq solish ob'ekti - Soliq solish ob'ekti soliq to'lovchida soliq yoki boshqa majburiy to'lov hisoblab chiqarilishi va (yoki) to'lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasidir.

Soliq solinadigan baza - Soliq solinadigan baza soliq solish ob'ektining soliq yoki boshqa majburiy to'lovning stavkasi tatbiqan belgilangan ko'rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.

Stavka - Stavka soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari, agar Soliq Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Hisoblab chiqarish tartibi - Soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish tartibi soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek imtiyozlar mavjud bo'lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to'lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Soliq Kodeksda nazarda tutilgan hollarda, soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish majburiyati davlat soliq xizmati organi yoki soliq agenti zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Soliq davri - Soliq davri u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir. Soliq davri bir necha hisobot davriga bo'linishi mumkin bo'lib, ularning yakunlari bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi lozim bo'lgan summalarini to'lash majburiyati yuzaga keladi. Joriy to'lovlarni to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga kelgan davr hisobot davri bo'lmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar - Soliq Kodeksda, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar deb e'tirof etiladi. Mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlarni berish belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Soliq to'lovchi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar vujudga kelgan paytdan e'tiboran ular amal qiladigan butun davr mobaynida foydalanishga haqli. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar bo'shagan mablag'larni muayyan maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag'lardan belgilanmagan maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilanmagan maqsadda foydalanilgan summa o'rnatilgan tartibda penya hisoblangan holda byudjetga undirib olinadi. O'zbekiston Respublikasi

Markaziy banki, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bosh boshqarmalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muassasalari Soliq Kodeksda nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi, yagona ijtimoiy to'lov bundan mustasno.

Soliq to'lovchilarning huquqlari -Soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega: davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida axborot olish; o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarni olish; soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'z vakili orqali ifoda etish; Soliq Kodeksda, boshqa qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilab qo'yilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda hamda tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish; soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish yoki qaytarib olish; Soliq Kodeksda hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan shartlarda va tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash; soliq solish ob'ektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish; soliq tekshiruvlari materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish; soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish; davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining Soliq Kodeksga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lmagan hujjatlari hamda talablarini bajarmaslik; davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish; davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari tufayli etkazilgan zararining o'zni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

Soliq to'lovchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. Soliq to'lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek vakilning ishtirok etishi soliq to'lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi. Soliq to'lovchi vakillarining mazkur soliq to'lovchining soliq munosabatlaridagi ishtiroki munosabati bilan sodir etilgan harakati (harakatsizligi) soliq to'lovchining harakati (harakatsizligi) deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchilarning majburiyatlari - Soliq to'lovchilar:

o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi; qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;

davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi; soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi; davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart.

Vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari - Vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari Soliq kodeksi hamda boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Soliq majburiyati - Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e'tirof etiladi.

Soliq majburiyatini bajarish uchun soliq to'lovchi: Soliq kodeksda belgilangan hollarda davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishi; soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishi; moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'liq miqdorda to'lashi shart.

Soliq majburiyatini bajarish tartibi - Soliq majburiyatini bajarish bevosita soliq to'lovchi tomonidan amalga oshiriladi, Soliq Kodeksga va boshqa qonunlarga muvofiq soliq majburiyatini bajarish boshqa shaxsga yuklatiladigan hollar bundan mustasno. Yuridik shaxsning alohida bo'linmalari bo'yicha soliq majburiyati mazkur alohida bo'linmalar tomonidan, agar ularga alohida mol-mulk ajratilgan bo'lsa va ular mustaqil balansga ega bo'lsa, mustaqil ravishda bajariladi. Soliq solinadigan mol-mulk ishonchli boshqaruvga topshirilganda boshqaruv muassisi bo'lgan soliq to'lovchining soliq majburiyati, agar bu majburiyat unga boshqaruv muassisi tomonidan yuklatilgan bo'lsa, ishonchli boshqaruvchi tomonidan bajarilishi mumkin. Soliq majburiyati bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, soliq to'lovchiga nisbatan Soliq Kodeksda nazarda tutilgan tartibda uning bajarilishini ta'minlash choralari qo'llaniladi.

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari - Soliq majburiyati Soliq Kodeksda belgilangan muddatlarda soliq to'lovchi tomonidan bajarilishi kerak. Soliq to'lovchi soliq majburiyatini muddatidan ilgari bajarishga haqli. Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar' sana yoki vaqt davri (yil, yil choragi, oy, o'n kunlik va kun) o'tishi bilan belgilanadi. Muddatning o'tishi kalendar' sanadan yoki muddatning boshlanishi belgilab qo'yilgan voqea yuz berganidan keyingi kundan boshlanadi. Soliq majburiyati bu majburiyatni bajarish muddatining so'nggi kuni soat yigirma to'rtga qadar bajarilishi kerak. Agar soliq majburiyatini bajarish muddatining so'nggi kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelib qolsa, shundan keyingi birinchi ish kuni muddatning tugash kuni hisoblanadi.

**Soliq solish ob`ektlarini va soliq solish bilan bog`liq ob`ektlarni aniqlash hamda ularning hisobi** - Soliq va boshqa majburiy to`lovning har bir turi bo`yicha soliq solish ob`ekti hamda soliq solish bilan bog`liq ob`ektlar Soliq Kodeksning Maxsus qismiga muvofiq belgilanadi. Soliq to`lovchilarning daromadlari hamda soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni hisoblab chiqarish uchun ular bo`yicha tegishli chegirmalar to`lov to`langan vaqt va pul kelib tushgan sanadan qat`i nazar, ular taalluqli bo`lgan hisobot davrida aks ettiriladi (hisoblab yozish usuli). Mol-mulkni hisobga olish buxgalteriya hisobi to`g`risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ayrim hollarda soliq solish ob`ektlarini va soliq solish bilan bog`liq ob`ektlarni aniqlash** - Soliq to`lovchi tomonidan hisob hujjatlari yo`qotilgan yoki yo`q qilingan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari byudjetga va davlat maqsadli jamg`armalariga to`lanishi kerak bo`lgan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar summasini soliq to`lovchi to`g`risida, shuningdek shunga o`xshash boshqa soliq to`lovchilar to`g`risida o`zlarida mavjud bo`lgan ma`lumotlar asosida O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi va O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda hisob-kitob qilish orqali aniqlashi mumkin.

Hisob hujjatlari. Hisob hujjatlarini tuzish va saqlash - Hisob hujjatlari soliq solish ob`ektlari va soliq solish bilan bog`liq ob`ektlarni aniqlash, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni hisoblab chiqarish uchun asos bo`lgan birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari hamda boshqa hujjatlardan iboratdir. Hisob hujjatlari qog`ozda va (yoki) elektron shaklda tuziladi hamda Soliq Kodeksning 38-moddasida belgilangan soliq majburiyati bo`yicha da`vo qilish muddati tugaguniga qadar saqlanadi. Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning hisob hujjatlarini saqlash majburiyatlari uning huquqiy vorisi zimmasiga yuklatiladi. Yuridik shaxs tugatilganda hisob hujjatlari tegishli davlat arxiviga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda topshiriladi.

Soliq hisoboti tushunchasi - Soliq hisoboti soliq to`lovchining soliq va boshqa majburiy to`lovning har bir turi bo`yicha yoki to`langan daromadlar bo`yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o`z ichiga oladigan hujjati bo`lib, u O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi va O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi.

Soliq hisobotini tuzish - Soliq hisoboti qog`ozda va (yoki) elektron hujjatga doir talablarga rioya etilgan holda elektron hujjat tarzida tuziladi. Soliq hisoboti soliq to`lovchi tomonidan imzolanishi kerak, shuningdek agar u yuridik shaxs bo`lsa, uning muhri bilan tasdiqlanadi. elektron hujjat tarzida taqdim etilgan soliq hisoboti soliq to`lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Soliq hisobotini taqdim etish tartibi - Soliq hisoboti soliq to`lovchi tomonidan Soliq Kodeksda belgilangan muddatlarda taqdim etiladi. Soliq hisoboti soliq to`lovchi hisobga qo`yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etiladi. Ayrim turdagi soliqlar bo`yicha soliq hisoboti ham

Soliq Kodeksda nazarda tutilgan hollarda ob`ektlar bo`yicha hisobga qo`yilgan joy bo`yicha soliq to`lovchi tomonidan taqdim etiladi. Jismoniy shaxslar soliq deklaratsiyasini yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etadilar.

Soliq hisobotini saqlash muddati - Soliq hisoboti davlat soliq xizmati organlarida Soliq Kodeksning 38-moddasida belgilangan soliq majburiyati bo`yicha da`vo qilish muddati mobaynida saqlanadi. Soliq hisobotini soliq to`lovchida saqlash qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O`zbekiston 2015 yil.
2. “O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi” (2020 yil 1-yanvar amalga kiritilgan) T – 2019 y.
3. O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi. “2019 yilda soliq qonunchiligiga kiritilayotgan o`zgarishlar yuzasidan o`quv qo`llanma”. T. 2019 y.
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «Tadbirkorlik sub`ektlarini huquqiy himoya qilish tizimi yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» Toshkent. «Xalq so`zi», 2005 yil 14 iyun.
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori «Tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to`g`risida» Toshkent «Xalq so`zi» 2005 yil,16 iyun.
6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag`batlantirish borasidagi chora-tadbirlari to`g`risida». Toshkent - «Xalq so`zi», 2005 yil 20 iyun.
7. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag`ishlangan majlisidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so`zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
8. Алле М. За реформы налоговой системы. Переосмысливая общепризнанное истины /Пер с. франц. Под ред. И.А. Егорова. - М.: ТЕИС, 2001. – 96 с.
9. Большаков С. «Финансовая политика государства и предприятия». М; «Книжный мир» 2002 г.
10. Vahobov A., Jumaev N., Burxanov N. «Xalqaro moliya munosabatlari». T.: «Sharq» 2003 y. – 400 bet.
11. Jo`raev T. «Soliq siyosatini takomillashtirish yo`lida». «Xalq so`zi». 2003 yil 20 sentyabr.
12. Bekmurodov M. “Soliq tizimi va jamoatchilik fikri”//Soliq to`lovchining jurnali, 1996. 7-son.
13. Брызгалина А. В. Налоговые споры, 1997-1998 гг.
14. Gataulin Sh.K. Soliq inspektorining qo`llanmasi (me`yoriy hujjatlar to`plami).-

- Т.: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, 1996 y.-432 b.
15. Yugay L. Soliqqa oid xatolar.-Т.: «Iqtisod va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 1996y.-126 b.
 11. Гадоев Е.Ф. и др. «Налоги в Республике Узбекистан» в 1997 г.: Методическое пособие. 2-е изд., доп. И переаб.-Т.: Издательский дом «Мир экономики и права», 1997.-352с.-(Б-ка бухгалтера:Т.2.)
 12. Гадоев Е.Ф. Югай И.В. Методическое пособие «Налоги в Республике Узбекистан» в 1999-2000 гг.»
 13. Караваева И. «Налоговое регулирование рыночной экономики»: Учебное пособие. М: ЮНИТИ-ДАНА, 2000 г.
 14. Черник Д.Г. Налоги в рыночной экономике. —М.: «Юнити», 2000 г.
 15. Иванов А.М., Маркин В.И., Перевозчиков А.Г. Об особенностях оценки рыночной стоимости коммерческой недвижимости на дату в прошлом.// Российский оценщик. 1996 г. №10-11.
 16. Ходов Л.Г., Попов В.И. Подходное налогообложение физических лиц (зарубежный опыт, российские проблемы): Учеб. пособ.- М.: ТЕИС, 2004г.— 132 с. Soliq to'lovchining jurnali 2004-2005 y.
 17. Bozor, pul va kredit jurnali 2004-2005 y.
 16. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali 2004-2005 y.
 17. Soliqlar va bojxona xabarleri gazetasi 2004-2005 y.
 18. N.Gregory Markwin. Principles of Economics 7 th edition Amazon USA 2014
 19. Альманах “Узбекистан-2017”, - ТСЭИ, Ташкент 2017 г.
 20. «Norma» axborot huquqiy tizimi
 21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi sayti: www.press-service.uz
 22. O'zbekiston Respublikasi Davlat Hukumati portali: www.gov.uz
 23. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi www.Lex.uz
 24. Jahon bankining O'zbekistondagi doimiy vakolatxonasi sayti www.worldbank.org/uz
 25. [http://www. cer.uz](http://www.cer.uz).
 26. <http://www. uzland.uz>.
 27. <http://www. imf.org>.
 28. <http://www. mircin.ru>.
 29. <http://www. nalog. ru>
 30. <http://www. soliq. uz>

M U N D A R I J A

1	“Soliqlar va soliqqa tortish” maxsus kursining o`qitishning zarurligi, maqsadi va vazifalari, soliqlarning iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari.	3
2	O`zbekiston respublikasi soliq tizimi va soliq munosabatlari subektlarining huquq hamda majburiyatlari	18
3	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i	30
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i	50
5	Qo`shilgan qiymat solig`i	66
6	Aksiz solig`i	83
7	Yer qa`ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va mahsus to`lovlar	95
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	110
9	Yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	120
10	Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig`i	134
11	Soliq solishni soddalashtirish tartibi	144
12	Ijtimoiy soliqlar. Mahalliy soliqlar va yig`imlar.	165
13	Glosariy	177
14	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	188